

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 821.512.133

NIZOMOV FARHOD MUSO O‘G‘LI

**“ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDA UCHRAYDIGAN
RAQAMLARNING G‘OYAVIY-BADIIY MOHIYATI
VA VAZIFALARI”**

5A111201 – “O‘zbek tili va adabiyoti” mutaxassisligi bo‘yicha

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. T. Xo‘jayev

Navoiy – 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB: “XAMSA”DA OLAM VA INSON BILAN BOG‘LIQ RAQAMLARNING MOHIYATI	10
1.1. “Xamsa” dostonlarida olam haqidagi qarashlarning raqamlardagi talqini.....	10
1.2. Inson umrining raqamlardagi ifodasi.....	35
II BOB: DOSTONLARDA TARTIB VA MIQDOR ANGLATUVCHI RAQAMLARNING ASAR VOQEALARI VA OBRAZLAR KECHINMALARIDAGI VAZIFALARI	35
2.1. Tartib va miqdor sonlarning doston voqealari rivojidadagi ahamiyati.....	35
2.2. Raqamlarning “Xamsa” obrazlarida kechinma va taqdirlardagi o‘rni.....	50
III BOB: “XAMSA”DAGI RAQAMLARNING DINIY-TASAVVUFIIY, SEHRLI MOHIYATI BADIYYATI	60
3.1. “Xamsa”dagi ayrim raqamlarning diniy-tasavvufiy va sehrli ma’nolari.....	60
3.2. Dostonlardagi raqamlar singdirilgan baytlarning badiiy xususiyatlari.....	74
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	82

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Fakultet: O‘zbek tili va adabiyoti

Magistratura talabasi: Nizomov F.M.

Kafedra: O‘zbek adabiyoti

Ilmiy rahbar: dots. Xo‘jayev T.R.

Mutaxassisligi: 5A 111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

“Alisher Navoiy “Xamsa”sida uchraydigan raqamlarning g‘oyaviy-badiiy mohiyati va vazifalari” nomli magistrlik dissertatsiyasida “Xamsa”da uchraydigan raqamlar haqida mulohaza yuritish mo‘ljallangan.

Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizda raqamlar bilan bog‘liq tadqiqotlar yaratilgan. “Xamsa”da ko‘plab raqamlar uchraydi. Ularni to‘liq aniqlash, mohiyati va badiiy vazifalarini tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Dissertatsiyada “Xamsa” dostonlarini to‘liq o‘qib chiqish, ularda qayd etilgan barcha raqamlarni aniqlash maqsad qilib olindi. Shu asosda raqamlarning olam, inson hayoti bilan bog‘liq jihatlari, raqamlarning asar voqealari tasviri, obrazlar kechinmalarini yoritishdagi ahamiyati, raqamlarning diniy-tasavvufiy mohiyati, sehrli xususiyatlari, baytlarning badiiyligini oshirishdagi o‘rnini ko‘rsatish kabi vazifalarni hal qilishga harakat qilinadi.

Dissertatsiyaning asosiy obeykti qilib Alisher Navoiy “Xamsa”si, uning turli yillardagi, ayniqsa oxirgi nashrlari olindi. Ishni yozishda milliy istiqloq g‘oyasi va mafkurasi, yirik adabiyotshunoslarning tadqiqotlari, qiyosiy, xronologik, statistik usul va uslublarga suyanildi. “Xamsa”dagi raqamlar mohiyati va badiiyatini to‘liq o‘rganish, ularning asar voqealari va timsollari, shoir g‘oyaviy niyatini yoritishdagi o‘rnini belgilash dissertatsiyaning ilmiy yangiligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari “Xamsa”ning mohiyatini yetarlicha tushunish va anglash maqsadida oliy o‘quv yurt talabalari uchun ma’ruza, seminar darslarida foydalanish imkonini beradi. Magistrlik dissertatsiyasi uch asosiy bob va kichik

qismlardan tashkil topadi. Bu boblarda “Xamsa”dagi raqamlar olam va inson, asar voqealari va obrazlari kechinmalari, ayrim raqamlarning diniy-tasavvufiy va sehrlil xususiyatlarini yoritishga harakat qilindi.

Xalq og‘zaki ijodida sehrlil, an’anaviy raqamlar shaklida tadqiqotlar yaratilgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida turli davrlarda, shoir ijodida raqamlarning o‘rni, ularning an’anaviy, diniy-tasavvufiy mohiyati o‘rganilgan. Ushbu dissertatsiyada bir shoir – Navoiy va uning “Xamsa”sida uchraydigan raqamlar tadqiqiga tortilgan. “Xamsa”da ko‘plab raqamlar mavjud. Ularni to‘liq tadqiq etish, mohiyati va badiiy vazifalarini o‘rganish muhim ishlardan. Raqamlarning olam, inson hayoti bilan bog‘liq jihatlari, raqamlarning asar voqealari tasviri, obrazlar kechinmalarini yoritishdagi ahamiyati, raqamlarning diniy-tasavvufiy mohiyati, sehrlil xususiyatlari, baytlarning badiiyligini oshirishdagi o‘rnini ko‘rsatish kabilarga e’tibor qaratilgan.

Ilmiy rahbar:
Magistratura talabasi:

dots. Xo‘jayev T.R.
Nizomov F.M.

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER AND SPEICAL SECONDARY EDUCATION
NAVOIY STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

Faculty: “Uzbek language and literature”
Academic Chair: Uzbek literature
Xo‘jayev T. R.

Masters student: F. Nizomov
Scientific leader: dots.

Specially: 5A 111201 – uzbek language and literature

THE ANNOTATION OF MASTER’S DEGREE DISSERTATION

The dissertation “The Ideological and literary significance and tasks of numbers in “Quintiple” (“Khamsa”) by Alisher Navoi” covers the discussion over the use of numbers in “Khamsa”.

In folklore and national literature were created with lots of numbers that could be decoded in “Khamsa”. The essence of completely defining them, researching literary functions are the heat of the theme. In the dissertation extensive reading convey all numbers of the poems of “Khamsa” were purposed.

In view of this dissertation was aimed at determining numbers which relevant to the world, the life of human beings, substances of religious affairs, its unique peculiarities, literary function on couplets. “Khamsa” by Alisher Navoi especially, its latest editions were taken as a main object of dissertation.

Working on this dissertation was taken into consideration to the ideology of national freedom, researches of giant specialists in literature, its comparative, chronological, statistical methods and styles. The main the substance of writer was to analyze the substance of numbers, literal essence, extraordinary plots and models of the work. The latest results on research made a change to yourths who study in higher education in order to realize properly the essence of the work and to utilize them at theoretical and practical courses.

The master’s degree dissertation consists of three major chapters and small parts. On these chapters numbers were illuminated with the world, human being,

plots, some religious affairs, unique peculiarities in “Khamsa”. Many experiments were investigated by magic, traditional ways. This dissertation investigates a poet – Navoi and aspects of numbers which could be conveyed in “Khamsa”.

In this dissertation was aimed at determining numbers which relevant to the world, the life of human beings, substances of religious affairs, its unique peculiarities, literary functions.

Scientific leader:

dots. Xo‘jayev T. R.

Masters student:

F. Nizomov

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik o‘zbek xalqiga o‘zligini anglash va anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlar va qadriyatlarini tiklash, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun beqiyos imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Eng muhim vazifa shundan iboratki, o‘zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni avaylab-asrab, yanada boyitishimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo‘lmog‘imiz darkor”¹, degan so‘zlari adabiy merosimizga diqqat-e’tiborning ortganligi va milliy o‘zligimizni anglash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hayotidagi juda katta o‘zgarish va yangilanishlar sabab uzoq yillik tarixga ega mumtoz adabiyot namunalarini tadqiq etishga keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham, albatta, bo‘ladi”². Yana o‘z fikrlarini davom ettirib, Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida islom dinining, jumladan, tasavvuf ta’limotining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan diniy bag‘rikenglikni ta’minlash sohasida ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi³. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari tufayli ko‘p asrlik tarixga ega mumtoz adabiyotimiz namunalariga yanada e’tibor oshdi. Ko‘p asrlik mumtoz adabiyotimiz ana shu boylikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular bilan tanishish esa bizni yanada ma’naviyatli hamda madaniyatli etadi. Bu tengsiz saodatning boshida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ijodi turadi.

¹ Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001. 126-bet

² Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: „O‘zbekiston“. 2017. 483-bet.

³ O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2017. № 258 (6952). 3-bet.

Alisher Navoiy asarlari soʻz sanʼati olamida oʻz munosib bahosini topgan. Shoirning “Xamsa”si bu borada alohida ahamiyatga ega. Ana shu qimmatbaho merosning badiiy qimmatini, dostonlarda aks etgan oʻziga xos tasvir shakllari, misralar ichiga singdirilgan yashirin maʼnolar, dostonlaridagi teran mohiyatni aks ettirishda raqamlarning oʻrni, raqamlar singdirilgan baytlarning maqsad va vazifalarini belgilab berish, sonlarning tasavvufiy mohiyatini ochish, ularning majoziy va ramziy qirralarini koʻrsatib berish, shuningdek, hukumatimiz tomonidan ilgari surilayotgan turli qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish kabilar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslik ilmda har bir ijodkorning oʻziga xos uslubi, badiiy mahorati, qalam ahlining xoh nasriy, xoh nazmiy yoʻlda yozilgan asari boʻlsin, bu namunalar ilmiy jihatdan sharhlangan. Ularga adabiyotshunos olimlar tomonidan maʼlum fikrlar bildirilgan. Jumladan, dunyo adabiyotida raqamlar borasida qator nazariyalar ilgari surilgan. Jahon adabiyotida ham “sehrli” raqamlar, ularning ilmiy asoslari haqida tatqiqotlar yaratilgan¹. Turk tilidagi “sehrli” sonlarning maʼnolarini oʻrgangan V. A. Gordlevskiy², raqamlarning diniy kelib chiqishini esa L. Uspenskiy³ kabilar keng tadqiq etishgan. Raqamlarning kishilar ongidagi mohiyati, xalq qarashlaridagi baʼzi oʻxshashliklar haqida fikr yuritgan yana bir olim A. I. Borodin hisoblanadi⁴. Yana sonlarga xos kosmik modelning trixotomik strukturasi evolyutsiyasini B. G. Ogibenin va N. L. Jukovskaya kabi olimlar ham isbotlashgan⁵. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida raqamlar borasida fikrlar adabiyotshunos Mamatqul Joʻrayevning “Sehrli” raqamlar siri”⁶, “Yetti iqlimdagi “yetti”lar”⁷ va “Oʻzbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar”⁸ singari

¹ Топоров В. Н. К семантике троичности. Москва. 1979; Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975; Членов М. Л. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах. Москва. 1979.

²Гордлевский В.А. Числительное 50 в турецком языке// Избранные произведения. Т.2. М., 1961.

³ Успенский Л. Слова о словах. Москва. 1970.

⁴ Бородин А.И. Число и мистика. Донецк, 1975.

⁵ Жуковская Н. Л. Формы проявления культа природы в пантоне и ритуалах ламаизма. Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. Москва. 1980. С. 113.

⁶ Joʻrayev M. “Sehrli” raqamlar siri. T.: “Fan”, 1990.

⁷ Joʻrayev M. Oʻzbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. T.: “Fan”, 1991.

⁸ Joʻrayev M. Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi “yetti”lar. T.: “Fan”, 1989.

ilmiy asarlarida uchraydi. S. Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfası”¹da, N. Jumaxo‘janing “Satrlar silsilasidagi sehr”², Y. Is‘hoqovning “O‘n sakkiz ming olam asrori”³, N. Komilovning “Tasavvuf”⁴, N. Mallayevning “Alisher Navoiy Navoiy va xalq og‘zaki ijodi”⁵, I. Haqqulovning “Tasavvuf va she‘riyat”⁶, “Anosiri arba‘a: mohiyat va she‘riy talqin”⁷ A. Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari”⁸ kabi ilmiy manbalarda ham raqamlar haqida so‘z boradi.

O‘zbek mumtoz she‘riyatida ishlatilgan raqam ramzlari va ularning ma‘no xususiyatlari to‘g‘risida tadqiqotchi S. Jumayevaning “O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini”⁹ mavzusidagi monografiyasi hamda “Raqam, ma‘no, tasvir”¹⁰ kitoblarida anchayin keng ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, raqamlar haqidagi ba‘zi mulohazalar Najmiddin Kubroning “Tasavvufiy hayot”¹¹, E. Ochilovning “Bir hovuch dur”¹², Sh. Sharipovning “Lison ut-tayr” haqiqati”¹³ monografiyasida, Z. Mamadaliyeva, S. Sayfiddinovalarning “Saddi Iskandariy”dagi yetti donishmand”¹⁴ maqolalarida “yetti” raqamining tasavvufiy jihatlariga ahamiyat qaratilgan.

Biz yuqorida keltirilgan ilmiy adabiyotlarda raqamlar u yoki bu tarzda tahlil etilgan. Masalan, adabiyotshunos M. Jo‘rayevning tadqiqotlarida o‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan “sehrli” raqamlar tadqiqiga alohida ahamiyat qaratilgan bo‘lsa, Y. Is‘hoqov ilmiy maqolasida “o‘n sakkiz ming olam” raqam

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991.

² Jumaxo‘ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. T. : “Fan”, 1996.

³ Is‘hoqov Y. O‘n sakkiz ming olam asrori. Navoiyga armug‘on. 3-kitob. T. : 2003.

⁴ Komilov N. Tasavvuf. I va II kitob. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari, 2009.

⁵ Mallayev N. “Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodi”, Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi”, 2015.

⁶ Haqqulov I. Tasavvuf va she‘riyat. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi”, 1991.

⁷ Haqqulov I. Anosiri arba‘a: mohiyat va she‘riy talqin. Navoiyning ijod olami: maqolalar to‘plami. III kitob. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2016.

⁸ Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. T.: “G‘afur G‘ulom nomli adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1995.

⁹ Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini. T.: “Fan”, 2010.

¹⁰ Jumayeva S. Raqam, ma‘no, tasvir. T. : “Fan”, 2005.

¹¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. T.: “Movarounnahr”, 2004.

¹² E. Ochilovning “Bir hovuch dur”¹², T.: “O‘zbekiston”, 2011.

¹³ Sharipov Sh. “Lison ut-tayr” haqiqati. Toshkent: “Sharq”, 1999.

¹⁴ Mamadaliyeva Z., Sayfiddinova S. “Saddi Iskandariy”dagi yetti donishmand”. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2015. 65-69-betlar.

ramzi xususida soʻz yuritadi. Xuddi shu mavzuda adabiyotshunos olimlar I. Haqqul hamda N. Jumaxoʻjaning mulohazalari ilgari surilgan. N. Komilov ilmiy asarlarida esa baʼzi tasavvufiy raqamlarga mufassal toʻxtalib oʻtilgan. Adabi-yotshunos olim S. Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfası”¹da “Sabʼai sayyor” dostonining badiiy xususiyatlari, falsafiy tomonlari, hikoyatlardagi ramziylik, dostonning oʻziga xos kompozitsion qurilishi haqida batafsil ilmiy maʼlumotlar berilgan. Biroq tadqiqot obʼyekti boʻlgan “Sabʼai sayyor”dagi barcha raqamlar toʻgʻrisida mulohaza bildirilmagan. Adabiyotshunos olim S. Jumayevaning “Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida raqam ramzlari va ularning maʼno talqini” monografiyasida² esa oʻzbek mumtoz sheʼriyatidagi raqamlarning maʼno talqinlari xususida fikr yuritilgan boʻlib, unda XII-XV asrlarda turkiy sheʼriyat ijodkorlari asarlariga eʼtibor qaratadi. Ushbu monografiyada Alisher Navoiy sheʼriyati haqida ham mulohazalar bayon etiladi. Shuningdek, “Xamsa”dagi baʼzi tasavvufiy raqamlarga eʼtibor qaratiladi. Ammo biz tahlilga tortayotganimiz ulugʻ shoir ijodining shoh asari boʻlgan “Xamsa” dostonlari, ularda uchraydigan raqamlarning mohiyati va ularda nazarda tutilgan gʻoyalar haqida fikrlar maʼlum tartibda va izchillikda bayon etilmagan. Shuningdek, faqat “Xamsa” dostonlari miqyosida raqamlar tahlilga tortilmagan.

Magistrlik dissertatsiyasining obʼyekti va predmeti. Ushbu dissertatsiya ishini yozishda quyidagi manbalar asos qilib olindi: Alisher Navoiyning “Hayrat ul abror” (TAT.10 jildlik.6-jild.Toshkent. Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijodiy matbaa uyi. 2012), Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” (TAT.10 jildlik.6-jild.Toshkent. Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijodiy matbaa uyi. 2012), Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” (TAT.10 jildlik. 7-jild.Toshkent. Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijodiy matbaa uyi. 2012), Alisher Navoiyning “Sabʼai sayyor” (TAT.10 jildlik. 7-jild. Toshkent. Oʻzbekiston

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991.

² Jumayeva S. Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida raqam ramzlari va ularning maʼno talqini. T.: “Fan”, 2010.

matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijodiy matbaa uyi. 2012), Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” (TAT.10 jildlik. 8-jild.Toshkent. Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijo-diy matbaa uyi. 2012), Alisher Navoiy Tanlangan asarlar toʻplami (TAT. 10- jildlik. 4-5- 6-7-8-9-10-jildlar. Toshkent. Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-ijodiy matbaa uyi. 2012); Alisher Navoiy Mukammal asarlar toʻplami (MAT. 20 tomlik. 6-7-8-9-10-11-tomlar) Toshkent: Oʻzbekiton Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 1991.

Tadqiqot predmeti esa Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida uchraydigan raqam-larni gʻoyaviy va badiiy jihatdan tahlil etish, ularning tasavvufiy, “sehrli” maʼno-larini asoslab berish, ularning kelib chiqishini ilmiy dalillar orqali koʻrsatishni nazarda tutadi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida uchraydigan raqamlarni aniqlash, ularda biz hali bilmagan maʼno qirralarini ochish, oldin oʻrganilgan va shu asar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ham jiddiy eʼtibor qaratib, ulardagi baʼzi eʼtiborsiz qolgan oʻrinlarni ilmiy jihatdan ochib berishni, “Xamsa” dostonlarida uchraydigan raqam ramzlarda koʻzda tutilgan mohiyatlarni oʻrganish, dostonlarda qoʻllanilgan raqamlar tarixini oʻrganish, ularning ramziy -majoziy maʼnolarini yoritish, shuningdek, raqamlar-ning badiiy vazifalarini aniqlash, “Xamsa”dagi baʼzi magik sonlarning badiiy obraz darajasiga koʻtarilish jarayonini tahlil qilish kabilarni yoritish maqsad qilib olindi.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari. Tadqiqotda koʻzda tutilgan maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalar eʼtiborga olindi:

- “Xamsa” dostonlarini toʻliq oʻqib chiqish;
- dostonlarda raqamlar uchraydigan baytlarni aniqlash;
- oʻzbek mumtoz adabiyotida koʻp qoʻllanilgan baʼzi raqamlarning “Xamsa” dostonlaridagi anʼanaviy gʻoyaviy-badiiy mohiyatlarini ochib berish;

- “Xamsa” dostonlarida ishlatilgan raqamlarning ramziy-majoziy ma’nolarini keng miqyosida ilmiy asoslab berish;
- raqamlarning tasavvuf she’riyatida tutgan o‘rni aniqlash, ularning ramziy - majoziy ma’nolarni ifodalashdagi o‘rnini “Xamsa” dostonlari misolida aniqlash;
- “Xamsa” dostonlarida ishlatilgan raqamlarning obrazlar ruhiyatini ochishdagi o‘rnini aniqlash;
- “Xamsa” dostonlarida inson umri (yoshi) bilan bog‘liq raqamlarni aniqlash;
- “Xamsa” dostonlarida uchraydigan ba’zi raqamlar va ularning boshqa ijodkorlar-dan farqli jihatlarini tadqiq qilish;
- “Xamsa” dostonlaridagi ba’zi raqamlarning “sehrli” jihatlarini aniqlash, ularning sirli tomonlariga ahamiyat qaratish;
- “Xamsa”dagi raqamlarning badiiyatini yoritish va boshqalar belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. “Xamsa”dagi raqamlar mohiyati va badiiyatini to‘liq o‘rganish, ularning asar voqealari va timsollari, shoir g‘oyaviy niyatini yoritishdagi o‘rnini belgilash, raqamlar uchraydigan baytlar badiiyatini tahlil etish dissertatsiyaning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy masala va farazlari. Dastavval unda “Xamsa”dagi raqamlar mohiyati va badiiyatini to‘liq o‘rganish, ularning asar voqealari va timsollaridagi o‘rnini ochib berish, shoir g‘oyaviy niyatini yori-tishdagi raqamlarning o‘rnini belgilash, “Xamsa” dostonlarida qo‘llanilgan ba’zi tasavvufiy raqamlarning mohiyatini yoritish, dostonlarda uchraydigan “sehrli” sonlarning an’anaviy va urf-odat jihatidan xalq qarashlarini ifodalashdagi ahamiyatiga e’tibor qaratish, raqamlar uchraydigan baytlar badiiyatini tahlil etish dissertatsiyaning ilmiy farazani tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosi. O‘zbekiston Respubli-kasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi, ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga oid asarlari, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tarix, adabiyot, kitobxonlik, harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar haqidagi fikrlari, nutq, suhbat va kitoblari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, dissertatsiyaning maqsad va

vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayanildi. Bu borada, S. Hasanov, N. Mallayev, A. Hayitmetov, N. Komilov, A. Abdugʻafurov, Ibrohim Haqqul, M. Joʻrayev, E. Ochilov, S. Jumayeva kabi qator olimlarning tadqiqotlari eʼtiborga molikdir.

Magistrlik dissertatsiyasida qoʻllangan metod va usullar. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-diaxronik, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ijodiy etimologik asoslash metodlari hamda qiyosiy-tipologik, tahlil usullaridan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati. Oʻzbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi, asarlari har jihatdan mukammal oʻrganilgan. Jumladan, biz tahlil qilayotganimiz “Xamsa” dostonlari ham gʻoyaviy, ilmiy taraflama, obrazlar xususiyatining oʻziga xos jihatlari, dostonlardagi tasavvufiy maʼno mohiyat haqida yetarlicha fikr bildirilgan. Ammo dostonlarning badiiyati, xususan, “Xamsa” raqamlari maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu dissertatsiyada esa “Xamsa” dostonlarida uchraydigan raqamlarda koʻzda tutilgan mohiyatlarni oʻrganish, dostonlarda qoʻllanilgan raqamlar tarixini oʻrganish, ularning ramziy-majoziy maʼnolarini yoritish, dostonlardagi tasavvufiy va “sehrli” raqamlar aniqlandi. Shuningdek, raqamlarning badiiy vazifalarini ochib berishga harakat qilindi.

Oliy oʻquv yurtlarida Alisher Navoiy ijodi, uning “Xamsa” asari tahlili, dostonlarning oʻziga xos tomonlari keng miqyosda oʻrganish belgilab qoʻyilgan. Talabalar dostonlarni mutolaa qila turib, ularning eng ichiga, asardagi obrazlar sharhi, badiiy timsollarga chuqur ahamiyat qaratishi kerak boʻladi. Shoir badiiy mahoratining qanchalik kuchli ekanligi ayni shu tomonlarga ahamiyat berganda yuzaga chiqadi. Ushbu dissertatsiyada esa ayni shu jihatlarga kengroq diqqat qaratildi. “Xamsa”dagi raqamlarning mohiyati ilmiy sharhlar bilan izohlandi. Ushbu tadqiqotning amaliy natijalaridan oliy oʻquv yurtlarida “Oʻzbek mumtoz adabiyoti”, “Navoiyshunoslik” “Sharq mumtoz poetikasi tarixi” fanlari boʻyicha maʼruzalar oʻqishda, maxsus kurs va seminarlar oʻtishda; umumtaʼlim

maktablari adabiyot darslaridagi “Xamsa”dostonlaridan berilgan parchalarni tahlil etishda, dostonlarda uchraydigan ba’zi tasavvufiy raqamlarning tahlilini o‘rgatishda foydalanish mumkin. Shuningdek, magistrlik dissertatsiyasining natijalaridan kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, seminar, referat yozishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi “kirish”, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 82 betdan iborat.

I BOB: “XAMSA”DA OLAM VA INSON BILAN BOG‘LIQ RAQAMLARNING MOHIYATI

I.1. “Xamsa” dostonlarida olam haqidagi qarashlarning raqamlardagi talqini

Alisher Navoiy adabiy merosining barhayotligi barchani lol qoldirib kelmoqda. O‘z davri mumtoz she‘riyatining barcha yutuqlarini o‘zida mujassam etgan bu she‘riyat kuchli mazmun va teran mulohazaga ega. Shoir lirikasida uslubning rang-barangligi, bir baytda bir nechta badiiy vositalardan unumli foydalanish, Qur‘oni karim va Hadisi shariflarga ishoralar qilinishi, turkiy til, arab va fors-tojik tillaridagi so‘z va so‘z birikmalarini mahorat bilan ishlatish Navoiy she‘riyatining nechog‘lik boyligidan dalolat beradi. Ana shunday badiiy mahoratlardan biri raqamlardan foydalanishda yuzaga chiqadi. Uzoq yillik tarixga ega mumtoz she‘riyatimizda so‘z tanlash, turli tasavvufiy timsollardan foydalanish, badiiy tasvir vositasi sifatida ranglarni qo‘llash poetik mahorat nuqtai nazaridan muhim o‘rin tutgan. Ijodkorlar o‘z asarlarida bu kabi vositalarga alohida ahamiyat beribgina qolmasdan harf va raqamlarga ham ma‘lum vazifa, biror ma‘noni yuklagan. Shuningdek, raqamlar va harflar vositasida o‘z tafakkurini namoyish ham qilganlar. Turkiy she‘riyatda qo‘llanilgan raqamlar ma‘lum mazmun va haqiqatni ifoda qilgan. Raqamlar zamiriga har xil diniy, falsafiy tushunchalar, biror ramziy ma‘no yuklangan. Raqam aslida arab tilidan olingan bo‘lib, “son”, “miqdor”, “sana”, “yozuv”, “nomer”¹ ma‘nolarini ifodalaydi. Raqamlar va ularning taraqqiyot bosqichlari haqida “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida” anchagina ma‘lumot berilgan. Unda aytilishicha, ilk raqamlar misr va bobilliklarga mansub ekan. Misr iyerogliflarida sonlarni ifodalash uchun maxsus belgi, rasm va iyeratik begilardan foydalanishgan ekan². O‘zbek adabiyotida, jumladan, xalq og‘zaki ijodida qo‘llangan raqamlarni tarixiy ildizlari, badiiyatdagi o‘rni, poetik tabiatini puxta o‘rgangan adabiyotshunos olim M. Jo‘rayev esa o‘zbek folkloridagi raqamlarni ikkiga

¹O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik. III tom. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 233-bet.

²Ko‘proq ma‘lumot olish uchun qarang: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”. III tom. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 264-265-betlar.

ajratgan. 1) “Sehrli raqamlar”; 2) “An’anaviy raqamlar”¹. “Jahon xalqlari yozma adabiyotida raqamlar bilan bog‘liq bo‘lgan qator tushunchalar borki, ular so‘z ustalari tomonidan mohirona qo‘llanilib kelgan. Bu tushunchalar o‘z mohiyati jihatidan ilmiy-falsafiy, mifik yoki afsonaviy ko‘rinishlarga ega bo‘lishdan qat’iy nazar, yetuk san’atkor o‘z ijodida ulardan istaganini ma’lum mazmunni ifodalash uchun asar shaklining biron elementi sifatida foydalanishi mumkin”².

Alisher Navoiy sharq mumtoz she’riyatida keng qo‘llaniladigan boy ramziy mazmun va shaklga ega bo‘lgan raqamlardan unumli foydalangan.

Alisher Navoiy “Xamsa”ning barcha dostonlarida raqamlar ustamonlik bilan qo‘llanilgan. Gapni bevosita “Xamsa”ning birinchi, ya’ni boshlanma dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror”dan boshlash maqsadga muvofiq. Ushbu dostonda qo‘llangan raqamlar g‘oyaviy jihatdan ham, mantiqiy jihatdan ham ma’lum ma’noni ifodalaydi. 3988 baytdan iborat ushbu dostonda bir raqamidan boshlab o‘ngacha bo‘lgan raqamlar ko‘p uchraydi. Ma’lum bir maqsadni ifodalash, voqealar rivojini aks ettirish nuqtai nazaridan o‘n bir, o‘n ikki raqamlariga bir necha o‘rinda murojaat qilinadi. Shuningdek, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson kabi o‘nlik raqamlarga hamda yuz, ming, ikki ming kabi ko‘p xonali, birinchi, ikkinchi, uchunchi, o‘ttizinchi kabi tartib raqamlar uchraydi. “Hayrat ul-abror” dostonda ko‘p qo‘llangan raqamlarning ba’zilariga to‘xtalib o‘tish joiz. Dunyoning paydo bo‘lishi uning Alloh taola tomonidan bunyod bo‘lishi ko‘p jihatdan bir raqamiga bog‘liq. Mumtoz adabiy yodgorliklarimizda, tasavvuf adabiyotimizda ham bir raqamiga ko‘p bor murojaat qilingan. Masalan, “Ahmad Yassaviy hikmatlarida “Biru borim, diydoringni ko‘rarmanmu?” - deya Allohga murojaat qilgan. “Biru bor” – Allohning birligi, vahdoniyat. “Vahdat” istilohi birlik, yakka-yu yagonalik, tanholik nomlarini anglatadi. Shuning uchun ham Tangriga “vahdati vujud”

¹ Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar. Toshkent: “Fan”. 1991. 24-bet.

² Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 152-bet

deyilgan, ya'ni U borliqning birligidir"¹. Olamning turli-tuman ko'rinishlariga qaramay, bir raqami yagona olamni ifoda etadi. "Hayrat ul-abror" dostonida "bir ano" jumlasini ikki bor, "bir jahon" ramziy raqami uch marta, "bir jom" tarzida ikki marotaba qo'llangan. Shuningdek, "bir sabuh", "bir oftob", "bir qush", "bir madad" kabi birikmalar ham uchraydi. Bir raqami bu dostonida ramziy ma'noda Haqni tanish, butun koinotning yaratuvchisi yakka-yu yagona ekanligi anglash, unga doimo ishonish kerakligiga undaydi. Bu ulug' zotdek biror mehribon yo'qligini ta'kidlaydi:

To atodin ato, anodin ano,

Bir ano kim yo'q edi andoq yano².

Mana bu misralarda esa bu dunyo ajoyib bir guliston, unda jahonning turfa gullari o'z chiroylarini ko'z-ko'z qiladi. Ammo olam sirlarini anglashga o'zlik qiladi degan ma'no ifodalangan. Bu o'rinda bir raqami zohiriy (tashqi) dunyo ma'nosida qo'llangan:

Kim bu gulistonkim erur bir jahon ,

Balki jahone gul ichida nihon. (69-bet).

"Farhod va Shirin" dostonida bir raqami uch o'rinda "bir olam", besh o'rinda "bir jahon", "bir gardun" tarzda bir martadan qo'llanangan. Bu raqamlarda asosiy diqqat buyuk yaratuvchiga qaratilgan bo'lib, Ul zot yashayotgan mavjud olam haqida gap ketadi.

Quyidagi baytdagi "bir olam" birikmasi buyuk yaratuvchini ifodalaydi.

Junun ko'nglumni dashti g'amg'a solib,

Ne g'am , har lahza bir olamg'a solib³.

Dostonning VII bobida Abdurahmon Jomiy madhidan olingan quyidagi baytda shoir o'z ustozini cheksiz bir jahon deydi, kamoloti esa o'ziga o'xshagan bir dunyo deydi.

¹ Jumayeva S. Raqam, ma'no, tasvir. T. : "Fan", 2005. 16-bet.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 27-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi)

³ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 362-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi)

O‘zin xud bir jahoni begaron bil,
Kamolotin o‘zidek bir jahon bil. (328-bet.)

“Sab’ai sayyor” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlarida bir necha o‘rinda “bir olam”, “bir jahon” “bir dahr”, “bir fazo” singari birliklar qo‘llangan. Bu jum-lalar zamirida kishilar tasavvuridagi borliq olam, moddiy dunyo nazarda tutiladi. “Saddi Iskandariy”da shoir Suqrot, Faylaqus, Baltimus, Hurmuz, Arastu singari jahon hakimlarini tilga oladi. Ularning egallagan bilimlarini ulug‘laydi. Har biri hikmat bobida bir jahondir, ularda dunyo ilmlari yashirin deydi:

Bilikdin erur har biri bir jahon,
Jahon hikmati har birida nihon¹.

“Xamsa” dostonlarida qo‘llangan raqamlardan yana biri ikki raqamidir. Ikki raqami Zardushtiylik dinida ikki xudo Ahuramazda – haqiqat va adolat, rostgo‘ylikni himoya qiladigan, yorug‘lik va farovonlik xudosini; Axriman – yolg‘on va bo‘hton, zulm va zulmat timsilini ifoda qilgan. Insonlarning bu dunyo va oxirat haqidagi qarashlari ham ikki raqamida aks etgan. Islom ta’limotida ko‘plab farishtalar mavjud. Ana shu farishtalarning biri odam olamdan o‘tgandan keyin yorug‘ dunyodagi ishlari haqida so‘roq qiluvchi ezgulik farishtalari – Munkar va Nakirdir. Ba’zi g‘azallarda shu farishtalar ikki raqami ostida nazarda tutiladi. Undan tashqari, bu raqam yer va osmonga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. “Qadimgi qabilalarning sanoq tizimida ham dastlab bor-yo‘g‘i ikkitagina raqam – bir va ikki sonlari mavjud bo‘lgan”ligi² haqida ham ma’lumotlar bor. Inson kamoloti va uning dunyoqarashi haqida chuqur mulohazalar yuritgan allomalardan biri Imom G‘azzoliy hisoblanadi. Ushbu mutafakkir inson nafs haqida shunday deydi: “nafslar tashqi (zohiriy) va ichki (zohiriy) bo‘ladi. Zohiriy nafslar insonni hayvonot olami bilan, botiniy nafslar esa uni yuksak ma’naviyat dunyosi bilan bog‘lab turadi”.³ Bu yerda ham ikki raqami orqali insondagi ikki qarama-qarshi kuch, ya’ni tashqi olam moddiyat, kiyinish, yeyish, ichish, ayolga bo‘lgan muhabbat bo‘lsa, keyingisi

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 324-bet.

² Qutliyeva M. Raqamlarda taqdir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016-yil. 33-bet.

³ Mahmudov T. Komillik asrorlari. – T.: “Adolat”, 2006. 11-bet.

ichki olam – inson ko‘ngil istaklari, ma’naviyat dunyosi, Yaratganga bo‘lgan pok sevgi nazarda tutilgan.

“Hayrat ul-abror” dostonida eng ko‘p uchraydigani ikki raqamidir. U to‘rt o‘rinda “ikki olam” tarzda, uch o‘rinda “ikki jahon” shaklda, ikki martadan “ikki javhar”, “ikki sutun”, “ikki yo‘l”, “ikki na’v”, “ikki jom”, “ikki sifat” kabi birikmalar bilan qo‘llanadi. Bu birikmalardagi ikki raqami, ikki dunyo – foniy(o‘tkinchi) va boqiy(abadiy) dunyo mazmunida ishlatilgan bo‘lsa, “ikki yo‘l”, “ikki na’v” qo‘shilmalarida esa yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik singari qarama-qarshi tushunchalar ham ifodalangan. “Shoirning “Xazoyin ul-ma’oniy” va “Xamsa”sida” oltmishga yaqin o‘rinda “ikki olam”(dahr, jahon, dunyo, kavv) birikmasi bilan ishlatilgan”¹. Dostonning Muhammad (s.a.v.) madh etilgan ikkinchi na’t qismida shoir Ul zotning muhtaramligi jamiyki mavjudotlar uchun mehribonligi hamda ikki dunyo yagonasi ekanligini ta’kidlaydi:

Insu malak joniyu jononasi,

Ikki jahon gavhari yakdonasi. (28-bet)

“Farhod va Shirin” dostonida bu raqam uch o‘rinda “ikki olam”, “ikki javhar”, “ikki gardun”, ikki martadan “ikki yagona”, “ikki rud”, “ikki gom”, “ikki ko‘z”, “ikki jism”, “ikki ruh”, “ikki ganj”, “ikki ishq”, “ul ikkov” shakllarida qo‘llangan. Yana “ikki mujda”, “ikki hotif”, “ikki manzil”, “ikki mulk”, “ikki oyat”, “ikki g‘uncha”, “ikki tosh”, “ikki jadval”, “ikki sitamkash”, “ikki pora”, “ikki motam”, “ikki qon”, “ikki natovon”, “ikki jonfiza”, “ikki anbar”, “ikki nargis”, “ikki tuhfa”, “ikki davlat”, “ikki tavsan” jummalari ham bir martadan qo‘llangan.

Shu dostonning XVII bobida Chin xoqonining o‘z farzandi bilan qurib bitkazilgan qasrlarni ko‘rgani kelishi aytilgan. Shoh va shahzoda za’faron to‘nlarini kiyib bog‘ga kelganda ikki osmon bir quyosh ichiga yashiringanday bo‘ladi:

Qilib kisvat hariri za’faroni,

¹ Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning ma’no talqini. T.: “Fan”, 2010.11-bet.

Iki gardun quyosh ichra nihoni.

(“Farhod va Shirin”. 394-bet)

Ushbu baytda qo‘llangan “ikki gardun” tushunchasi izohtalab. Bu yerda ikki gardun deya qadimgi Sharqda mavjud bo‘lgan “yetti sayyora”, “to‘qqiz falak” singari tushunchalarga ishora mavjud. Bu osmon qavatlarining dastlabki ikkitasi esa Oy va Atorud (Merkuriy)dir. Shoir ayni shu timsollarni nazarda tutib, Farhod uchun qurilgan qasrlar Oy kabi go‘zaldir xuddi Quyosh bilan yonma-yon turgan Oyga o‘xshaydi degan dalillashni yuzaga keltiradi. “Atorud (Utorud, Tir) – falak kotibi, munshiyasi nomi bilan mashhur bo‘lib, ijod ahli – shoir-u yozuvchilarning homiysi, piri sifatida talqin qilingan”¹. Ulug‘ shoir falak kotibi ilhomlantirgani uchun ana shunday muhtasham qasr qurilganligini nazarda tutadi.

Iki olamcha mulki vus‘at ichra,

Yeti garduncha taxti rif‘at ichra.

(“Farhod va Shirin”. 354-bet)

Bu baytdagi “ikki olam” insonlar tasavvuridagi zohiriy (tashqi) hamda botiniy (ichki) dunyolarning kengligini anglatadi. Kishi ko‘zi esa aynan bu ikki dunyo hajmi (kengligi)ni to‘la ko‘rishdan o‘jiz. Uni faqat tasavvur qilishi mumkin.

Xoqon o‘tirgan taxtining kattaligi esa “yeti garduncha”, ya’ni yetti osmoncha bor deya ma’noni kuchli mubolag‘a – ifrot darajasiga olib chiqadi. Yetti falak deyilganda esa Oy, Utorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhal kabi sayyoralar nazarda tutilgan. Demak, sultonning taxti osmon toqidagi yetti yulduz egallagan joylardan ham ko‘p ekanligi anglashiladi.

“Layli va Majnun” dostonini o‘rganish jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, bu “Dardnomada” eng ko‘p uchraydigan raqam bu aynan ikki raqami ekan. Alisher Navoiy bu raqamdan ma’lum maqsadni yuzaga chiqarish o‘rinlarida ustamonlik bilan qo‘llagan.

¹Ochilov E. Bir hovuch dur. T.: “O‘zbekiston”, 2011.136-bet.

Bu raqam ramzi dostonda olti o‘rinda “ikki jahon”, besh o‘rinda “ikki ko‘z” va “ikki dilorom” tarzda, to‘rt o‘rinda “ikki dilxoh”, “ikki dog‘”, uch martadan esa “ikki yagona”, “ikki gul”, “ikki dono”, “ikki olam” shakllarida qo‘llangan. Dostonda ikki marotabadan takrorlangan “ikki g‘uncha”, “ikki dard”, “ikki so‘z”, “ikki ma‘shuq”, “ikki kudurat”, “ikki guhar”, “ikki fard”, “ikki ruh”, “ikki yor”, “ikki jism”, “ikki mardum”, “ikki madhush”, “ikki o‘t”, “ikki zor”, “ikki qabr”, “ikki yuz”, “ikki zot”, “ikki motamangez”, “ul ikki”, “ikki mardum” kabi jumlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Yuqoridagi jumalarda kelgan “ikki olam”, “ikki charx”, “ikki jahon” birikmalardagi ikki raqami, ikki dunyo – foniy(o‘tkinchi) va boqiy(abadiy) dunyo mazmunida ishlatilgan bo‘lsa, “ikki yo‘l”, “ikki na‘v” qo‘shilmalarida esa yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik singari qarama-qarshi tushunchalar ham ifodalangan. Dostonning VI bobida Abdurahmon Jomiy ta‘rifiga bag‘ishlangan bob bor. Unda shoir ustozini ulug‘laydi, uning asarlariga baho beradi. Shu qismdan olingan quyidagi baytda ustozning hassasini nazarda tutib, shu asoning qo‘l bilan ushlab turgan qismi, xudduki ikki dunyoni o‘ziga tortib turgan bir ilmoqdir deydi.

Xamdinki, asosi boshida tob,

Chekmakka iki jahonni qullob¹.

“Sab‘ai sayyor” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlarida sakkiz o‘rinda “ikki olam”, to‘qqiz o‘rinda “ikki jahon”, “ikki kavn” birikmalari uchraydi. Hamda ular foniy(o‘tkinchi) va boqiy (abadiy) dunyoni ifodalab kelgan.

Kavn aro navbati fano urg‘on,

Ikki olamg‘a pushti po urg‘on.

(“Sab‘ai sayyor”, 364-bet.)

Bu yanglig‘ iki olami qatlu kin

Ki, titrab alardin zamonu zamin².

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 31-bet.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 31-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

Olam haqidagi qarashlarning yana biri to‘rt raqami asosida ham yuzaga chiqadi. Bu raqam ramz sifatida “Hayrat ul-abrorda” ko‘p qo‘llangan raqamlardan yana biri hisoblanadi. Bu raqam “to‘rt guhar”, “to‘rt sadaf”, “to‘rt javohir”, “to‘rt taraf”, “to‘rt o‘t”, “to‘rt anosir” kabi jumlar bilan qo‘llangan. Xalqimiz ijtimoiy turmush tarzida ham bu raqamga bog‘liq dunyoning to‘rt tomoni, bir oyda to‘rt haftaning mavjudligi, bir yilning to‘rt fasldan iboratligi singari qarashlar mavjud.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da bu to‘rt unsur sifatida tuproq, suv, havo, olov kabi moddiy narsalar sanab o‘tiladi. To‘rt raqami qadimgi hind mifologiyasida ham keng qo‘llangan. “Hinduizm ta’limotiga ko‘ra, inson hayoti asosiy to‘rtta maqsadni amalga oshirishga qaratilgan: “draxma” – oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish; “artxa” – foydali ishlar qilish, zarur moddiy ehtiyoj buyumlariga ega bo‘lish; “kama” – sevgi-muhabbat tuyg‘usiga ega bo‘lish, his-tuyg‘ularni qondirish; “moksha” – azob-uqubatlardan xalos bo‘lish”¹.

Islom ta’limotida Allohning maskani arshi-a’loning yaqinida turuvchi to‘rt farishtaga keng o‘rin berilgan. Ular: Jabroil – ilohiy xabarni yetkazuvchi; Mikoyil - koinotdagi tartibni nazorat qilib turuvchi; Isrofil – maxsus burg‘uni chalib qiyomatdan darak beruvchi; Azroil – odamlarning jonini oluvchi farish-tadir. “Islom dunyosida ham to‘rt raqami eng ko‘p ishlatiluvchi raqamlardan biridir. Chunki musulmonlarning qarashlaricha, olam jismoniy jihatdan ham to‘rt raqami asosida paydo bo‘lgan degan qarash bor”².

To‘rt soni tabobat ilmida ham keng qo‘llanilgan. “To‘rt unsur nazariyasiga asoslangan Ibn Sino ham inson organizmida aylanib yuruvchi to‘rt suyuqlik – qon, safro, shilliq va qora o‘t mavjud deb hisoblagan”³. Ibn Sino odam tanasidagi suyuqliklarning munosabatiga ko‘ra, inson organizmida bir-biriga o‘zaro ta’sir etuvchi to‘rt kuch, ya’ni mijoz mavjudligini aniqlagan.

¹Qutliyeva M. Raqamlarda taqdir. T.: “Yangi asr avlodi”, 2016. 38-39-betlar.

²Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning ma’no talqini. T.: “Fan”, 2010.19-bet.

³Qodirov A. A. Soipov U. T. Abu Ali ibn Sino o‘rta osiyolik buyuk medik – olim. Toshkent. 1980. 38-39 betlar.

Mumtoz adabiyotimizda yaratilgan ko'pgina g'azallarda ham to'rt choryor, to'rt farishta, to'rt kitob, to'rt guhar kabi jumlar ham uchraydi.

Choryor – to'rt do'st Muhammad (s.a.v.)ning izdoshlari, xalfalari bo'lgan Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali kabi ulug' zotlarga ishoradir. Mumtoz adabiyotlarda hamd va na'tlardan so'ng odatda shu ana shu to'rt xalifa madhi keltiriladi.

Tasavvuf adabiyotida esa to'rt yo'l deganda Alloh vasliga yetishga bel bog'lagan solikning bosib o'tadigan Shariat, Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat deb atalmish to'rt bosqichi nazarda tutilgan.

To'rt muqaddas kitob esa Muhammad (s.a.v.)ga yuborilgan Qur'oni karim, Iso payg'ambar nomiga bitilgan Injil va Muso payg'ambarga nozil qilingan Tavrot, Dovud payg'ambarga atalgan Zabur singari muqaddas kitoblar nazarda tutilgan. Shuningdek, to'rt raqami insonning yaratilishi, uning asosini tashkil etgan to'rt unurni ham ifoda etadi. "Avesto" kitobida nazarda tutilgan to'rt unsur Alisher Navoiyning quyidagi satrlarida nazarda tutilgan:

Vaz'ini ul damki murattab qilib,

To'rt javohirni murakkab qilib.

("Hayrat ul-abror", 77-bet).

Dostonning XX bobidagi uchunchi hayratda shoir insonning yaratilishi, uning ulug'lanishi haqida mulohazalarini bayon etadi. Bu o'rinda shoir "to'rt javhar" deganda tuproq, suv, havo, olovni nazarda tutib, bu to'rt unsur inson jismini tashkil etishini yana bir marta sanab o'tadi. Quyidagi misralarni esa bu fikrlarimizning dalili deyishimiz mumkin. Shoir bu to'rt unsurlarni sanar ekan ularni ikkiga ajratib, ikki xil sifat (ahamiyatiga qarab) beradi:

Ikki anga gavhari ulviy najod,

Ikki yana javhari sifliy nihod.

("Hayrat ul-abror", 77-bet).

Bundagi "gavhari ulviy najot" deganda to'rt unsurdan yuqori sifatlisi bo'lgan ikkitasi nazarda tutilgan. Bizningcha bu o't va havodir. Chunki inson jismi yasalganda o't yordamida quritilgan, havo bo'lsa uning harakatlanishiga sababchi bo'lgan. Keying misrada "javhari sifliy nihod" esa inson tanasining

yaratilishidagi quyi jihatlar deya keltirilgan. Bunda esa suv va yer nazarda tutilgan desak adashmagan bo‘lamiz. Bu to‘rt unurning o‘zaro qo‘shilishidan esa bir butunlik, ya’ni odamzod bunyodga kelganligini “to‘rt zid” birikmasi bilan ifoda etadi:

O‘yla taodulki bo‘lub to‘rt zid,
Borcha tarakkub yuzidin muttahid.

(“Hayrat ul-abror”, 78-bet).

“Farhod va Shirin” dostonining V bobi an’anaviy na’t, ya’ni payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) madhiga bag‘ishlangan. Unda Ul zotning “Me’roj” (payg‘ambarimizning ko‘kka chiqishi”)ga bag‘ishlanadi. Quyidagi baytda ana shu voqeaga ishora qilinadi:

Tanidin to‘rt gavhar naqshi borib,
Bo‘yi olti jihat to‘nin chiqorib¹.

Alloh vasliga muyassar bo‘lgan payg‘ambarimiz o‘z tanasida to‘rt gavharning naqshi tushirilishiga guvoh bo‘ladi. Bu o‘rinda tilga olingan “to‘rt gavhar” ifodasi shunday talqin qilinadi: “birinchisi: ruhi a’zam, ya’ni haqiqati Muhammadiya, ikkinchisi: javhari aql, uchunchisi: javhari nafsi kulliya, to‘rtinchisi: javhari jismi kulliya”². Bu to‘rt jihat bizningcha payg‘ambarimizga xos fazilat va ezgu xislatlar majmuidir. Ikkinchi misrada keltirilgan “olti jihat” esa dunyo tomonlari ma’nosida ishlatilgan. Ya’ni Arshi a’loga ko‘tarilgan Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) dunyoning olti tomonini (odatda, olti tomon deyilganda – sharq, g‘arb, janub, shimol, yuqori va quyi tomonlar tushiniladi) ham bir lahzada kezib kelgan degan ma’no ifodalangan. Dunyoning to‘rt tomoni haqidagi qarash quyidagi baytda ham o‘z tasdig‘ini topgan:

Bir kimsaga to‘rt agar tarabdur,
Yetti aro to‘rt bas ajabdur.

(“Layli va Majnun”, 9-bet.)

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 1-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 321-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

² Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning ma’no talqini. T.: “Fan”, 2010. 27-bet.

Farhodning tushkun holatidan tashvishga tushgan Chin xoqoni vaziri Mulkaroga yer yuzida hech qayerda yo‘q bo‘lgan to‘rt qasr qurishni aytadi. Bu qasrlar yilning to‘rt fasliga moslab qurilishi kerak edi. Shoir shu o‘rinda -

Ki, gardun yetti qasridur vafosiz,

Jahonning to‘rt fasli ham baqosiz. (370-bet.)

-misralarini keltiradi.

“Saddi Iskandariy” dostonining XXXV bobida Iskandarning Hirotga yurishi, bu shaharning uni maftun qilishdagi o‘ziga xosligi haqida gap ketadi. Shoir qadim-dan mavjud bo‘lgan yetti iqlim haqidagi qarashni ilgari surgan holda Hirotning to‘rtinchi iqlimda bunyod bo‘ldi, quyosh uning toleyiga nur bag‘ishovchi ekanli-gini aytadi:

Chu to‘rtunchi iqlim edi mavqe’i,

Bas o‘ldi quyosh sohibi tole’i. (“Saddi Iskandariy”, 219-bet.)

Bunday deyilishiga sabab yurtimizdagi shaharlar to‘rtinchi iqlimda deb tasavvur qilingan. “To‘rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so‘ngra Xurosondan o‘tadiki, bunda Xo‘jand, Usrushona, Farg‘ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor”¹. Alisher Navoiy ilmiy bilish nuqtayi nazaridan ham o‘tkir bilim sohibi ekanligi ushbu baytdan yaqqol aks etib turibdi. Quyidagi baytda ham dunyoning to‘rt tomoni nazarda tutilgan:

Qilib tang‘a osudalig‘ni harom ,

Hamul to‘rt manzilni qildim xirom. (“Saddi Iskandariy”, 32-bet)

O‘zbek mumtoz adabiyotimizda eng ko‘p qo‘llanilgan va turli-tuman ma’nolarni ifodalashga xizmat qilgan raqamlardan yana biri yettidir.

Bu raqam Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ham ko‘p qo‘llanangan. Yahudiylarning muqaddas kitoblaridan bo‘lgan “Tavrot”da yetti raqami ilohiylashtirilgan. Unga ko‘ra bu raqam quyosh tizimidagi yetti sayyora va falakdagi yeti farishta bilan bog‘liq deb tasavvur qilingan. Bular: Quyosh – Rafoyl, Oy – Jabroil, Mars – Zuhra – Shamoyil, Merkuriy – (Utorid) – Mikoyil,

¹ [http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/ Yetti-iqlimni-bilasizmi?](http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/Yetti-iqlimni-bilasizmi?)

Yupiter(Mushtariy) – Zaskoyil, Venera – Annoyil, Saturn (Zuhal) – Kafzoyil. Hafta kunlarining ketma-ket nomlanishi ham shu farishtalar nomi bilan chambar-chash bog‘liq deb qaralgan.

Antik dunyo tarixida Qadimgi Gretsiyada yetti raqami tabobat, she‘riyat va musiqa xudosi Appolonga nisbat berilgan. Chunki u oliy iloh bo‘lganligi uchun har oyning tugashiga yetti kun qolganda unga qurbonliklar bag‘ishlanganligi qayd etilgan.

Bir qancha dinlarga e‘tiqod qilgan hind xalqining diniy qarashlariga ko‘ra: “Biz yashayotgan yer xalqa shakldagi dengiz bilan qurshalgan yetti quruqlikdan iborat. Braxmanizmda yetti xudo bo‘lib, ularning otlari “aditya” deb yuritiladi. Rigveda kitobida quyosh aravasini yetti ot tortib boradi. Inson esa yetti marta tug‘ilib, yetti marta o‘ladi”¹.

Hindistonda qadimda yuzaga kelgan va hozirda ham amalda bo‘lgan bir marosim bor. Bu nikoh o‘qilayotganda bajariladi. Unga ko‘ra yosh kelin-kuyov olovning atrofidan yetti marta aylanib o‘tishadi. Bu yetti aylanish hind e‘tiqodiga ko‘ra yetti qasamni ifoda etadi. Bular: yolg‘on gapirmaslik, halovat, ibodat qilish, jamiyki mavjudotlar uchun duo qilish, ya‘ni farzand tarbiyasi, butun umr yonma-yon yashash kerakligi hamda hech qachon xiyonat qilmaslik. Yosh oilalar bu qasamga so‘zsiz itoat qilishi shart qilib qo‘yilgan.

Buddaviylik dinining muqaddas kitoblaridan biri bo‘lgan “Oltin yorug‘”da ham yetti raqamiga bog‘liq timsollar uchraydi. Shu kitobning X bo‘limida “Shahzoda va bars” afsonasi bor. Unda uchta aka-uka shahzodalar bir kuni sayohatga chiqadi. Yo‘lda ular yettita bola tuqqan och bo‘riga duch keladi. Shahzodalarning eng kichigi esa ona bo‘ri va uning bolalariga rahmi kelib o‘zini qurbon qiladi. Bu hayvonlar shahzodaning go‘shini yeb omon qoladi. Bu ta‘limot buddaviyik dini nuqtai nazaridan “qayta tug‘ilish”ni anglatadi. Yetti barslar esa buddisaftlar (buddisaft – budda dini yordamchilari) bo‘ladi. Ona

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 154-bet

yo‘lbars esa ona buddisافتga aylanadi¹. Bu yerda ham yetti raqami muqaddas iloh mazmuni ifoda etib kelgan.

Turli xil ranglarni ifoda etishda ham yetti raqamidan foydalanilgan. Tasavvuf ta‘limotida “Anvori sab‘a” deb atalgan yetti rang degan tushuncha ham alohida mavqega ega. Har bir rang esa ma‘lum maqsadni ifodalashga xizmat qiladi. “Bu ranglar nafsning poklanishi, bir martabadan ikkinchi martabaga ko‘tarilishini aks ettiradigan va solikning botinida yuzaga chiqadigan moviy, sariq, qirmizi, qora, yashil, oq ranglar bo‘lib oxiri rangsizlik, ya‘ni nurdir. Najmiddin Kubroning bu masaladagi fikr va talqinlari boshqa tariqat vakillari, jumladan, xilvatiylik tariqiga mansub soliklarnikidan fard qiladi. Chunonchi, zangori rang solikning tavbaga yuz burib, shariat qonun-qoidalariga qat‘iyan amal qilish nishonasi. Sariq rang qalbda muhabbat hissining qo‘zgalishi, Allohga yaqinlik belgisi. Qizil rang esa ruhning yuksalishi va ma‘rifat zavqining ochilishi. Oq rangning tasarrufi - bu yurakdagi poklanish, musaffolik ramzi. Islomning qudrati va sir-asrorini tamsil etuvchi rang yashillik hisoblanadi. Ko‘ngli yashil rang og‘ushidagi oshiq g‘ayb olamining go‘zalliklariga g‘arq bo‘ladi. Haqdan xalqqa tomon qaytish holini Najmiddin Kubro qora rangda belgilaydi. Sayri sulukning nihoyasida ruh barcha ranglardan forig‘ bo‘lib, yakranglik holatida maqsadga erishadi. Kubroning tasnifi bo‘yicha, oq rang islomni, sariq rang iymonni, zangori rang ehsonni, yashil rang ishonchni, ko‘k rang iqon (to‘la ishonch)ni, qizil rang irfonni, yani bilimni, qora rang hayajonni (hayratni) aks ettiradi”².

Yusuf Xos Hojibning XI asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asarining muqaddimasida “yetti kavokib va o‘n ikki burj” deb nomlangan alodida bir bob bor. Unda yetti falak hamda o‘n ikki burj Alloh qudrati bilan yaratilganligi bayon etilgan³. Asarlarning muqaddimasida Allohning beqiyos qudratini tarannum qilish maqsadida falaklar, sayyoralar, burjlar va ularning muntazam harakatlarini tasvirlangan. Yetti falak deyilganda esa, “yerga yaqinligiga qarab

¹ O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. I jild. – Toshkent: “Fan”, 2005. 24-bet.

² Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini. T.: “Fan”, 2010.27-bet.

³ Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. 17-bet

Oy –birinchi, Atarud(Merkuriy) – ikkinchi, Zuhra (Venera) – uchinchi, Quyosh - to‘rtinchi, Mirrix(Mars) – beshinchi, Mushtariy (Yupiter) – oltinchi, Zuhal(Saturn) – yettinchi falakda turadi deya tasavvur qilingan ”¹. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham yetti raqami muhim ahamiyat kasb etadi. “Yetti” raqami bilan bog‘liq xalq qarashlarini o‘rganish qadimgi davrlarda yashagan bobolarimizning turmush tarzini, ma’naviy olamini, qudratini anglatgan.

“Yetti falak” tushunchasi aslida: “qadimgi ajdodlarimizning islom ta’limoti paydo bo‘lishidan ancha burunroq shakllangan ibtidoiy tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lib, bevosita yetti raqami haqidagi qadimiy mifologik qarashlar ta’sirida yaratilgan. Hozirgi ilmiy-texnika sohasida erishilgan yutuqlardan ma’lumki, olam cheksizdir. Yetti falak va sakkiz qavat jannat haqidagi afsonalar hamda e’tiqodiy qarashlar xalq og‘zaki ijodiyotida saqlanib qolgan. Ko‘rinib turibdiki, islom mifologiyasi olamning afsonaviy qiyofasini tasvirlashda an’anaviy “yetti” raqamidan foydalangan”².

Uzoq davrlar davomida xalq og‘zaki ijodiyotida madh etilgan yetti go‘zal obrazi Sharq mumtoz adabiyotida, ayniqsa, kamolot cho‘qqisiga yetishdi. Bu mavzusida qalam tebratgan orzumand shoirlarning safi kengaydi. Hind xalqining qadimiy afsonalarini to‘plagan Dehlaviy o‘zining “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) dostonida yetti malika haqida tamomila yangi hikoyalarni yaratgan. Dehlaviydan keyin yetti go‘zal haqida yirik doston yozgan shoir Ashrafdir. Ammo “Haft paykar” nomli bu asar haligacha topilgan emas. Biroq, ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Sab’ai sayyor”ning yozilishi haqida to‘xtalib, “Yana chun “Sab’ai sayyor” rasadli zamirim bog‘labdur. Ashraf “Haft paykar”ining yetti hurvashin peshkashimga yaroqlabdur”³, - deb bu an’anaviy mavzuda qalam tebratgan shoirning nomini hurmat bilan tilga oladi.

“Farhod va Shirin” dostonida bu raqam uch martadan “yetti kishvar”, “yetti iqlim”, “yetti ko‘k”, ikki martadan “yetti daryo”, “yetti gardun” , “yetti

¹ Ochilov E. Bir hovuch dur. T.: “O‘zbekiston”, 2011.138-bet.

²Jo‘rayev M., Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi “yetti”lar. Toshkent: “Fan” 1989. 33-55 betlar.

³Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.10-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 529-bet.

ato”, “yetti zohir” tarzda ishlatilgan. Yana dostonda “yetti buloq”, “yetti ish”, “yetti pargor”, “yetti qatra”, “yetti davlat”, “yetti varzish”, “yetti qullug” singari raqamlar birikmali tarzda ishlatilgan.

Dostonda “yetti iqlim”, “yetti ko‘k”, “yetti gardun” kabi raqamlar ramz sifatida yetti qat osmonni ifodalaydi. Oshiqning holatini ifodalash uchun ham bu raqamga murojaat qilingan. Quyidagi Shirinning maktubidan olingan baytda sevgilisining diydorini ko‘rishga intizor mahbubaning ohi ketma-ket falak toqini egallab olgan yetti sayyoraning ham yuzini ochib yuboradi:

Uchursa ohi yetti ko‘k niqobin,
Yuzidin ochmag‘ay burqa’ hijobin.

(“Farhod va Shirin”, 640-bet.)

Farhodning yunon mamlakatiga qilgan safari ancha sarguzashtlarga boy bo‘ladi. U Jamshid jomini qo‘lga kiritadi. U shunday sirli ediki, unda butun dunyo mulki bir lahzada aks etadi. Unda ketma-ket butun yer yuzi tomonlari namoyon bo‘ladi. Shoir bu holatni shunday tasvirlaydi:

Burun ofoq mulkin qildi taslim,
Judo qildi yako-yak yetti iqlim. (458-bet).

Baytdagi “yetti iqlim” iborasi izoh talab etadi. Azaldan olam haqidagi qarashlarda “yetti iqlim”, “yetti gardun”, “yetti olam” singari jummlar ko‘p ishlatilib kelingan. “Yetti iqlim” – tarixiy-geografik tushuncha. Yerni yunon va O‘rta asr Sharq fanida mintaqalarga bo‘lish usuli. Keng ma’nodan Yerning tabiiy, siyosiy va ma’muriy bo‘linishlari tarixiga ham aloqador. Yetti iqlimga bo‘lishning ilmiy ahamiyati ham bor edi. Qo‘lyozmalarda iqlimlar vositasida mamlakatlar, shaharlar va boshqa turli joylarning geografik o‘rni ifodalangan. Shahar va qishloqlar ro‘yxati tuzilgan, ko‘pincha, ular iqlimlar tartibida joylashtirilgan”¹ Mumtoz adiblarimiz ham bu jummlarga tez-tez murojaat qilishgan. Shu tushuncha asosida maxsus jadvallar ham tuzilgan. Muso al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” (“Yer surati”), Abu Rayhon Beruniyning “Al- Qonun ul-Mas’udiy” (“Mas’ud qonuni”), Mirzo Ulug‘bekning “Ziji jadidi

¹ “Islom” insiklopediya. T.: “O‘zbekiston Milliy insiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2017. 153-154-betlar

Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali”) asarlari ana shunday adabiy-ilmiy manba hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniyning “Geodeziya»” asarida “Ular (yunonlar) odam yashaydigan yerni aniqroq bo‘lgan (kecha va kunduz orasidagi) tafovutga muvofiq bir-biriga (parallel) bo‘lgan chiziqlar bilan yetti iqlimga bo‘lganlar. U chiziqlar Mashriqda ma‘mur erlarning eng uzoq‘idan tortib Mag‘ribning oxiriga boradi. Ularning tasavvurida yetti kishvar yetti doirada: birinchi doira markazda, qolganlari uning atrofida tutash joylashtirilgan. Markaziy doira (to‘rtinchi kishvar)dan Iroq, Fors, Jabal, Xuroson, Sijiston, Zabuliston, Toxa-riston o‘lkalari o‘rin olgan”¹.

Ahmad al-Farg‘oniy (798-865- yillar) o‘zining “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum” (“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi”da yetti iqlim haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tadi. Al-Farg‘oniy esa, gapni rub‘i ma‘murning eng sharqiy chetidan boshlaydi. Risoladagi tartib bo‘yicha keyingi besh iqlim tavsifi diqqatga sazovorligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda Markaziy Osiyo hamda bu mintaqaga tutash yerlarning viloyat-shaharlari batafsil tilga olinadi. Mana, ayrim misollar:

“To‘rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so‘ngra Xurosondan o‘tadiki, bunda Xo‘jand, Ushrushona, Farg‘ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so‘ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfaxondan o‘tadi. Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so‘ng Xurosonning shimolidan o‘tadi”².

Markaziy Osiyo yettinchi iqlimda deb tasavvur qilingan. “Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so‘ng turkiy mamlakatlar (Markaziy Osiyo)dan, so‘ng Jurjon (Kaspiy) dengizining shimolidan, so‘ng Rum dengizi (Qora dengiz)ni kesib saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o‘tadi va G‘arb (Atlantika) dengizida tugaydi”³ . Yetti iqlim birikmasi II tomlik “Alisher Navoiy: qomusiy lugat”ida shunday izohlanadi: “Yunon va o‘rta asr

¹ O‘zME. 6-tom. Toshkent: 2004. 123-bet.

² [http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/ Yetti-iqlimni-bilasizmi?](http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/Yetti-iqlimni-bilasizmi?)

³ [http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/ Yetti-iqlimni-bilasizmi?](http://ziyouz.uz/Ajoyibotlar/Yetti-iqlimni-bilasizmi?)

Sharq fanida Yer kurrasini mintaqalarga bo‘lish usuli ma’nosidagi tarixiy-geografiktushuncha. Yer sharini yaxlit tasavvur qilish bilan birga, uni ma’lum qismlarga ajratib o‘rganish yo‘lida yunon olimlari Yerni astronomik uslubda, ya’ni Quyosh nurining Yerga qiya tushishi asosida ekvatoridan shimol tamonga yetti iqlimga bo‘lganlar va ularning chegaralari eng uzun yoz kuni(Javzo kuni) yarim soat farq qiladigan joydan o‘tgan. Muhammad Muso al-Xorazmiy “Kitob surat al-arz” (“Yer surati kitobi”)da olamni quyidagicha tasniflaydi:

1) Hind iqlimi – Hindiston, Aljazoir, Sarandeb (Shri-Lanka) va ularga chegaardosh bo‘lgan mintaqalar;

2)Hijoz iqlimi – Arabiston yarimoroli, Xabasha (Efiopiya), Yaman, Adan, Bodiya ul-arab;

3)Misr iqlimi – Shom, Misr, Marg‘ib, Barbariston, Marokash va h.k.;

4)Bobul iqlimi – Iroq, Fors, Mozandaron, Xurason, Seyiston, Zobuliston, Toxariston;

5)Rum iqlimi – Rum, Andalus, Farang, Ozarbayjon, Darband (Dog‘iston);

6)Ya’juj iqlimi – Xazar, O‘g‘uz turklari, Sibir,Rus, Saqoliba (slavyanlar);

7)Chin iqlimi – Chin, Tibet, Xo‘tan, Balx daryosining narigi qirg‘og‘idagi turkiy qavmlar yashaydigan makon”¹ Biz nazarda tutgan baytda aynan shu yetti iqlim tomonlari nazarda tutilgan bo‘lib, bu yana bir bor Navoiy dahosining chuqur bilim egasi bo‘lganidan daloat beradi.

Yunon mamlakatiga sayohat qilgan Farhod yo‘ldagi barcha to‘siqlarni barta-raf etadi. U yerda Iskandar boyligini, Sulaymon uzugini, Jamshid jomini qo‘lga kiritadi. Mushkil ahvolda qolgan paytda esa Jamshid jomining ichini kuzatish orqali Farhod olam manzaralarining guvohi bo‘ladi. Bu jomda jamiki borliq, yetti iqlim bor tashqi go‘zalligi bilan aks etadi:

Qayon boqqach qilib, ravshannazarliq

Yetti iqlim etti zohir jilvagarliq.

(“Farhod va Shirin”, 658-bet.)

¹Alisher Navoiy: qomusiy lugat. II tomlik. I tom. Toshkent: “Sharq”. 2016. 170-171-betlar

Ushbu baytda ham yuqorida tilga olingan yetti iqlim haqidagi qarashlar nazarda tutilgan. Unda yetti iqlim haqidagi mavjud joylar nazarda tutilgan.

“Layli va Majnun” dostonida bu raqam “yetti jirmi”, “yetti aro”, “yetti hubob”, “yetti ulcha”, “yetti chabuk”, “yetti jism”, “yetti davlat”, shakllarida bir nechta o‘rinda qo‘llangan.

Shu dostonning VI bobida Abdurahmon Jomiy ta’rifiga o‘rin ajratilgan. Unda shoir ustoziga Alloh taoloning nazari tushganini faxr bilan tilga oladi. Hamda ul zotning ilm dengizi shunchalar shiddatliki, agar u mavjlansa, yetti falakni ham ortda qoldirishini shunday deydi:

Chun ilming bahrig‘a tushub mavj,

Bu yetti hubob uza tutub avj. (“Layli va Majnun”, 9-bet.)

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor”da yetti raqami haqidagi xalq qarashlari to‘la saqlanib qolgan. Bahrom yetti kun davomida yetti qasrdagi yetti iqlimning yetti go‘zali bilan hamsuhbat bo‘ladi. Bu suhbatlar yetti qasrda, yeti go‘zal, yetti hikoyachi bilan biragalikda amalga oshadi. Qasrlarga xos ranglar ham tanlanadi. Ular ham yettitani tashkil qiladi. “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi ranglar garmoniyasi Bahrom, Dilorom va yetti hikoyaga kirgan obrazlarni yaratishda muhim badiiy vositalardan biri vazifasini bajargan va asar mazmunini yanada chuqurroq ifodalash uchun xizmat qilgan”¹. Shoh Bahromning holatiga qarab ranglar o‘zgarib boradi. Doston asosini tashkil etuvchi yetti musofir hikoyasi ham yetti go‘zal sarguzashti bilan bog‘liq. Bahrom har bir qasrda mehmon bo‘lganida o‘sha iqlim yo‘lidan ketayotgan musofirning maroqli hikoyasini tinglaydi.

Navoiy dostonidagi yetti go‘zal, avvalo, yetti iqlimdan keltirilgan yettita qiz sifatida tasvirlanadi. Buyuk shoir o‘z asariga asos bo‘lgan yettilik qolip sirini olamning tuzilishi haqidagi afsonaviy e’tiqodlar bilan bog‘lab izohlaydi. Chunki yetti qasr, yetti rang, yetti qiz, yetti musofir, yetti kun, yetti iqlim tushunchalari O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi elatlar dunyoqarashiga borib taqaladi. Hatto

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasini. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 154-bet

ajdodlarimizning afsona va rivoyatlari majmuasi “Avesto”da aytilishicha, olam yetti qismga bo‘linadi. “Yetti kirshvor”, ya’ni “Yetti iqlim” deb ataluvchi bu bo‘linishga ko‘ra olam yetti iqlimga bo‘lingan. Oltinchi qismining markazida joylashgan yettinchi iqlim – Xorazmdir. Buni qarangki, “Sab’ai sayyor”da ham yettinchi kuni oq qasrda Bahromshohni qarshilagan go‘zal yettinchi iqlim – Xorazmdan edi. Navoiy yetti iqlim haqidagi an’anaviy xalq qarashlariga tayanib turib yetti go‘zal obrazini yaratgan. Adabiyotshunos olim S. Hasanov ushbu doston yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida shunday yozadi: “Asarda “yetti” so‘zi yetti yo‘lovchi va ularning yetti hikoyasi, yetti iqlim, yetti go‘zal, yetti shoh, yetti qasr, yetti rang, yetti kun, yetti falak, yetti sayyora va hokazolarga nisbatan to‘qson marta ishlatilgan. Asar mazmunining asosida esa Navoiyning o‘zi aytganidek, har bir insonning baxt-saodat yo‘lida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan, insonparvarik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan yetti hikoya yotadi. Qolganlari esa doston-ning shakliyl tarkibiga xizmat qiladi”¹. Biz esa ushbu dostonni o‘rganish jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, yetti raqami ramziy ma’no tashiydigan baytlar anchagina. Ularda shoir dunyo haqidagi qarashlari, falakning tuzlishi, diniy jihatdan yetti raqamiga berilgan turli yondashuvlar ham o‘z ifodasini topgan. Dostonda to‘qqiz marta “yetti gunbad”, olti marta “yetti falak”, “yetti kavkab”, “yetti rang”, “yetti afsona”, “yetti ko‘k”, “yetti qiz” shaklida, yetti marta “yetti qasr”, “yetti iqlim”, “yetti shoh”, “yetti hur”, “yetti kun” tarzida, besh martadan “yetti pargor”, “yetti sipehr”, “yetti parda”, “yetti yagona”, “yetti musofir”, “yetti hikoya”, “yetti go‘zal”, “yetti manzil”, “yetti charx” shakllarida, uch martadan “yetti hubob”, “yetti aflok”, “yetti ayvon”, “yetti uy”, “yetti bo‘ston”, “yetti ravza” singari so‘z birikmalari uchraydi. Yana “yetti gulandom”, “yetti aqbo”, “yetti so‘z”, “yetti taqsim”, “yetti mehrchehr”, “yetti nodirsifat”, “yetti tojir” kabi jumlar ham doston voqealari rivojida ishlatilgan. Bu kabi “yettilikar”ni qo‘llanilish jihatidan, “Xamsa” ning biror dostoni “Sab’ai sayyor”ga teng kelmaydi.

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasini. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 154-bet

Dostonda badiiylik jihatidan ham tez-tez yetti raqamiga murojaat qilingan.

Mazkur asarda uchraydigan “yetti gunbad”, “yetti falak”, “yetti kavkab”, “yetti ko‘k”, “yetti pargor”, “yetti sipehr”, “yetti charx”, “yetti hubob”, “yetti aflok”, “yetti ayvon” singari so‘z birikmalarida biz yuqorida tahlilga tortgan va batafsil to‘xtalib o‘tgan yetti raqami haqidagi falakiyotga oid qarashlar o‘z ifoda-sini topgan. Ularda Alloh taolo tomonidan bunyod etilgan yetti qavat osmonga, ularning joylashuviga ishora qilinadi. Masalan:

Yetti gunbad agarchi minorang,
Yetti afsona lek rango-rang¹.

Dostonning boshlanish qismidagi ushbu baytda yetti osmon qavatlari rangi-ning turli ko‘rinishdaligi aks etgan. Bu yerda shoir o‘z asarining turli afsonalarga boyligi va turli obrazlar, turfa mamlakat vakillari qatnashishini qayd etib o‘tadi. Dostonning VIII bobida maskur asarni yaratishdagi yangliklari haqida ga-pirgan shoir yetti oliy imorat sifatida yetti falak yaralgani, bu yetti ayvon (ya’ni qasr)da yetti go‘zal ham qatnashishini shunday keltiradi:

Yetti gunbadki, anglading oliy,
Yetti ayvon aro yetti voli. (314-bet.)

Shoh Bahromning qudrati shunday buyukki, u butun yer yuzini o‘ziga bo‘y-sundiradi. Hech kimga taslim bo‘magan butun yetti iqlim podsholari ham uning bandisiga aylanadi:

Sarkash el qildi sarfikandaligin.
Yetti iqlim shohi bandaligin. (323-bet.)

Bu baytda azaldan yetti iqlim haqidagi umumiy qarashlar o‘z ifodasini topgan. Dunyoning yetti iqimga bo‘linishi, rub’i mas’kunning yetti aylanma doira-dan tashkil topganligi haqida yuqorida ma’lumot berib o‘tdik. Shoir o‘z tafakkur olamiga tayanib, Bahromning mulki yetti iqlim yerlarini ham egallaganini aytadi. Quyidagi baytda esa uning yetti iqlimni egallagani va yetti olam asosini ham band etgani ta’riflangan:

¹Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.7-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012-yil.321-bet. (Qolgan misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda beriladi).

Yetti iqlim mulkini oldi,

Yetti charx uzra masnadin soldi. (616-bet.)

“Saddi Iskandariy” dostonida ham to‘rt o‘rinda “yetti ko‘k”, “yetti kishvar”, “yetti daryo”, “yetti iqlim”, “yetti charx” tarzida, uch martadan “yetti pargor”, “yetti rang”, “yetti hakim” shakllarida qo‘llangan.

Dostonda “yetti ko‘k”, “yetti charx”, “yetti pargor” singari so‘z birikmalarida an’anaviy falakning tuzilishi haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan.

Yeti ko‘k uza shavkati yetgusi,

Yurub rub‘i maskunni fath etgusi. (84-bet.

Biri yetti iqlim fathi tamom

Ki, bu rub‘i maskun uza surdi gom. (176-bet.)

Olam haqidagi tasavvurlarda faol qo‘llangan raqamardan yana biri bu to‘qqiz hisoblanadi. Shoir “Xamsa” dostonlarida “tuqqiz aflok”, “tuqqiz falak”, “tuqqiz gunbad”, “tuqqiz pargor”, “tuqqiz olam”, “tuqqiz avj”, “to‘qqiz osmon”, “tuqqiz saroparda”, “to‘qqiz charx”, “to‘qqiz poya” shakllarida yigirma uch o‘rinda qo‘llangan. Bu o‘rinlarda falak tuzilishi haqidagi an’anaviy qarashlar o‘z aksini topgan. Falakiyot ilmiga oid adabiyotlarda to‘qqiz osmonning joylashuvi haqida shunday ma’lumotlar bor: “birinchi-falakul aflok - osmonlar osmoni. Hamma os-monni o‘z ichiga olganligi uchun ham buni osmonlar osmoni va “falaki atlas” deb ataydilar. Ikkinchi-burjlar osmoni. Bunda turli turg‘un yoritkichlar joylashgan. Uchinchi - Zuhul osmoni. To‘rtinchi - Mushtariy osmoni. Beshinchi - Mirrix osmoni. Oltinchi - Quyosh osmoni. yettinchi - Zuhra osmoni. Sakkizinchi - Atorud osmoni. To‘qqizinchi - Oy osmoni. Osmonlarni Oy osmonidan boshlab sanash mashhur bo‘lganligi uchun ham “Osmonlar osmoni” to‘qqizinchi osmon hisoblangan”¹. Shoir dostonlarida nazarda tutilgan to‘qqiz raqamiga oid qarashlarda ushbu osmonlar joylashuvi nazarda tutiladi.

“Hayrat ul-abror”ning III munajatida buyuk Xoliqning madhi keltiriadi. To‘qqiz qavat osmon Ul zotga ko‘zgu bo‘lib, unda osmonlar oynamisol ko‘rinadi deydi:

¹ Ali Qushchi. Astronomiyaga oid risola. T.: “O‘qituvchi”, 1968. 36-bet.

Vosita bu erdiki qilding tamom ,

Ko'kni to'quz lavhai oyinafom. (14-bet.

Bu baytda Alloh husnining “to'qqiz ko'k”dan ham chiroyli ekani, ular ham bu go'zallik oldida ojizligi aks etgan.

“Farhod va Shirin”ning IV bobi an'anaviy na't, ya'ni Muhammad (s.a.v.) ta'rifiga bag'ishlangan. Unda payg'am-barimizning o'tirgan o'rindig'i shunday ulug'ki, bu o'rindiqqa to'qqiz osmon qavatlari to'shak, gilam bo'lgisi keladi. Shoir fikrini davom ettirib faqat to'qqiz qavat osmon demaginki, hatto Arsh ham buni xohlaydi, deydi:

Saririg'a to'quz aflok o'lub farsh,

To'quz aflokni qo'yg'il, degil Arsh. (315-bet).

Baytdagi “to'quz aflok” tushunchasi to'qqiz qavat osmonni ifoda qiladi. To'qqiz falak deganda, “yuqoridagi sayyoralarga yana ikki sayyora qo'shiladi: “Falaki savobit” (turg'un falak) – burjlar. Bu sakkizinchi osmonda bo'ladi. “Falak ul-aflok” (Falaklar falagi) – to'qqizinchi osmon. To'qqizinchi falak deganda, osmonning eng yuqori qismi tushiniladi”¹. Mazkur misralarda ayni shu osmon qavatlari nazarda tutilgan. Arsh – osmonning eng yuksak qavati, yulduzlarning eng yuqorisi, yuksak joy², degan ma'noni beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, payg'ambarimizning kursisi ham ilohiy qudratga ega ekan.

Dostonning XXV bobida Suqrot yashaydigan joy tasviri keltirilgan. U qo'nim topgan joy o'ziga xos bir tilsimga ega bo'lib, u yerdagi tog'ning balandligi to'qqiz osmondek, tog' etagining aylanasi esa ikki jahon kengligiga tengdir, deydi:

Biyiklik ichra to'qquz osmoncha,

Tubining davrasi ikki jahoncha. (457-bet).

Bu yerda ham biz yuqorida tahlilga tortgan to'qqiz falak va ikki olam haqidagi qarashlarga ishora qilinadi. Bu orqali bayt mazmuni yanada boyiydi.

¹ Ochilov E. Bir hovuch dur. T.: “O'zbekiston”, 2011.134-bet.

²Qarang: Navoiy asarlari lug'ati. IV tomlik. I tom. T.: 1983.118-bet.

I.2. INSON UMRINING RAQAMLARDAGI IFODASI

Alisher Navoiy o‘z ijodida odamlar haqida qayg‘urar, ularning umr mazmuni xususida ko‘plab ibratli fikrlarni aytib o‘tadi. Har doim kishilarga umrni qanday o‘tkazish xususida pand-u nasihatlar berar, uni mazmunli o‘tkazishga, hayotning har bir lahzasidan hikmat topishga undagan. Shoir tabiat va inson umrnini o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlaydi. Uning dunyoga kelib kamolotga yetishidan tortib, umrining xazon pallasigacha bo‘lgan davrni shoir mantiqiy jihatdan bog‘laydi. Odam umrining qanday o‘tkazishi xususida o‘z qarashlarini ilgari suradi. Bunda shoir raqamlardan unumli foydalanadi. Adabiy an‘ana sifatida raqamlardan ramz sifatida foydalanish, inson yoshlarini ular yordamida tasvirlash mumtoz shoirlar ijodida ham uchraydi. Mutasavvif alloma Ahmad Yassaviy ana shunday adibdir. Buyuk shoirning “Devoni hikmat”ida ko‘p o‘rinda inson yoshlari bilan bog‘liq bo‘lgan raqamlar ma‘lum maqsad va vazifada ishlatilgan. Ularning ko‘pchiligida muallif o‘zining hayotga oid xulosa va qarashlarini aks ettiradi.

O‘n birimda rahmat daryo to‘lib toshdi,
Alloh dedim shayton mendan yiroq qochdi.
Hoy-u havas, muomonlik turmay ko‘chdi,
O‘n ikkida bu sirlarni ko‘rdum mano¹.

Bu misralar orqali alomaning o‘n bir yoshidayoq Alloh ishqi diliga jo bo‘lgani, shaytoni layinning amallaridan uzoqlashgani, zohiriy dunyo ne‘matlaridan yiroq bo‘lgani, muomonlik, ya‘ni takabburlik, xudbinlik kabi yaramas illatlarga chap berganini ta‘kidlaydi. Qalbi pok istaklarga oshno kishigina bu dunyoni qalb ko‘zi bilan ko‘ra oladi, hayot haqidagi haqiqiy dunyoqarashi yuza-ga chiqadi. Bunday kishilar Alloh “sirlari”dan voqif bo‘ladi. Unga ul zotning ezgu niyatlari hamroh bo‘ladi. Yassaviy hikmatida esa shunday baxtga erishgan paytdagi yoshning o‘n ikkida ekanligi oydinlashadi.

Inson umr yo‘llari, hayot davonidagi har bir bosqichlar haqida gapirish, kishilarga o‘lchab berilgan hayot sharobidan o‘z o‘rnida ta‘tib ko‘rish,

¹ Ahmad Yassaviy. “Hikmatlar kulliyoti”. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 54-bet.

odamlarning butun hayotini mazmunli o‘tkazishi haqidagi boqiy fikrlar XI asrda yashab o‘tgan ulug‘ ijodkor Yusuf Xos Hojib ijodida ham uchraydi. Allomaning “Qutadg‘u bilig” dostonida odam qirq yoshga to‘lsa-da, o‘z xarakterini yaxshi bilmasa, xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olmasa, bunday inson hayvondan farq qilmasligi haqida gapiradi: “Kishi qirq yoshini yashab o‘z mijozini bilmasa u qancha so‘zlagani bilan bir tugal hayvondir”¹.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida inson umri bilan bog‘liq ko‘p-lab baytlarda raqamlar vositasida o‘z maqsadi va dunyoqarashlarini ifoda etadi. Shu dostonning XVII maqolati bahor yigitligi haqida bo‘lib unda inson umrining ketma-ket bosqichlari tilga olingan. Shoir insonning dunyoga kelishini g‘unchaning nish urib ochib chiqqaniga qiyos qiladi:

G‘uncha kular bo‘ldi adaddin fuzun.

Gul ochila boshladi haddin fuzun².

Tabiat hodisotlari bilan uyg‘un ravishda odam bolasining kichik yoshdan asta-sekin ulg‘ayishi ochib beriladi. Bahor gullarining ham davri o‘tib, endi uning o‘rnini boshqa fasl egallaganligini, u ham uzoq davom etmasligini, payti kelib almashish fursati unga ham yetishini shoir chiroyli dalillar bilan keltiradi. Biz bevosita ushbu dostonda qo‘llangan inson umrini anglatuvchi raqamlarni yoritishni lozim ko‘rganligimiz uchun bu kabi “hodisotlarga” batafsil to‘xtalib o‘tirmadik. Ammo shuni aytib o‘tish joizki, bu maqolatda inson umrining raqamlarda berilishi boshlangungacha bo‘lgan qismi o‘qilsa, Navoiy dahosining sermazmun ijod olami yorqin aks etadi. Bu o‘rinlarda buyuk shoir xuddiki tabiat tasvirini chizayotgan mo‘yqalam sohibi bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘z o‘ngimizda go‘zal tabiat manzaralari jonlangandek bo‘ladi.

Shoir o‘n yoshgacha bo‘lgan davr g‘aflat bilan o‘tishini aytib, o‘n yoshgacha bo‘lgan umrni “g‘aflat davri” deydi. Yigirma yoshgacha umr mastlikda ekanligini ta’kidlaydi. Mastlik deganda shoir bilimsizlikni nazarda tutadi:

¹ Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. 216-bet

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik. 1-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012-yil.251-bet.(Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

O'ng'acha g'aflat bila pobastliq,
Jahl yigirmigacha mastliq. (253-bet)

Bu baytlarda zimdan Allohni tanish, Ul zodga chin ixlos qo'yish, muqaddas islom dini an'analarini yaxshi bilmagan, bilib bilmasdan boshi berk ko'chaga kirib qolayotgan bugungi yoshlarga ham taalluqli.

Yoshi ulg'aygani sari inson hayotni yaxshi anglay boshlashi uning har bir daqiqasini g'animat bilib borishini shoir o'ttiz va qirq yoshlar orasida deydi. Bu ikki davrni esa xursandlig' davri deya ataydi:

O'ttuzu qirq ichra erur ayshu kom,
Vahki, manga ul dog'i erdi harom. (253-bet)

Ellikka kirgan odam agar yoshiga yarasha taraqqiy topmasa, oltmishga yetganda uning yoshi tanazzulga yuz tutishini o'z avlodlariga shoir ogohlantirish sifatida aytib o'tadi. Ellikni qarshilagan odam hayotda juda ko'plab natijalarga erishgan va jamiyatda o'z o'rniga ega shaxsga aylangan bo'ladi. Buning uchun esa shu yoshgacha tinimsiz harakat qilishi, o'qish va izlanishi kerak bo'ladi.

Qilmadi ellikda taraqqiy kishi,
Oltmishu borcha tanazzul ishi. (253-bet)

Bu kabi satrlarda ulug' alloma oltmishga kirsa-da hali hayot yo'llarini aniq maqsadini yo'lga qo'yolmagan, ezgu amallari bilan yaqinlariga ko'mak bermagan

kishilarni ham nazarda tutadi. Umrni besamar o'tkazmaslikka da'vat etadi.

Shoirning ushbu misralariga hamohang ruh Xoja Ahmad Yassaviy hikmatla-rida ham aks etgan. Turkiy tildagi ilk tariqat asoschisi Alloh vasliga yetish haqida ko'p to'rtliklarida mulohaza yuritadi. Ana shulardan birida shoir "Haq vasliga yetolmaganini yaxshi anglaydi va Allohga bosh egadi, inson har qancha buyuk bo'lsa ham, lekin Alloh amri oldida ojizdir, u deydi:

Oltmish uchga yoshim yetti, o'tdim g'ofil,
Haq amrini mahkam tutmay o'zim johil,
Ro'za, namoz qazo qilib bo'ldim kohil,

Yomon izlab, yaxshilardan kechdim mano.

Yassaviy bu o‘rinda g‘aflat bosib, johillikdan so‘ng sust bo‘ldim, demoqchi. Shoirning g‘aflat muddati hayotining oltmish uch yili. Johilikka sabab Alloh amridan kechish: dindan oldingi davr – johiliya davri deb atalgan”¹. Bu hikmatda buyuk alloma o‘z umrining oltmish uch yillik davrini nazarda tutib, yaxshilarni unutgani va islom ahkomlarini ado etmaganligini qayd etadi. Bu yerda ijodkorning shu yoshdan boshlab, odamlardan uzoqda o‘zi istaganicha yashash, doimiy toat-ibodatda – uzlatda bo‘lishni nazarda tutadi.

“Farhod va Shirin” dostonida ham bir o‘rinda ellik va oltmish yosh tilga olinadi. Dostonda saltanat ishlarini o‘g‘liga topshirmoqchi bo‘lgan Chin xoqoni yoshi ellikdan oxirlab qolgani, oltmishning boshiga yetganini aytadi. Davlat ishlari ko‘payib uni idora qilishga kuch-quvvati yetmayotganini ta’kidlaydi:

Yoshim ellik bavodisin tay etmish,
Ne ellik, oltmish haddig‘a yetmish².

Alisher Navoiy insonning yetmish va saksion yoshlarini mana bu misralar orqali kundalik hayotimizda uchraydigan holat bilan ifodalaydi:

Yetmish aro vojib erur turmog‘ing,
Saksion aro farzdur o‘lturmog‘ing. (253-bet)

Yetmish yoshgacha inson tik oyoqda bemalol yura olishi lozim. Chunki u saksionga qadam qo‘yganda ma’lum joyda muqim o‘tiradigan bo‘lib qolishi, kamharakat, oyog‘i, qo‘li kabi tana a‘zolari harakatlari sustlashib qolishini aytib o‘tadi. Saksionga yetgan kishining uyda tinch o‘lturishi ham farzdir deydi. Bunday misralar shoirning xonadonlarida qariyalari bor barcha oilalar uchun ularni e‘zozlashi va mehr ko‘rsatishi kerak degan maqsadini yuzaga chiqaradi.

“Sab‘ai sayyor”da Bahrom uchun aytilgan “Avvalgi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyati...”da mamlakat shohning yoshi saksionga borib qolgani, u ko‘zining tirigida yurtini boshqarishni ishonchli kishiga topshirishga harakatiga tushadi:

¹ Toshmurodova Q. Tasavvuf ta’limotini o‘rganishda talaba-yoshlar shaxsini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. Ilmiy dissertat. Avtoreferati. Toshkent: 2006. 17-18-betlar.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 1-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 402-bet.

Yoshi seksong‘a tegru yetmish edi,
Ko‘nglidin umr zavqi ketmish edi.

(“Sab‘ai sayyor”, 397-bet.)

Bu misralarda sakson yosh inson umrining payoniga yaqinlashgani, turli dunyo yumushlaridan charchashi, osuda hayotni istab qolishi nazarda tutilgan.

Inson umri bilan bog‘liq yoshlarning XVII maqolatdagi oxirgi raqamlar sifatida shoir to‘qson va yuz yoshlarini ta’kidlaydi. Hamda har ikki yoshning xususiyatlarini bayon etadi:

To‘qson agar bo‘ldi yiqilmoq kerak,
Yuz aro jon tarkini qilmoq kerak. (253-bet)

Bu kabi buyuk pandnoma baytlar hazrat Alisher Navoiy ijodida ko‘plab o‘rinlarda keltirilishi ul zotning inson zotiga bo‘lgan cheksiz muhabbati natijasidir.

Umuman olganda, she‘riyat shohsupasining sultoni bo‘lgan Alisher Navoiy ijodida keltirilgan bu kabi raqamlarda inson umrining turfa ma‘nolari, har bir yosh oralig‘ida ro‘y beradigan voqea va hodisalar o‘zining mukammal ifodasini topgan. Ulug‘ shoir raqamlar vositasida inson umrining bosqichlarini foydali, odamlarga naf yetkazgan holda o‘tkazish kerakligini ochib bergan.

II BOB. DOSTONLARDA TARTIB VA MIQDOR ANGLATUVCHI RAQAMLARNING ASAR VOQEALARI VA OBRAZLAR KECHINMALARIDAGI O‘RNI

2.1. Tartib va miqdor sonlarning doston voqealari rivojida ahamiyati

Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi raqamlarni tahlil qilish asnosida shu narsaga amin bo‘dikki, shoir ijodida qo‘llangan raqamlar turli ma’no mazmunni ifodalashda, ularga ijodkorano munosabatda bo‘lgan. Har bir ishlatilgan raqam-larga badiiy mahorat sifatida qarash ham nisbatan tog‘ri, chunki shu vositalar asosida shoir dostonlaridagi badiiylikka katta mas’uliyat, shoir dunyoqarashi, baytlar zamiriga yashiringan adabiy go‘zalliklar yuzaga chiqadi. “Alisher Navoiy nafaqat badiiylik qonuniyatlari, balki muayyan ilmiy-mantiqiy konsepsiya asosida ish ko‘radigan mutafakkirga o‘xshaydi: unda shoirlik va olimlik xususiyatlari ajoyib bir tarzda omuxtalashib ketgan. Bu holni uning she’riyatida ham fikrlarini yaxlit tizim sifatida shakllantirishi, bosqichma-bosqich rivojlantirishi va oxirida xulosa chiqarishida ko‘ramiz”¹. Ana shunday badiiy vositalardan biri raqamlar hisoblanadi. Ularni “Xamsa” dostonlarida chuqur tatbiq etish, ularga yuklatilgan vazifalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. “Hayrat ul-abror” dostonining ikkinchi munajoti Alloh yaratgan go‘zal narsalarga bag‘ishlanadi. Ul zotning buyuk me’mor ekanligi, jamiyki yaralagan narsalar uning mehribonligi mahsuli ekani aytiladi. Uning amallariga zid ish qilganlar, o‘zgartirishga uringan kishilar Xoliq hosil qilgan bir bo‘ronning qahriga duchor bo‘lishini aytadi. Bunga misol sifatida quyidagi baytni keltiradi:

Sovrulubon ko‘k bir etak kul kibi,

Qo‘zg‘alib anjum bir hovuch gul kibi,

(“Hayrat ul-abror”, 17-bet.)

“Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolati karam va saxovat haqida bo‘lib, unda shoir ushbu ikki tushunchaga oid qarashlarini ilgari suradi. Maqolat so‘ngida Hotami Toyi haqidagi hikoyat ilova qilinadi. “Shu hikoyatdagi asosiy g‘oya esa, “o‘z mehnati tufayli bir diram topish birov bergan xazinadan

¹ Ochilov E. Bir hovuch dur. T.: “O‘zbekiston”, 2011.10-bet.

yaxshiroq” mazmunidagi ushbu baytda o‘z ifodasini topgan:

Bir diram olmoq chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj”¹

Ushbu baytda nazarda tutilgan g‘oyani ifodalashda bir miqdor soni va birov jamlovchi soni orqali ochib berilgan, shoir o‘z qarashlarini oydinlashtirish maqsa-dida ularga murojaat qilgan.

Shu dostonning XII bobida Nizomiy Ganjaviy madhi keltiradi, shoir o‘z salafini e‘zoz bilan tilga oladi. Uning buyuk iste‘dod egasi ekanligini ta’kidlab, ushbu baytni keltiradi:

Otiki besh harf qilurlar xitob,
Ming bir erur aylasang oni hisob.

(“Hayrat ul-abror”, 42-bet.)

Mazkur baytda shoir Arabcha yozuvdagi Nizomiy ismini nazarda tutadi. Unga ko‘ra, Nizomiy arab yozuvida beshta harf bilan yoziladi, bu harflar arabcha yozilgan son hisobi bilan hisoblansa: bir ming bir soni chiqadi. bu son ismni bildi-radi. Bu orqali shoir, ya’ni Nizomiy nomi kelib chiqadi: (nun) — 50, (izg‘i) — 900, (alif - 1. (mim) — 40, (yoy) – 10 ni bildiradi, jami – 1001. Bu yerda so‘z o‘yini qilgan ijodkor ismlarni sonlar vositasida topishdan unumli foydalangan. Bu Navoiy dahosining yana bir bor mukammal bilim egasi ekanligidan dalolat beradi. Shoir “Xamsa”sini mutolla qilishda arabcha yoziladigan harflarni bilish, ulardagi yashiringan tartib raqamlarni to‘g‘ri topish ham ba’zi baytlarning mohiyatini anglashga yordam beradi.

“Hayrat ul-abror”ning “So‘z ta’rifida...” nomli bobida shoir so‘z sharafini shunchalik ulug‘laydiki, eng qimmat narsalar ham unga sadaf bo‘la olmaydi. Shoir deydi:

To‘rt sadaf gavharining durji ul.
Yetti falak axtarining burji ul. (47-bet).

To‘rt sadaf bu yerda to‘rt unsur — suv, havo, o‘t, tufroq nazarda tutilgan. Durj - qimmatbaho toshlar solinadigan quticha. Ikkinchi satrdagi “Yetti falak

¹Sirojiddinov Sh., Yusubova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. (Darslik). T.: “Tamaddun”, 2018. 86-bet.

axtarining burji” – yetti qavat ko‘kdagi yetti sayyora cho‘qqisini ifodalaydi. Bu misralar orqali so‘zning qiymati yana ham oshadi. Uning ahamiyatini insonni vujudga keltirgan to‘rt unurning nomi ham so‘z bilan nomlanishi va yetti qat osmondagi falaklarning nomi shu mo‘jizaviy so‘z orqali yuzaga chiqadi. Bu orqali shoir hamma narsa u bilan ataladi deydi.

“Hayrat ul-abror”ning XX bobida “uchinchi hayrat” berilgan bo‘lib, unda inson badanining vujudga kelishi va tana a‘zolari haqida gap ketadi. Unga ko‘ra, odamning boshi, qorni, og‘zini bir raqami vositasida berilsa, uning ko‘zi, qulog‘i, oyog‘i, burnini, ortiqcha narsalarni daf etadigan ikki yo‘l (bu yerda siydik va axlat chiqarish yo‘llari)ni ko‘zda tutganda shoir ikki raqamidan foydalangan. Quyidagi baytda insoning lab va tishlari haqida gap ketadi. Lab ham ikkita, tish ham ikki qator. Shuni nazarda tutgan shoir:

La’l eshigi uzra iki bodgir,

Hay’ati matbu u o‘zi dilpazir. (79-bet.)

Shoir hayotiy misollar vositasida o‘z fikrlarini dalillaydi. Kishi badanidagi a‘zolari raqamlar orqali to‘liq ifodalashga erishadi:

Qasrda besh rahba muhayyo anga,

Bo‘lg‘ali har sori tamosho anga. (79-bet.)

“Qasrda beshta sahn tayyorlangan bo‘lib, u yerdan hamma yoqni tomosha qilish mumkin”. Mazkur bayt tahlili “Hayrat ul-abror” dostonining sharh va izohlar qismida shunday tahlil qilingan: “Navoiy ana shu baytdan boshlab insonning besh sezgi a‘zosiga doir mulohazalarini talqin etadi. U besh sezgi a‘zosini “Bosiran somia ulomisa, zoyiqau shomia bila xomisa”, deb sanaydi. Bular: 1. Bosira – ko‘z, ko‘rish sezgisi; 2. Somia — quloq, eshitish a‘zosi; 3. Lomisa — sezish a‘zosi; 4. Shomia - hidlash a‘zosi; 5. Zoyiqa - ta‘m bilish a‘zosi”¹. Demak, shoir insonga xos besh sezgi a‘zosini “besh sahn” deya nomaydi. Hamda ushbu baytda shu a‘zolari sanab o‘tadi.

¹Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 1-jild. Nashga tayyorlovchilar: I. Haqqul; mas’ul muharrir S. Rafiddinov. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 746-bet.

Ulug' shoir shu qismda do'zax haqida va uning qiynoqlari haqida gapiradi. Odamlar qilgan amallariga qarab u yerdan o'rin olishini ta'kidlaydi. O'z fikrini quyidagi bayt bilan izohlaydi:

Yetti boshi gunbadi davvordek ,

Yetti o'g'iz har birisi g'ordek. (90-bet.)

Uning yettita boshi aylanma gumbazni eslatsa, yettita og'zining har biri esa g'orga o'xshaydi deydi. Bu yerda diniy qarashga murojaat qiladi shoir. Muqaddas diniy kitoblarda do'zaxning yetti eshikdan iborat ekanligi, har bir eshik-ning kattaligi g'orday-g'orday ekanligi¹ haqidagi afsonalar uchraydi. "Islom diniga ko'ra, Do'zaxning yetti darvozasi bor: 1)Hoviya – eng chuuqrlikda joylashgan bo'lib, unga munofiqlar, Fir'avnga o'xshash ashaddiy kofirlar kiradi; 2)jahim – mushriklar kiradi; 3)saqar – dindan qaytgan murtadlar; 4)lazo – shayton – Ibis, uning do'stlari va majuslar; 5)xutama – Allohning amriga bo'ysunmagan kofirlar; 6)sair – Allohga shirk keltirgan nasroniylar; 7) jahannam – gunohi kabirlar qilib, tavbasiz o'tgan musulmonlar kiradigan darvozalaridir"². Ushbu bayt orqali kishilarga qilayotgan ishlarini ezgu amallar bilan bezashini nazarda tutadi. Yetti raqami orqali aytilayotgan fikr dalillangan, bayt tasirchanligi oshgan, bu raqam miqdor ma'nosida qo'llangan.

"Farhod va Shirin"da tug'ilishi bilan ishqqa ilhaq bo'lgan Farhod chaqaloqlik davridayoq ona sutiga ehtiyoj sezmaydi. Ishq doyasi ichirgan sut ham oshiq yuragiga sevgining gavhar sarmoyasi bo'lib tushadi. Bu yerda ilohiy ishq nazarda tutilgan, chunki haq vasligiga erishishni istagan odamga faqat Yaratning visoli da'vo bo'ladi. Baytdagi "bir gavhar" esa ul zotning yagonaligi va oshiq sevgisining bittaligini bildiradi:

Ne qatra sut ichurgach doyai ishq,

Bo'lub bir gavhari sarmoyai ishq.

("Farhod va Shirin", 338-bet.)

¹O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. I jild. – Toshkent: "Fan", 2005. 29-bet.

² Islom Ensiklopediya. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 147-bet.

Ulug‘ shoir xamsanavis ijodkorlardan Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy nomlarini hurmat bilan tilga olar ekan ularni kuch-quvvat (ijodiy kuch-quvvat) bobida filga qiyoslaydi. “Ikki pil” birikmasini besh o‘rinda qo‘llab, ularni bir-biriga taqqoslaydi. Ulardan madad istaydi. Allohdan shu ikki ijodkorlarning shuhrati va quvvatini tilaydi:

Navoiyg‘a dag‘i shavkat yeturgil,
Bu ikki pildin quvvat yeturgil¹.

Dostonning XXV bobida Farhodning Suqrot bilan uchrashuvi berilgan. Unda ulug‘ hakim Xoqonga ikki javhar inoyat qiladi: biri — uning umri uzun bo‘lishi, ko‘p o‘lkalarni fath etishi, behad boyliklarga ega bo‘lishi haqidagi basho-rat; ikkinchisi - bir muhra (soqqaga o‘xshagan narsa) bo‘lib, xastalik yuzlanganda og‘izga olib aylantirgach, suvi yutilsa, dard chekinadi, kuch-quvvat paydo bo‘ladi, odam yasharib ketadi. Muallif bu holatni shunday ifodalaydi:

Yana ham ikki mujda yetkurur biz,
Qo‘llung‘a ikki javhar topshurur biz.
Biri bu ikki javhardin xabardur,
Biri bir javhari oliy asardur. (461-bet.)

Ushbu misralarda aks etgan “ikki mujda”, “ikki javhar” jummalari yuqoridagi fikrlarni aks etgan.

To‘rt raqami dostonida besh o‘rinda “to‘rt qasr”, besh o‘rinda “to‘rt fasl”, uch o‘rinda “to‘rt jannat” va “to‘rt firdavs”, “to‘rt yil”, ko‘rinishida, ikki martadan “to‘rt sarkor”, “to‘rt mushkul”, “to‘rt yer”, “to‘rt bino”, “to‘rt ganj”, “to‘rt guhar” shakllarida, shuningdek, “to‘rt suratxonayi”, “to‘rt jadval”, “to‘rt oiyna” kabi so‘z biriklar uchraydi. Bu raqamlar ma’lum bir mohiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Farhodning tushkun holatidan tashvishga tushgan Chin xoqoni vaziri Mulkaroga yer yuzida hech qayerda yo‘q bo‘lgan to‘rt qasr qurishni aytadi. Bu qasrlar yilning to‘rt fasliga moslab qurilishi kerak edi. Shoir shu o‘rinda -

¹Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.6-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012-yil.327-bet.(Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

Ki, gardun yetti qasridur vafosiz,

Jahonning to‘rt fasli ham baqosiz. (370-bet.)

-misralarini keltirib, inson zotiga dunyoning yetti qasri vafosiz ekanligini hamda to‘rt faslning abadiy emasligini ta’kidlab o‘tadi.

Shu dostonning XXXV bobida Farhodning arman elida Mehinbonu meh-monga kelishi tasvirlangan. Bu bazmda ularga malikaning saroyidagi eng oqila qizlar bo‘lgan Shirinning dugonalari xizmat qiladi. Ular dostonda “o‘n dilorom”, “o‘n qiz”, “o‘n javohir”, “o‘n gulandon” singari birikmalar bilan tilga olinadi. Hamda ularga xos fazilatlarini sanaydi:

Ul o‘n qizkim o‘n ishda erdi mohir,

Tutub har qaysi bir xoni javohir. (553-bet.)

Shoir Mehinbonu saroyidagi bu o‘n kanizakning dong taratganini madh etadi. “Bundan anglashiladiki, adib yaratgan har jihatdan mukammal Mehinbonu, Shirin, Layli, Dilorom kabi ayollar obrazlari qatorida fanda e’tibor qozongan. Komila va fozila bo‘lgan Shirinning o‘nta nadimasi borligi davr adabiyotida ham katta yangilik edi”¹. Ijodkor fikrlarini ochib berish maqsadida yuqoridagi birikmalarni keltirib ta’rif-u tasnif qiladi.

Dostonda voqea-hodisalarni, qahramonlar xususiyati yoki biror belgisini bo‘rttirib, kuchaytirib, mubolag‘ali tasvirlashda xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan an’anaviy raqamlardan ham keng foydalanilgan. Bu borada, bo‘rttirib tasvirlash usulida “yuz ganj”, yuz kema, “ming nola”, o‘n ming, yigirma ming, qirq ming, yuz ming kabi “ulkan” sonlar qo‘llangan bo‘lib, ular badiiy matnda aniq ko‘plikni emas, balki voqea va hodisaning miqdoriy ko‘pligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Yana bu dostonda epik vaqt (besh yuz yil, ming yil, uch yuz yil), epik makon (olti tomon, yetti iqlim, to‘qqiz olam) kabi raqam ramzlari ham qo‘llangan. “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganganimiz sari uning sirli, yashirin ma’nolari, asarlardagi jummlalar tarkibidagi o‘ziga xos ma’no qirralari yuzaga chiqaveradi.

¹Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. (Sharh va izohlar qismidan). To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. Nashga tayyorlovchilar: I.Haqqul; mas’ul muharrir S.Rafiddinov. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 765-bet.

“Layli va Majnun” dostonida raqamlarning voqealar rivojidadagi ahamiyati ham alohida ahamiyatga ega. Dostonda bir raqami bir qancha o‘rinda qo‘llangan. Uch o‘rinda “bir oh”, ikki martadan “bir dur”, “bir gul”, “bir kavkab” tarzda hamda “bir la’l”, “bir sarv”, “bir ko‘zgu”, “bir mash’al”, “bir qadah”, “bir qabr”, “bir go‘r”, “bir mavj”, “bir qatra” shakllarida ham bir martdan qo‘llangan.

Bo‘stonida yuz gul erdi xudro‘y,

Bir guldin aning dimog‘i xushbo‘y¹.

Yuqoridagi misralarda endi maktabga qatnay boshlagan Qays holati aks etgan. Maktabda o‘ziga o‘xshagan ko‘p tengdoshlari bilan tanishgan o‘quvchi ular ichidan “bir gul”ga ko‘ngil qo‘yadi. Bu gul esa mahbuba Laylidir. Aynan bir raqami ramz sifatida Laylini ifoda etib kelgan.

Dostonda juda ta’sirli chiqqan ikki oshiqning vafotiga bag‘ishlangan qismida bu pok qalb egalarining qanday dafn etilishi ta’kidlangan. Ularning vafotini eshitib oy-u yulduzlarning ham ko‘rinishini musibat bosadi. Qabiladoshlarining maslahati bilan ikkoviga bitta kafan va bitta go‘r ajratiladi. Bu dunyoda baxt topmagan chin ishq egalari u dunyoda bir birining vasliga yetishadi. Bu holatning ifodasi esa shunday:

Yoshurdi chu oy-u kun yuzin abr,

Chun go‘r bir erdi, bo‘ldi bir qabr.

(“Layli va Majnun”, 254-bet.)

Quyidagi baytda esa Alloh taoloning inson jismini qanday yaratishi haqida gap ketgan. Unga ko‘ra inson tanasi to‘rt narsa bilan harakatga kelgan. Bular – tuproq, suv, havo, olov kabi unsurlardir. Baytda shoir “to‘rt ummahot” jumlasini bilan buni ifodalab, haq taoloning shu to‘rt unsurga nom qo‘yib yaratganini ta’kidlaydi. Uning asosida esa odam bolasi yaratilganligi haqidagi qarashni ilgari suradi. Bu bilan Alisher Navoiy butun olamni yaratguvchi zotning tanholigini qayd etadi. “To‘rt ummahot” biirkmasi mazmuni uchun

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 2-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 57-bet.

inson kamoloti va uning tabiati haqida fikr yuritgan adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulovning to‘rt raqami haqidagi: “Tuproqdan insonga to‘rt sifat – sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo bo‘lgan. Suvdan esa to‘rt turli hol – safo, saho, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol to‘rt havas – yolg‘on, ro‘yo, shoshqinlik va nafsga asos asos bo‘lgan. Olovdan esa shahvat, kibr, ta‘ma, hasad tug‘ilgan. Odam o‘zida ana shu ziddiyat, azaliy ixtilof birligini aks ettiradi”¹, - degan fikrlari diqqatga sazovor.

Obo chu bularg‘a ot bo‘ldi,

Ul to‘rt ham ummahot bo‘ldi.

(“Layli va Majnun”, 23-bet.)

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining har birida xamsachilik an‘anasini boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy va uni davom ettirgan Xusrav Dehlaviy, Jomiy kabi ulug‘ salafklarini hurmat bilan tilga oladi. “Layli va Majnun” dostonida ham “besh qal‘a”, “besh maxfi”, “besh qasr” kabi so‘z birikmalari vositasida ustozlarining asarlarini tilga oladi. Quyidagi baytda Xusrav Dehlaviy asarlari Nizomiyning “Panj ganj”iga munosib tarzda javob sifatida yozilgani, besh maxfiy xazinani o‘z bag‘riga olgan toshdan yaratilgan qal‘a ro‘parasida besh qasr tiklanganini ta‘kidlaydi. Bu yerda “besh qal‘a” – “Panj ganj”dagi besh doston bo‘lsa, “besh maxfi” esa Xusrav Dehlaviy dostonlarini anglatadi.

Besh qal‘aki barcha erdi xoro,

Besh maxfi ganji oshkoro. (“Layli va Majnun”, 29-bet.)

Bu sevgi qissasida xalqimizga xos bo‘lgan urf-odatlariga oid voqealar ham keltirilgan. Dostonning XXX bobida Majnunning Navfalning qiziga uylanish voqeasi keltirilgan. Ota iltimosini yerda qoldirolmagan og‘il o‘z padarining aytaganini qildi. Arab elining e‘tiborli kishilaridan bo‘lgan Navfalning parilarga o‘xshash qiziga uylanishga rozi bo‘ladi. To‘y marosimi boshlanib, kelinni kuyovning oldiga olib keladilar. Quyidagi bayt ayni shu voqea munosabati bilan bitilgan. Unda kelin shunday chiroyliki, xuddi oyga

¹Haqqulov I. Anosiri arba‘a: mohiyat va she‘riy talqin. Navoiyning ijod olami: maqolalar to‘plami. III kitob. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2016. 5-bet

o‘xshaydi. Uni to‘qqiz qavatli niqob va pardalarga o‘rab keltirdilar deydi. Bu yerdagi “to‘quz niqob” ajdodlari-miz tomonidan nazarda tutilgan to‘qqiz qavatli osmonni ifodalagan bo‘lib, kelinning to‘ydagi kiyinishi va go‘zalligiga osmon qavatlari ham guvoh ekanligi nazarda tutilgan.

Qizni asrab hijob ichinda,

Oydek to‘quz niqob ichinda. (“Layli va Majnun”, 203-bet)

Xalqimizning azaliy an‘analarida nikoh to‘yi kuni kelin taraf kuyov bo‘lmish tomonga to‘qqiz xil noz-ne‘matlar yuboradi. Miqdori aniq to‘qqizta, bir biriga o‘xshamagan to‘qqiz xil mahsulot dasturxonga tugiladi. Uni kuyovning o‘rtoqlari (asosan), ba‘zan esa yaqinlari birgalikda baham ko‘rishadi. Bu odat “to‘qqiz tavoq” deyiladi. Ulug‘ shoir shu an‘anani nazarda tutib, Navfalning uyida bo‘layotgan to‘ydagi ayni shu jarayonni quyidagicha ta‘riflaydi:

Gardun ko‘rubon bu ish muvofiq,

Kelturdi to‘quz tabaqda sochiq. (“Layli va Majnun”, 204-bet.)

Olam ham bu ishni (nikoh marosimi nazarda tutib) muvofiq ko‘rib, ikki yoshga to‘qqiz tavoqda sochiq keltirdi deydi. Bu yerda sochiq hali uylan-magan kuyov jo‘ralarga ham to‘y qilish nasib etsin, ularga ham yuqsin degan ma‘noda beriladi. Ba‘zi joylarda kuyov jo‘ralariga ro‘molcha sovg‘a qiladilar. Layliga bir lahza ham yomonlikni ra‘vo ko‘rmaydi, xirs ko‘zlari bilan boqmaydi. “Alisher Navoiy qahramonlari doimiy qanoat va sabr qiladi. Odobsizlik va jismoniy yaqinlik umuman yo‘q. Ular ruhiy va ma‘naviy muloqotga kirishadi, islom dini ahkomlariga sira qarshi ish qilmaydi”¹. Bu ayniqsa, mazkur dostonida yaqqol tasdig‘ini topgan. Layli shunchalar chiroyliki, uning o‘tkir nigohidan bir uchqun agar olamga tushsa, olamlar ravshanlashadi, hamma joy oydinlashadi, bu uchqun faqat yer yuzida yashayotgan odamlar dunyosiga tushmaydi. Balki “to‘qquz osmong‘a” ham tushadi. Falaklarni ham o‘z shu‘lasi bilan bezaydi. Bu yerda mahvash go‘zalligining cheksizligi haqida gap ketadi. Baytdagi “bir lam‘a” – ilohiy bir nur, ya‘ni Majnun uchun yor visolidan bir bor bahramand bo‘lishdir. Bu yerda yorning bir qarashi ilohiylashirilgan desak xato bo‘lmaydi.

¹ Haqqul I. “Tasavvuf va she‘riyat”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. T.: 1991, 151-bet.

Chunki keyingi misrada kelgan “to‘qquz osmon” ramziy ifodasi bunga misol bo‘ladi. Ayni shu ilohiy bir nur to‘qqiz qavat osmonni ham hayratlantiradi, larzaga keltiradi.

Bir lam’adin o‘t jahong‘a tushgay,

Balkim to‘quz osmong‘a tushgay. (71-bet).

Falakning eng yuqori Falakiyot ilmiga doir adabiyotlarda to‘qqiz osmon va ularning joylashish tartibi xususida shunday fikrlar xayd etilgan: “1-falakul aflok - osmonlar osmoni. Hamma osmonni o‘z ichiga olganligi uchun xam buni osmonlar osmoni va “falaki atlas” deb ataydilar. 2 - burjlar osmoni bunda turli turgun yoritkichlar joylashgan. 3 – Zuhul osmoni. 4 - Mushtariy osmoni. 5 – Mirrix osmoni. 6 - Quyosh osmoni. 7 - Zuhra osmoni. 8 - Atorud osmoni. 9 - Oy osmoni. Osmonlarni Oy osmonidan boshlab sanash mashhur bo‘lganligi uchun xam “Osmonlar osmoni” to‘qqizinchi osmon hisoblangan”¹. To‘qqizinchi osmon deganda, falakning eng yuqori qismi, baland nuqtasi nazarda tutilgan. Yuqoridagi to‘qqiz raqamida ushbu osmon qavatari nazarda tutilgan. Yorning o‘tlug‘ nigohi shu falaklarni ham uchqunlantiradi.

Dunyodagi turli xalqlar og‘zaki ijodi va adabiyotida Bahrom Go‘r timsolini asos qilib ko‘plab rivoyat, afsona, hikoya, dostonlarni yaratishgan. Ana shulardan biri Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidir. Adib o‘z asarini ulug‘ salafariga musosib javob sifatida yarata olgan. Bu ayniqsa, “dostonning badiiy va tarbiyaviy jihatlarini yana ham kuchaytirgan va uni g‘ayritabiiy elementlardan xoli qilganligida”² yaqqol aks etadi. Bu asardagi bosh qahramonlarning voqealar bayonidagi faol ishtiroki, hikoyatlarning doston syujetiga ketma-ketlikda ulanishi, yuzaga kelgan tugunni ochishda yetti afsonaning beqiyos xizmati kabi o‘rinlarda yuzaga chiqqan. Bu haqida adabiyotshunos olim Saidbek Hasanov shunday deydi: “Alisher Navoiy o‘z oldiga butunlay butunlay yangi maqsadlarni qo‘yganicha Bahrom bilan Dilarom o‘rtasidagi ishq dostonini yaratishga bel bog‘ladi. Lekin ulug‘ shoir o‘z

¹ Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini. T.: “Fan”, 2010. 64-bet.

² Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 25-bet.

salaflarining kamchiliklarini tuzatgan holda, ana shu nuqsonlarning o‘zida ham takrorlanmasligiga alohida katta e’tibor berdi. Navoiy ishni dostonning syujet va kompozitsion tuzilishini takomillash-tirishdan boshladi”¹. Bunday mukammallik “Sab’ai sayyor”ning badiiy jihatdan puxtaligida aks etadi.

Dostonda voqealar rivoji, qahramonlar ruhiyatini aks ettirish, badiiy maqsadni yuzaga chiqarish, mifalogik voqealarga ishora qilish, turli ilmiy tushunchalarni anglatish jihatidan “Sab’ai sayyor”da raqamlar mahorat bilan ishlatilgan.

Dostonning VIII bobida shoir nima uchun asarni “Sab’ai sayyor” deya nomlagani, ungacha yaratilgan shu mavzudagi asarlar xususida to‘xtalib o‘tadi. Ulardagi yetti raqamiga alohida ahamiyat qaratadi. O‘zining shu asarni yaratishga ijodiy jihatdan tayyorligini quyidagi bayt orqali tasdiqlaydi.

Kim chekib sen dag‘i iki yil ranj,

Hosil aylab eding iki-uch ganj². (313bet.)

Bu baytda shoir ikki yil davomida ijodiy mashaqqat bilan uch ganj yaratganini ta’kidlaydi. Uch ganj – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlari hisoblanadi. Muallif ayni shu asarlarini nihoyalab, navbat-dagi to‘rtinchi dostonni yozishga kirishganligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda ijodkor bu to‘rt ganj (ya’ni, “Xamsa”ning dastlabki to‘rt dostoni)ni, insonni bunyod etgan to‘rt unsur (ya’ni tuproq, suv, havo, olov kabilar)ga qiyoslaydi. To‘rt raqami vositasida o‘z fikrlarini ravshanlik bilan keltiradi.

To‘rt gavharga bergasen tartib,

To‘rt unurni qilg‘asen tarkib. (314-bet.)

Shoh Bahrom may va g‘azabning harorati bilan o‘z mahbubasi uchun chiqargan farmoning qanchalar dahshatli ekanligini ertasi kuni biladi. Bundan qattiq afsuslanadi. Shoir shu holatni quyidagi so‘zlar bilan izohlaydi:

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 29-30-betlar.

² Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 313-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

Joni ikki balo arosinda,

Mo‘r ikki ajdaho arosinda. (369-bet.)

Beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir tomonidan hikoya qilib berilgan “Mehr va Suhayl” hikoyatida ham raqamlar ma’lum voqelikni ifoda etish jihatidan unumli ishlatilgan. Unda uddaburon, tirikchiligi odamlarning mol mulkini talash, yomonlikni kasb qilib olgan Jobirning jazirasi alohida tasvirlangan. Jumladan, kimda kim uning qo‘liga asir tushsa, u zindonbad bo‘ladi. Uning joyi esa chuqur bir choh bo‘lib, kim u yoqqa yuborilsa, uning kunlik nasibasi ikkita non va bir oftoba suv bo‘ladi. Suhayl chohga tashlangan paytda ayni shu haqiqat aks etgan:

Har kim ul choh aro chu bo‘ldi g‘ariq,

Non ikkita edi, su bir ibriq¹.

Oldinma keyin Jobir qo‘liga asir tushgan ikki oshiq (Mehr va Suhayl) holati dostonida yana ham ishonchli, badiiy jihatdan nihoyatda ta’sirchan baytda o‘z ifodasini topgan.

Yuqori dilbar-u quyi bedil,

Bir-biridin vale ikkovi g‘ofil².

Yuqorida dilbar, ya’ni Mehr, quyida g‘amgin Suhayl, lekin ikkovida bir-biridan xabarsiz. Ushbu satrlardagi bir va ikki raqamlari qahramonlar miqdori, ularning mavjud voqelikdagi holatini haqiqatan bayon etishni ifoda etgan.

Qizining boshiga tushgan og‘ir musibatni eshitgan Navdar shohning Nu‘mon shohga maktub yo‘llashidan xabardorsiz. Bo‘lajak qudasining maktubini olgan Nu‘mon shohning holati shunday tasvirlangan:

Ikki muhlik ajab g‘am o‘ldi anga,

Motam ustiga motam o‘ldi anga³.

¹ Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. – Toshkent: “Sharq”, 2017. 178-bet.

² Yuqoridagi manba: 210-bet.

³ Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. – Toshkent: “Sharq”, 2017. 202-bet.

O‘z og‘lidan xabarsizligi bir dard bo‘lsa, bo‘lajak keling Jobir qo‘liga asira bo‘ishi motam ustiga motam bo‘ladi. Ikki muhlik g‘am – ikkila farzandning yomonlarga tutqun bo‘lishini anglatadi. Ikki soni ayni shu voqeaga ishora qiladi.

Ulug‘ shoirning ushbu dostoni “yetti” raqami qo‘llanilishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. “Xamsa” tarkibidagi asarlarning hech birida “Sab’ai sayyor”dek bu raqam ishlatilmagan. Yetti soni dostonida biror voqea munosabati bilan, muallifning fikrini ifodalash uchun, qahramonlarning asardagi ishtirokini ta’min-lash, turli xalq qarashlarini aks ettirgan. Ushbu doston va undagi yetti raqami xusu-sidagi batafsil ma’lumot adabiyotshunos olim S. Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasini” nomli tadqiqotida berilgan¹. Unda Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”), Xusrav Dehlaviy-ning “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) va Ashraf Marog‘iyning “Haft avrang” (“Yetti taxt”) dostonlari bilan qiyosiy tahlilga tortilgan. Ulug‘ xamsanavislar asar-laridagi o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlar batafsil yoritib berilgan. Ushbu tadqi-qotda “yetti” raqamining kelib chiqishi, dunyo xalqarida qanday ma’nolarni anglatishi, sharq she’riyatidagi bu raqamning o‘rni, Navoiy “Sab’ai sayyor”ida qay tariqa ishlatilgani haqida ma’lumotlar beradi. Muallif asosan bu raqamning qanday ramziy ma’no ifodlashi, qanday she’riy san’atni hosil qilishi, yetti hikoyaning umumlashma ma’no angatishi haqida gapiradi. Ammo uning (yetti raqamining) doston voqealar rivojidadagi o‘rni, qahramonlar ruhiyatini anglatishdagi ahamiyati, yetti raqamiga bog‘liq odam va olam haqidagi qarashlarga batafsil to‘talib o‘tmagan. Shu sababli biz mazkur tadqiqotimizda ushbu jihatlarga ham e’tibor qaratishni maqsad qilib oldik. Dostonida “yetti” raqami “yetti kavkab”, “yetti gunbad” (besh marta), “yetti aflok”, “yetti ayvon”, “yetti afsona”, “yetti iqlim”, “yetti nodir”, “yetti go‘zal”, “yetti hubob”, “yetti manzil”, “yetti qasr”, “yetti shah”, “yetti charx”, “yetti parda”, “yetti ko‘k”, “yetti gulandom”, “yetti musofir”, “yetti rang”, “yetti kun”, “yetti sayyora”, “yetti tojir”, “yetti hur”,

¹ Qarang: Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasini. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. 32-bet.

“yetti yil”, “yetti sa’d”, “yetti jang” kabi birikmalarga nisbatan bir yuzi olti bor ishlatilgan. Asarning birinchi bobidayoq bu raqamga o‘n bir bor murojaat qilingan. Dostonning birinchi kirish bobi o‘tmishdagi badiiy asarlarga xos bo‘lgan an’anaviy “Hamd” bilan boshlanadi. Unda Xudo odamning yaratuvchisi sifatida maqtaladi va doston-ning mazmuni taqozosi bilan shoir bu bobda yetti raqamiga alohida e’tib qaratib, badiiy san’atlardan iltizomni qo‘llagani holda falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz (haftaning kunlariga nisbat berilgan) kabilar haqida fikr yuritadi.

Shoir Allohni ulug‘lab asardagi yetti qasrdagi yetti donishmand uning sifatlarini ulug‘lashi, u haqida afsonalar aytishini ta’kidlaydi. Bu afsonaning barchasi o‘zgacha bo‘lib, ular bir-biriga o‘xshamaydi deydi. Bu yerda asarda keltirilgan yetti hikoyaning bejiz emasligi, ular asar voqealari rivojida muhim o‘rin tutishini nazarda tutadi:

Yetti ko‘k ichra yetti farzona,
Degali hikmatingdin afsona.
Yetti afsona borchasi dilband,
Ikkisi bir-biriga yo‘q monand. (620-bet.)

Shoh uchun quriladigan qasrlarga bosh usta Moniy boshchilik qiladi. Muallif unga ana shunday mas’uliyatli topshiriqni bajarishni aytar ekan. Har bir qasr aloha-da ahamiyatga ega bo‘lishi, yetti qasrga yetti xil rang bilan bezak berish kerakligini uqtiradi:

Qasrlar ziynatig‘a ohang et,
Bu yeti qasrni yetti rang et. (392-bet.)

Dostonning so‘ngi bobida shoir yana bir bor yetti raqamiga murojaat qiladi. muallif Tangriga iltijo qilib, bu (ya’ni, “Sab’ai soyyor”)ni xalqqa aziz va mukar-ram qil. Unga yetti falakni yor ayla, yetti iqlim elini xaridor va talabgor ayla deydi:

Yetti aflokni anga yor et!
Yetti iqlim elin xaridor et! (639-bet.)

“Saddi Iskandariy”da Iskandar dengiz safarini ixtiyor etadi. Endi uning rejasi butun olamni o‘rab turuvchi Muhit (okean) uzra bo‘lishi kerak edi, shoh buni o‘z xalqiga aytar ekan shunday deydi:

O‘n uch yil ishimkim tomosha erdi,
Jazoyir birla yetti dayo edi¹.

O‘n uch yil davomida yetti dengizni aylanib chiqqan Iskandar, yana safarga chiqadi. Bu gal u Muhit (okean) borib kelish uchun arkoni davlatidan to‘rt yil so‘raydi. Uning ikki yili borishga ikki yili esa qaytib kelish uchun sarflanadi. Ushbu safarda xalq Iskandarning valiylik xususiyatidan bahramand bo‘ladi. Dostonda ikki o‘rinda olti oy birikmasi ishlatilgan. Ulardab biri Iskandarning Qirvon diyorida xalqni Ya’juj va Ma’juj bolasidan qutqarish uchun qurdirgan de-vor shu muddatda minglab ustod va hunarmandlar tomonidan yakuniga yetkazilib, u “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) devoir deb ataladi.

Bo‘lub olame bo‘yla san’atnamoy,
Kecha-kunduz ish qildilar olti oy
Ki, necha ming ustodu san’atgari,
Tamom ettilar Saddi Iskandariy. (461-bet.)

Ikkinchi olti oy birikmasi esa asar so‘ngida shoirning o‘z “Xamsa”sini yozish uchun sarflagan vaqtni bildiradi. Alisher Navoiy bu asarini juda qisqa muddat-da – ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxr bilan tilga oladi:

Yig‘ishtursa bo‘lmas bori olti oy
Ki, bo‘ldung bu ra’nog‘a suratnamoy. (463-bet.)

Doston voqealari rivojida to‘qqiz raqami ham bir qancha o‘rinda ishlatilgan. Jumladan, ikki o‘rinda “to‘qqiz yukunmoq” iborasi uchraydi. “Turkiy qavmlar o‘r-tasida hurmat-ehtirom, tavoze’ ko‘rsatish madsadida to‘qqiz marta ta’zim qilish ham odatga aylangan. Shuning uchun ham Navoiy:

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 461-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

Yotug‘onchiyu yirov tuzgach un,

Sen qadah olu to‘quz qotla yukun, — deb yozgan edi”¹

Turkiy xalqlar uchun xos bo‘lgan ushbu odatga Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida ham murojaat qiladi. Iskandar Kashmirda Feruzni shoh qilib ko‘taradi, yigirma yettita davlat arbobiga amaldorlik kiyimlarini kiygizadi, yana ikki yuzga yaqin kishilarga to‘n va nimchalar beradi. In‘om olgan arkoni davlat ko‘p emas, oz emas, to‘qqiz marta shohga ta‘zim aylab, hurmat bajo keltiradi. Shoir quyidagi parchada ayni shu voqeaga ishora qiladi:

Iki yuzga ham deklay-u to‘n berib,

Yalang to‘n alarcha yana o‘n berib.

Alarni chu mundoq sevundurdilar,

Shah ollinda to‘quz yukundurdilar. (257-bet.)

Ayni shu ibora “Hayrat ul-abror” dostonining VI maqolatida ham uchraydi. Shoir “adablilik odati to‘g‘risida...” deya nomlagan bobga ilova sifatida keltirilgan No‘shiravoni odil haqidagi hikoyatda uning hayosiga tan beradi. Hamda soqiyga murojaat qilib, shunday deydi:

Soqiy, adab shartini omoda tut,

Ollim a to‘qquz yukunub boda tut².

To‘qqiz marotaba ta‘zim bajo qilgan holda menga boda tut deyish, Navoiy talqinida odobning yuksak martabaga egaligi va uning inson zotiga yuksak sharaf keltiruvchi beqiyos kuch sohibi ekanligiga ham ishora qiladi

Demak, “Xamsa”ning besh dostonida qo‘llangan raqamlar asar qahramonlariga xos jihatlarni ochib berish, voqealar ketma-ketligini ta‘minlash, turkiy xalqlarga oid ba‘zi odatlarni ko‘rsatish, shoirning badiiy-g‘oyaviy maqsadlarini aks ettirish singari o‘rinlarda faol ishlatilgan.

¹ Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini. T.: “Fan”, 2010.62-bet.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.6-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil.143-bet.

2.2. Raqamlarning “Xamsa” obrazlarida kechinma va taqdirlardagi o‘rni

Alisher Navoiy ijodi bilan tanishgan har bir kishi asar qahramonlarining holati, dunyoqarashi, o‘zi uchun tanish va notanish bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan baddiy obrazlarga birdaniga baho berolmaydi. Buning uchun qanchadan-qancha fazilatlarini ajrata olish, nomlash, ba’zi hayotiy lavhalarni ko‘z o‘nggiga keltirish, insonlararo bo‘ladigan munosabatlarni tasavvur qila olishi kerak. Shu bilan birga yuqorida aytgan jarayonlarni o‘zaro taqqoslay olishi ham zarur. Bunga erishish uchun shoir asarlari bilan yaqindan tanishish, to‘la mutolaa qilish ham talab etiladi.

“Xamsa” ana shunday e’tibor talab qiladigan qimmatli manba sanaladi. Dostonlarning har biri chuqur e’tibor, mushohada yuritishni, diniy va falsafiy bilimni talab qiladi. “Xamsa” dostonarida ko‘zda tutilgan turli tushunchalar, ma’nosini anglash qiyin bo‘lgan istilohlar borki, ularni bilmagan kitobxon muallifning nimani nazarda tutganini, uning mohiyati nimani talab qilishini mushohada qilolmaydi.

“Hayrat ul-abror” dostonining sakkizinchi maqolati “Vafo bobidakim...” deya nomlanadi. Uyg‘ shoir vafo xususidagi o‘zining boqiy fikrlarini ilgari suradi. XV asr Xuroson atalmish ulkan davlatning bosh vaziri lavozimida hukmdorga yaqin-dan maslahat bergan ijodkor odamlar haqida, ularning dard-u tashvishlari, quvonch va iztiroblari bilan qalban yaqin bo‘lgan. Ularga qo‘lidan kelgancha madad bergan, imkon boricha moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, xalq dardini o‘z dardi deb bilgan. Bir o‘zi yuzlab oddiy xalq vakillarining tashvishiga sherik bo‘lgan. Shuning uchun ham shoir -

Voyki, yuz tosh aro yolg‘uz boshim,
Charx sog‘inmishki, erur yuz boshim¹.

misralarini keltiradi. Shoirning bu misrasida saltanat yumushlariga borini bergan odamlarning arz-dodini eshitib, ularga mos choralar topib bergani,

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.1-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil.255-bet.(Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

yolg'iz o'zi yuzlab kishilarning og'irini yengil qilgani, odamlar dardiga darmon bo'lgani aks etgan.

Navoiyning quyidagi bayti ham ayni yuqoridagi ruhiy holatning davomi de-yish mumkin. Ulusning tashvishlariga berilib, saltanat yumushlari bilan kunu tun band bo'lgan shoir qaniydi menga yetarli imkon bo'lsa, bir kecha-kunduz davomida bir ikki nafas mehnatdin qutilib, dam olib ko'nglim buyurgan ishni qilardim deya niyat qiladi:

Bo'lsa edi oncha manga dastras,

Kim kecha-kunduzda bir-ikki nafas. (259-bet.)

Ijodkorning ko'ngli buyurgan ish esa o'zi aytganidek, "bir durdona nazm bitmak"dir. Shu boisdan, shoir bir kecha-kunduzda bir yoki ikki nafas bo'lsin ijod olamiga g'arq bo'lishni odat qilgan edi. Shu ruhiy holat ushbu baytda o'z badiiy ifodasini topgan.

"Hayrat ul-abror"ning so'ngi boblaridan birida shoir "Xamsa"dek mukam-mal obidani qurishga jiddiy kirishgani, bu ishga kuch-g'ayrati bemalol yetishini, bu ishni tugatmasa ko'ngli joyiga tushmasligini qayd etadi. Shu o'rinda ulug' ijodkor o'z dostonlari qahramonlari bo'lgan Farhod va Majnun nomlarini tilga olib, o'z ruhiy holatini shunday bayon etadi.

Ikki ayog'imkim, yururdin tolib,

Qo'ynig'a Farhod ila Majnun olib.

Buki alar ishqicha yuz jonima ,

Dardicha ming xotiri vayronima. (299-bet.)

Navoiyning ayni shu misrasini ijodkor qalbining chinakam iqrori deyishimiz mumkin. Chunki, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarni yaratishga aqlan va ruhan tayyorligini shu o'rinda bilishimiz mumkin. Endi yoziladigan asarlaridagi voqealar, qahramonlardagi ko'rinishlarni oldindan ko'ra olgan muallif qachondir ikki oyog'i yurishdan qolsa, Farhod va Majnun uni o'z ko'ksilariga olsin, negaki qalbimda ularning ishqdan yuztasi bor, ko'nglimda ularnikidek darddan yana mingtasi bor deydi. Ruju adabiyotda "ko'tarilish" san'ati vositasida misralarda nazarda tutilgan fikrlarni juda kuchli ma'nolarda

aks ettiradi. Demak, shunday go‘zal sevgi atalmish dostonni yaratgan, haqiqiy muhabbat sohiblarini o‘z asariga tanlay olgan ijodkor o‘z asarlarida o‘zi ta’kidlaganidek, “Xamsa” dostonlari qahramonaridan ishqda ustun bo‘lgan. Hattoki, Navoiy ishq bir oh urganda butun vujudi kul bo‘lganiga iqror bo‘ladi. Bu kayfiyatning yaqqol tasdig‘i quyidagi g‘azalda ham aks etgan:

Bir oh ila kul bo‘ldum, ey charx, tilab, topib,
Farhod ila Majnung‘a oshiqliq ishin o‘rgat¹.

Yaxshilikka doim yaxshilik qilish, yomonlikka ham yaxshilik bilan javob qaytarish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Hamma ham chin dildan insonlarga ezgulikni ravo ko‘rmaydi. O‘z asarlarida insonparvarlikning eng oily ko‘ri-nishlarini yaratgan shoir esa bu holatni kishilardagi vafo timsoli orqali shunday bayon etadi:

Har kishiga qildi birov bir vafo,
Maxlasi yo‘qtur ko‘rbon ming vafo.

Umuman, bir-biri bilan kelishib bo‘lmaydigan holat. Inson birovga bir yaxshilik qilsa-yu, uning evaziga ming jafo ko‘rsa. Dunyo shu darajada g‘arib va ojiz bo‘lsa, shoir ayni holatdan iztirob chekadi, o‘yga toladi. “Hozirgi vaziyatda Navoiyning maqsadi ma’naviy omil sifatida vafo tushunchasining mohiyatini ulug‘lash, dalillar tili bilan uning o‘ziga xos talqini berishdir. Shuning uchun Navoiy “bir vafo”ga qarshi qo‘zg‘algan “ming jafo” majorasini didaktik “tarafkashlik” hal etishga shoshilmaydi. Go‘yo zohiriy betaraflik bilan vafo qimmatini ko‘rsatishga xizmat qiladigan tamsiliy ma’nolarga murojaat etadi”². Baytdagi bir va ming sonlari miqdorni, badiiy tasviriylikni bo‘rttirish uchun xizmat qilgan, shoirning ruhiy kayfiyatini badiiy tarzda aks ettirgan.

Navoiy “Xamsa”sida raqamlar ma’lum bir ziddiyat, qarama-qarshiliklarni aks ettirishda, obrazli voqealarni tasvirlashda ham mahorat bilan ishlatilgan. Shoir bir-biriga zid tushunchalarni ko‘rsatishda bir, o‘n, yuz, ming, besh yuz ming, yuz ming, o‘n ming singari yakka son va birikmalardan unumli

¹ Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. MAT.20 tomlik.3-tom. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1991-yil. 57-bet.

² Haqqul I. Abadiyat farzandlari. Adabiy maqolalar. Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1990. 31-bet.

ifodalagan. Bu birikmalar mumtoz she'riyatdagi "tazod" san'atini hosil qilgan.

"Farhod va Shirin"da "o'n dilarom", "o'n javohir", "o'n shu'la", "yuz ganj", "yuz kema", "yuz bars", "yuz nola", "yuz qatra", "yuz ishq", "yuz fan", "yuz sehr", "ikki yuz qarn", "ikki yuz yil", "to'rt yuz yil", "besh yuz yil", "ming yil", kabi birikmali raqamlar qo'llangan. Biror voqea munosabati, unga muallif munosabati (kayfiyati, ruhiy holati)ni aks ettirishda ushbu birikmalar keng qo'llangan. Navoiy o'z salaflarini ulug'lar ekan, ularga alohida hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Xusrav Dehlaviy yaratgan asarlarni musiqada chiroyli bir kuyning bastalanishiga o'xshatadi. Uni (X. Dehlaviyni) Qaqnusga, uning she'riyatidagi musiqiylikni, dil o'rtovchi hazinlikni Qaqnusning sayrashiga o'xshatadi. U shunday chiroyli so'zlaydiki, yuz marta nola qilsa, qalblarni shuncha marta jonso'z bir holda o'rtaydi. Agar ming bora kuylasa, uning ham barchasi qalbga xush yoqadi.

Agar qaqnus chekib yuz nola jonso'z,

Anga ming nola o'qi borcha dildo'z¹.

Baytdagi yuz nola va ming nola birikmalari badiiy ta'sirchanlikni oshirish, shoir xursandchiligini aks ettirishga qo'l kelgan. Misralarda Qaqnus so'zi izoh talab etadi. Qaqnus - afsonaviy qush. Uning tumshug'ida ko'p teshiklar bor bo'lib. Ulardan taralgan hazin ovozlardan musiqa yaralar emish. Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida Qaqnusning go'zal tasvirini beradi. Bu yerda ramzan shoir o'zi yaratayotgan "Xamsa" dostoni shu xildagilarga munosib javob bo'lishini ayni Qaqnusning yangi tug'ilgan bolasiga o'xshatishini ham bilib olishimiz mumkin. Yuqoridagi baytda kelgan o'xshatish buni tasdiqlaydi. Faqat Navoiyning asari ("Xamsa" nazarda tutilgan) mangu kuylaydigan Qaqnus bo'ladi va doim dillarni o'ziga mahliyo qilib keladi. Shu bois shoir deydi:

Berib yuz lahn ila qaqnug'a payg'om,

Etib hijron o'ti so'zini e'lom. (609-bet)

¹Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami.10 jildlik.6-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012-yil.326-bet.(Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi)

Ushbu dostonda ikki sevishgan qalbning ruhiy iztiroblari, qalb oʻrtanishlari tasvirlangan baytlarda ham raqamlar mohirlik bilan ishlatilgan. Jumladan, “ikki notavon”, “ikki nargis”, “ikki tavsan”, “ikki pora”, “ikki jism”, “ikki ruh”, “ikki motam”, “ikki payxon”, “ikki latif”, “ikki gʻuncha” kabi oʻxshatishli birikmalarda ikki yurakning noz karashmalari, sogʻinchlari aks etgan.

“Farhod va Shirin”ning XLVI bobida Farhodning mahubasiga yozgan maktubi keltirilgan. Unda yigitning dil soʻzlari, ishqning shirin tashvishlari uchun chekkan azoblari tasvirlangan. Soddadil, mehnatkash oshiqning qalb soʻzlari Shirinni ham, Mehinbonuni ham hayratga soladi. Shopurdan uning daragini surishtiradi. Maktub ularni iztirobga tushiradi. Mana oʻsha holatlar nazarda tutilgan baytlar:

Ikisi koʻz yoshidin koʻp sochib dur.

Aning holigʻa yeb har dam tahassur. (362-bet.)

Yoki:

Soʻrub Farhodning holini bir-bir,

Ikov yigʻlab bu qilgʻon soyi taqrir. (298-bet.)

Dunyo xalqlari adabiyotidagi eng mahzun sevgi haqidagi qissa sifatida eʼtirof etilgan “Layli va Majnun” dostoni qahramonlar ruhiyatini aks ettirish borasida alohida ahamiyatni talab etadi. Ushbu asarda raqamlar Navoiyga xos mahorat, joziba bilan qoʻllanilgan. Muallif oʻz fikrini taʼkidlash, voqea jarayonini dostonidagi obrazlar ahvoliga uygʻunlikda tasvirlash uchun raqamlarga murojaat etadi.

Dostonning XI bobida Qaysning maktabga borishi va u yerda Laylini uchratish voqeasi keltirilgan. Dastlabki kunlarda maktabga kela olmagan Laylining jismini esa isitma bezovta qilayotgan edi. Quyosh xuddi qumni qizitgandek, isitma Laylining vujudini bezovta qilar edi. Shu oʻrinda shoir yosh bemorning jismini egallab olgan narsni “toʻrt havo” tarzda beradi:

Shahd-u mayu tab ila havo toʻrt,

Chun mushtail o'ldi soldilar o'rt¹

Bu yerda to'rt havo deyilganda, asal, may, o'zining issiq tanasi va havoni nazarda tutgan. Chunki ana shu to'rtta narsa shu'lalanib, Layli vujudiga azob berayotgan edi. "Layli va Majnun" dostonida ikki marotabadan "to'rt ummahot", "to'rt anosir", "to'rt unsur", "to'rt taraf", "ko'zi to'rt" shaklda hamda "to'rt saf", "to'rt aql", "to'rt bas", "to'rt samim", "to'rt havo", "to'rt oyoq" kabi birikmali jumlalar ham uchraydi.

Ishqqa butunlay ko'ngil qo'ygan Majnun holati ka'ba ziyoratgohida teran aks etadi. O'zini yana ham bu jovidonga oshno qilishni Alloh taolodan so'rar ekan, deydi:

Yuz munchag'a elni moni' etma,

Ming munchag'a meni qoni' etma! (38-bet.)

-deydi. Majnun ahvolini ko'rib el yuz marta azob bersa ham indama, ming shuncha azob bersa-da indama deydi. Bu yerda tazod – "qarshilantirish" san'ati raqamlar vositasida ifodalangan bo'lib, unda oshiq ruhiyati yorqin aks etgan. Yuz va ming sonlari Majnunda ishqqa bo'lgan e'tiqotning naqadar kuchli ekanidan daolat beradi. U bu oliy tuyg'u sabab duchor bo'lgan azoblarga qalban va jismonan roziligi shu baytda ham sezilib turadi.

Ruhiy holat tasviri, qahramonlarning ko'ngil iztiroblarini tasvirlash jihatidan "Layli va Majnun" dostoni "Xamsa" dostonlari orasida alohida mavqega ega. Alisher Navoiyning inson ruhiyatning yetuk bilimdonligi ayni shu dostonida o'zining badiiy ifodasini topgan. "Dostondagi voqealari rivoji – Qaysdagi miskin-likning rivoji, dardmandlikning kuchayishi va muhtalolig' nolasining shiddatlanishidir. Qays har gal hushini yo'qotganda jononining ruhi unga jon bo'lib qaytaveradi"². Shu sababdan, Qays sira iztiroblardan xoli bo'lmaydi battar muhtalo bo'lib boraveradi. Bu esa ota-onaning diliga g'ulg'ula soladi. Ularni far-zandining ruhiyati qiynaydi. Ota va farzandning dildan suhbat

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 23-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi)

² Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot birlashmasi". 1991. 154-bet.

keltirilgan XXVIII bobda bu holat yorqinroq ifodalangan. Ota tilidan aytilgan quyidagi bayt ana shu kechinmaning badiiy ifodasi deb ta'riflasak bo'ladi.

Biz ikki sening g'amingdin o'lsak,
Sen o'lmay-u motamingdin o'lsak. (196-bet.)

Bunday baytlarni ishq azoblarini yurakdan his qilgan, qalban oniy tuyg'u bo'lmish sevgini bilgan, o'z qahramonlarining ichki olami oshno bilan chinakam yozuvchigina yoza oladi. Navoiyning badiiy mahorati bu ishni ortig'i bilan udda-lashga erishgan.

Quyidagi baytda Majnun ruhiy holatining chinakam badiiy ifodasi aks etgan. Xayolan o'zida bo'lgan oshiq yon-atrofdagi odamlar nazdida sokin, hayoti bir maromda kechayotgandek ko'rinadi. Aslida esa Majnun bir dam bo'lsa ham orom olmaydi, uning butun borlig'i ishqqa mahliyo bo'lgan.

Men bir dam o'zum damen, dame yo'q,
Mundin ajab elga olame yo'q. (179-bet.)

. "Sab'ai sayyor"da Shoh Bahrom mastlik sabab Dilaromning oyoq-qo'lini o'zining sochlari bilan bog'lab, biyobonga tashlab kelishni aytadi. Ammo mastlik holatidan qutilgach, chiqargan qarorning qanchalar achchigligini tushinib yetadi. Uni biyobonlardan o'zi yugurib izlaydi. Biroq Dilaromni topa olmaydi. Hijron azobidan butunlay o'z holatini yo'qotadi. Kundan kunga hijron sababli ahvoli og'irlashib boradi. Quyida shu kabi holatlar aks etgan baytlarni keltiramiz:

Joni ikki balo orasinda,
Mo'r ikki ajdarho arosinda¹.

Yana:

O'tdi uch-to'rt yil bu holat ila,
Holatidan ulus malolat ila. (361-bet.)

Yoki:

Ishqi yo'q edi bir oning mundoq,

¹ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 7-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 369-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi)

Bor edi o‘n-u, yuz-u, ming mundoq.

O‘z sultonidan ajralgan, uning diydoridan ma‘lum muddat bebahra qolgan, uzoqlarga ketishga majbur bo‘lgan qizning iztiroblari ham yigitnikidan qolishmaydi:

Hush marta tark qilmish erdi,

Yuzdin ortuq o‘lib tirilmish erdi (597-bet.)

“Xamsa”ning so‘nggi dostoni “Saddi Iskandariy”da xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan an‘naviy raqamlardan ham keng foydalanilgan. Bu borada, bo‘rttirib tasvirlash usulida “ming ganj”, yuz kema, “ming nola”, o‘n ming, yigirma ming, qirq ming, yuz ming kabi “ulkan” sonlar qo‘llangan bo‘lib, ular badiiy matnda aniq ko‘plikni emas, balki voqea va hodisaning miqdoriy ko‘pligini ifodalash uchun. Shuningdek, yuqoridagi raqamlar ruhiy holatni ham ifoda etib keladi. Qahramonlarning ma‘lum vaziyatni aks ettirish, ruhiyatini ochib berish kabi o‘rinlarda ushbu sonlar qo‘llangan.

Dostonning XLV bobida oldi-sottidan katta ziyon ko‘rgan va jigargo‘shasidan ajrab qolgan savdogar hikoyati berilgan, unda ota o‘z o‘g‘lini qaroqchilar qo‘lidan qutqarish uchun o‘z o‘limi uchun asrab qo‘ygan belidagi yashirin pulni beradi. Hamda dilbandini ozod etadi. Bu holatda savdogar ming oltinni tuhfa etib, yana o‘g‘illik bo‘lgani va yuz ming iqbol (baxt)ga erishga-ni ta’kidlanadi:

Ming oltungakim zohir etti karam,

O‘g‘ul toptiyu yuz ming iqbol ham¹. (297-bet.)

Dostonda to‘g‘rilik va rostlik xususidagi bobda muallifning ajoyib o‘xshatishlari berilgan. Unda aytilishicha, bir podsho bitta ulkan ustunlik bir uy qurish orzu qiladi. Vazirlar izlay-izlay nihoyat ana shu uyga mos tushadigan bir yirik yo-g‘ochni topdilar, ammo egasi (qari kampir) berishni istamadi:

Berib o‘n baho, balki yuz, balki ming,

Rizo bermayin xotiri zolning. (332-bet.)

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 297-bet. (Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

Iskandarning olimlarning osmon sirlarini yashirgan suturlob (usturlob) va oinayi jahonnomani yaratganidan xursandligi, barchaga bazm uyishtirgani hamda shoh Doroning qizi Ravshanakka uylanish voqeasi tasvirlangan o‘rinlar hammani shod etadi. Sultonning farmoni bilan Chin diyorini shunday bezashdiki, natijada uni tomosha qilgan odam ming yillab hisoblaganda ham yuzdan birini ko‘zdan kechira olmaydi. Mingdan birini sharh va izoh etolmaydi. Bu yerda kishilar kayfi-yatining ko‘taringki ruhdaligi, saroyning tengsiz go‘zaligiga ularning mahliyo bo‘l-ganligidan dalolat beradi:

Bo‘lub oncha ziynatki charxi dani,
Hisob aylamak bo‘lsa ming yil fani,
Yuzidin biriga yeta olmag‘ay,
Mingidin birin sharh eta olmag‘ay. (369-bet.)

Qirvon o‘lkasida Ya’juj Ma’jujlarga qarshi shoh farmoni ila tiklangan mudofaa devori shu yerlik aholi uchun juda ham muhim edi. Ular bu yovuz maxluqlardan qattiq azob chekishar edi. Ikki quloqli bu yovuz maxluqlar o‘z jirkanch ta-nalarini shu quloqlari orqali yashirishadi. Shu holatining o‘ziyoq kishilarni qo‘rquvga soladi. Odamlar esa ulardan qutulolmay joni halakda:

Ne Ya’juj kim, yuz tuman ming balo.
Biz ul yuz tuman ming balodin jalo . (421-bet.)

Iskanadar va Doroning o‘zaro jangi tasvirlangan XXVII bobda shoirning haqiqiy drammatik holatlarni tasvirlashda gi mohirligi yuzaga chiqadi. Dastlab, o‘z kuchiga haddan ortiq erk berib yuborgan Doro o‘z qo‘shinining miqdor jihatdan ulkanligi ko‘rub, yanada g‘azablanadi. Bir hamlada Iskandarni yutishiga ishonadi va dushmaniga nisbatan ko‘zlarida nafrat, tomirlarida qon “tosha boshlaydi”.

Iki ko‘z anga ikki olmosdek,
Vale davrasi qon to‘la tosdek. (167-bet.)

III.BOB. “XAMSA”DAGI AYRIM RAQAMLARNING DINIY-TASAVVUFIIY VA “SEHRLI” MOHIYATI VA BADIYATI

3.1. “Xamsa”dagi ayrim raqamlarning diniy-tasavvufiy va “sehrli” ma’nolari

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida ko‘p uchraydigan jumlar qatoriga “bir dam”, “bir on”, “bir lahza” singari birikmalar kiradi. Ularda asosan vaqt, payt, ma’lum fursat nazarda tutiladi. Dam so‘zi besh tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izohlangan: Dam I. [nafas,tin.] Damim qaytib kelyapti, damimni rostlab olay. II. [bir nafaslik fursat, vaqt, lahza]. Bir dam jim qolmoq, bir dam o‘zini yo‘qotib esankirab qoldi. III. [on, lahza, kez, payt] shu damda, shu dam, baxtli damlar tarzida izohlangan¹. Eng qimmat, eng aziz ne‘mat, shubhasiz, bu vaqt hisoblanadi. Vaqt faqat oldinga harakat qiladi, u sira ortga qaytmaydi. Vaqtning qanday o‘tib ketishini tushunish rostdan ham qiyin. Kecha, bugun, erta.... Mana shu uch kun butun hayotimizni boshqaradi. Kechagi kun o‘tmishga aylanadi. Bugungi kun bir umrga cho‘ziladigandek tuyiladi. Ertangi kunni esa keladimi, yo‘qmi deya ba‘zan sezmaymiz ham. Ba‘zida qiladigan ishlarimizni to‘g‘ri rejalashtirmaganimiz uchun o‘z ishlarimizga ulgurmay qolamiz. Vaqtga Shayx Najmiddin Kubro shunday ta’rif beradi: “Vaqt bir keskir qilichdir. Agar keskir bo‘lmaganida edi, holdan holga o‘tguniga qadar seni kutgan bo‘lardi. Xolbuki, zamon o‘tkir qilichdek haraklanardi va o‘z hukmini ijro etadi. So‘fiy inbul vaqt, vaqtning o‘g‘li. U bilan barobar yurar. U o‘tmishga ham, istiqbolga ham nazar tashlamas. Chunki uning moziyga va mustaqbalg‘a boqmog‘i o‘tmish yoxud kelajakni o‘ylab ayni ondagi vaqtini ketkazmog‘i demakdir, buning takrori esa ko‘p vaqtni zoye etadi. Sog‘lom muroqabaning sharti ham muhofazayi vaqtdir”². Tasavvuf adabiyotida so‘fiyga shunday ta’rif beriladi: “ Junayd Bog‘-dodiy ta’rifiga ko‘ra, ishi faqat Xudo bilan bo‘lgan, vujudi mutlaqning mavjudliginigina tan tan oluvchilar

¹O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik. II tom. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 21-bet.

²Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: “Movarounnahr”. 2004. 157-158-betlar.

so‘fiylar deb yuritiladi”¹. Demak, o‘z maqsadi yo‘lida doim Yaratganga iltijo qiladigan So‘fiy ham vaqtga bo‘ysunadi, uning maqsadga erishishi ham shu tushunchaga bog‘liq.

Vaqtga berilgan ta’riflardan yana biri adabiyotshunos olim I. Haqqulovga tegishli. Unga ko‘ra: “Vaqtga faqat ma’naviy-ruhiy harakat va ma’rifiy faoliyat ila yuzlashish lozim. Vaqt oldidagi mas’ullik u bilan aloqa o‘rnatishning o‘ziga xos “maqom”larini egallashni talab qiladi. Shu ma’noda tasavvuf ahlining fikr-qarashlari va hayotiy tajribalari juda ibratli. Ibratlisi shundaki, ular vaqtning eng kichik birligi hisoblanmish dam va lahzaning mazmuniga alohida ahamiyat berganlar. Sharqning ko‘p buyuk san’atkorlari singari Alisher Navoiyning Vaqtga doir qarashlari, munosabat tarzi va undan ko‘zda tutgan maqsadlari ham tasavvuf maslagi bilan chuqur aloqadordir”².

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida keltirilgan vaqtga oid birliklarda qahramon ruhiyati, uning ichki olami, inson umrining g‘animat onlarini rohat va farog‘otda o‘tkazish, har lahza, daqiqaning qimmatli ekanligi, har soniyaning muhim ahamiyat kasb etishi kabi o‘rinlarni ham anglatib kelgan. “Farhod va Shirin”dan olingan quyidagi baytlarda ham yuqoridagi hissiy jarayonlarning kechinmalari tasvirlangan:

Ki, ul Shiring‘a bu yondoshsa bir dam
Aning shirinlig‘idin kelmagay kam³.

“Sab‘ai sayyor” dostonining VIII bobida shoh Bahromning yetti qasr qurilishi va uning go‘zalliklari ta’rifi berilgan. Shoir bu obidalar bir-biridan ajoyibligi, u yerda vaqt juda ham tez o‘tishini ta’kidlaydi.

Topibon har biri ichida maqom ,
Lek bir dam biriga yo‘q orom⁴.

¹Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: “Movarounnahr”. 2004. 241-bet.

²Haqqul I. Tasavvuf va Navoiy she‘riyati haqida. Navoiyning ijod olami. (Maqolalar to‘plami). Toshkent: “Fan”, 2001. 10-bet.

³Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 336-bet.

⁴Alisher Navoiy. Sab‘ai sayyor. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 3-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 310-bet.

Yana shu dostonda Alisher Navoiy shoh Bahrom qissasining qanday yozilgani, unga nima turtki bo'lganini qayd etadi. Bosh qahramonning o'zi Navoiyning tushiga kirib, unga chin dildan minnatdorchilik bildirgan. Shoirning tushiga kimdir kelib shunday deydi:

“Qo‘pu bir lahza ranja ayla qadam
Ki, tilar suhbatingni shah bir dam!”
(“Sab‘ai sayyor” , 620-bet.)

Ushbu baytda “bir lahza”, “bir dam” kabi ramziy birikmalar muallifga ilo-hiy bir xabar kelganligi, bu Allohning bandasiga ishorasini aks ettiradi, chunki ana shu qisqa fursat, oniy lahza sabab shoir o‘z asariga kirishadi.

Tasavvuf adabiyotidagi muhim raqamlar qatorida bir raqami turadi. Bir raqami ramziy ma'noda Haqni tanish, butun koinotning yaratuvchisi yakka-yu yagona ekanligi anglash, unga doimo ishonish kerakligiga undaydi. Yaratgan Alloh aynan shu raqamda o‘z ifodasini topadi. “Ushbu raqam din va tasavvuf ta’limotida dun-yoning birligi, Mutlaq borliq mazmunida qo‘llanilgan. Ayniqsa, tasavvufiy adabiyot namunalari Yaratganning yakkayu yagonaligini e’tirof etish maqsadida “bir” raqamiga tez – tez murojaat etilganligiga guvoh bo‘lamiz”¹. Quyidagi baytlarda ayni yuqoridagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topgan.

Birlik edi-yu adadi yo‘q edi,
Birdin o‘zga ahade yo‘q edi.
(“Hayrat ul-abror”, 14-bet.)

Bir gar azim, ul bir a’zame,
Bu ham olame, ul dog‘i olame.
(“Saddi Iskandariy”, 330-bet.)

Tasavvufiy raqamlardan yana biri ikkidir. Ushbu raqam Zardushtiylik dini-da ikki xudo Ahuramazda – haqiqat va adolat xudosini; Axriman – yolg‘on va bo‘hton timsolini ifoda qilgan. Insonlarning bu dunyo va oxirat haqidagi qarashlari ham ikki raqamida aks etgan. “Xamsa” dostonlarida “ikki olam”, “ikki jahon”, “ikki javhar”, “ikki gardun” tushunchalarida ba’zi o‘rinlarda olam,

¹ Sunnatov J. Turk adabiyoti va folklorida raqamlar badiiy ramz sifatida//magis. disser. Toshkent. 2013. 68-bet.

ba'zilarida dunyo, boshqalarida insonlarga xos ikki qarama-qarshi xususiyatlar tilga olinadi.

Tasavvuf adabiyotida “olami sug‘ro” va “olami kubro” birikmalari ko‘p ishlatiladi. Shayx Najmiddin Kubroning “Tasavvufiy hayot” kitobida ushbu ikki olam haqida shunday deyiladi: “Olami kubro – buyuk olam. Zohiran buyuk olam koinotdir. Kichik olam esa inson. Darhaqiqat, koinot insonda mujasmlashgandir. Zero, inson butun olamlarning aslidir. Inson zohiran kichik, haqi-qatda esa ulug‘ olamdir. Olami sug‘ro – kichik olam. Bu esa insondir”¹. “Navoiy asarlari lug‘ati”da olami kubroning ma’nosi sifatida yurak, dil, ya’ni ko‘ngil ham aytilgan. Professor N. Komilov fikri quyidagicha: “Tasavvuf bo‘yicha, parvardigor avval jabarut (buyuklik) olamini, keyin malakut (farishtalar) olamini, keyin mulk (moddiy) olamni, keyin inson badani olamini yaratgan. Ko‘ngil (ruh) shu olamlarni sayr etib, insonda nuzul etadi va ana shu olamlar bo‘ylab uruj etadi (ko‘tariladi). Oqibatda ruhning begonalashuvi va yana birlashuvidan bir doira yakun topadi. Bu doira olami kubroni olami sug‘ro – inson bilan bog‘laydi. Olami sug‘ro insonda olami kubrodagi jami xususiyatlar mavjud”². Quyidagi baytlarda ayni shu olamlar haqidagi tasavvufiy g‘oyalar ilgari surilgan:

Iki olamcha mulki vus‘at ichra,
Yeti garduncha taxti rif‘at ichra.

(“Farhod va Shirin”, 354-bet.)

Yoki:

Jahon ichra jahonkim topti muknat,
Solib ikki jahonahlig‘a hayrat³.

Tubandagi baytda esa mavjud ikki olam agar ikki bog‘ bo‘lsa, ana shu ikkala bog‘ning yagona sultoni birgina Alloh ekanligi ta’kidlangan:

Mulking ikki bog‘i ikki olam,

¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. T.: “Movarounnahr”, 2004. 232-bet.

² Komilov N. Tasavvuf. II kitob. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari, 1999. 6-bet.

³ Alisher Navoiy. Layli va Mjnun. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 3-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 329-bet.

Sultonlig‘dir bir sanga musallam.

(“Layli va Majnun”, 52-bet.)

Tasavvufiy raqamlardan yana biri yettidir. Bu raqam mumtoz adabiyotimiz va islom diniga oid manbalarda ko‘p qo‘llangan. “Tasavvuf ta’limoti va adabiyotida yetti raqamiga alohida e’tibor qaratilib, uning bilan bog‘liq ma’nolar chegarasi tasavvur etish qiyin bo‘lgan darajada kengaytirilgan”¹. Yetti raqamiga bo‘lgan e’tiqodiy qarashlarning tub ildizi Qur’oni karimga borib taqaladi. Unda “Yetti samo” (Baqara, 29), “Yetti kun” (Baqara, 46), “Yetti bashoq” (Baqara, 261; Yusuf, 46), “Yetti dengiz” (Luqmon, 27), “Yetti yil” (Yusuf, 47), “Yetti ozg‘in sigir va yetti semiz sigir” (Yusuf, 46), “Yetti darvoza” (Hijr, 44), singari oyatlarda yetti raqami ishlatilgan. “Tasavvuf masalalaridan bahs yuritilgan turli xarakterli kitoblarda nafsning yetti turi va yetti maqomi mavjudligi aytilgan hamda ular birma-bir ta’rif-u tavsif etilgan. Nafsning turlari mana bunday iboralar bilan nomlangan: 1. Nafsi jamodiy, ya’ni moddiy nafs. 2. Nafsi nabotiy. 3. Nafsi xayvoniy. 4. Nafsi insoniy. 5. Nafsi notiq. 6. Nafsi qudsiya. 7. Nafsi kulliya, ya’ni olamning joni, koinotning ruhi bo‘lgan nafs. Demak, nafs tabiatidagi o‘zga-rish va yuksalishlar – inson mohiyatidagi o‘zgarish va yuksalishlar bo‘lib, inson shu yo‘l bilan moddiy, nabotiy, hayvoniy olamni ortda qoldirib, ruhoniy va ilohiy mavjudlik cho‘qqisiga ko‘tarilishi mumkin ekan”². Tasavvuf adabiyotiga oid man-balarda haqiqiy ishqqa yetishish ham yetti bosqichdan iboratligi qayd etilgan. Chin oshiq shu yetti zinani bosib o‘tgach Alloh vasliga muyassar bo‘lishi ilmiy asoslangan va tahlil etilgan. “Ishq maqomiga ko‘tarilguncha oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga yetkazishi kerak. Bular: 1. Do‘stlik. 2. Savdo - ko‘z yosh to‘kmak. 3. Sevgidan sarmastlik. 4. Muhabbat – yomon fe’llardan poklanib, yaxshi va go‘zal xulq-la sevgiliga yaqinlashmoq. 5. Shitob – qalbni pora etib, otashga yoqqan sevgi, 6. Junun, ya’ni ma’shuqanining quliga aylanmoq. 7. Sevgi sharobidan mast bo‘lib, o‘zdin kechmoq. Sevgining ushbu

¹Sunnatov J. Turk adabiyoti va folklorida raqamlar badiiy ramz sifatida//magis. disser. Toshkent. 2013. 23-bet.

² Haqqul I. “Irfon va idrok”. Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998, 117-bet.

darajalari va ularni bosqichma-bosqich kechib o'tgan oshiqning ahvol ruhiyasi Rumiy tomonidan favqulodda san'atkorlik bilan tasvirlab berilgan"¹.

“Saddi Iskandariy” dostonida ikki o'rinda “yetti ato” jumlasini ishlatilgan. Asarning I bobida an'anaviy hamd – Allohning sifatleri ta'rifiga bag'ishlangan. Shoir shu qismda Allohni madh etib, uning yaratuvchilik xususiyatlarini ulug'laydi va quyidagi baytni keltiradi:

Ato yetti-yu to'rt qilding ano,

Natija uch etting bulardin yano. (175-bet.)

Baytda tilga olingan “yetti ato” yetti qavat osmonni ifodalaydi. Baytdagi “to'rt ona” va “uch natija”ning ma'nosini tushuntirish uchun esa asar nasriy bayonida Beruniyning quyidagi fikrlariga e'tibor daratilgan: “Osmoni falak ikki poyas - ekvator va ekliptikaga bo'linadi. Ekliptika ekvator va boshqa nuqtalar bilan kesishganda to'rtta teng bo'lgan bo'laklarga bo'linadi. Bo'laklarning har biri yana uchta teng bo'laklarga bo'linadi va ularning har biri burjni anglatadi”². Bundan chiqadigan xulosa shuki, shoir “yetti ato” deganda yetti qat osmonni, “to'rt ano” deganda to'rt faslni, “uch natija” deganda fasllardagi burjlar - uchta o'n ikkita burjni nazarda tutgan³. Biroq “baytdagi “to'rt ano”, “uch natija” birik-malarida fasl-u burjlar emas, balki inson yaratilishi uchun asos bo'lgan to'rt unsur – olov, tuproq, suv havoni nazarda tutgan bo'lsa, “uch natija” esa tabiatdagi uch xil yaratiq – o'simlik va hayvonot olami, ma'danlarni nazarda tutilgan desak, xato qil-magan bo'lamiz. Keyingi baytlarda shoir to'rt unsur, ularga xos to'rt mijoz va tabiat hamda “uch natija”ning har biri xususida alohida to'xtaladi”⁴.

Navoiyning ba'zi baytlarida “yetti ato” deganda, yetti iqlim nazarda tutilsa, “to'rt ano” esa to'rt unurni anglatadi. “Saddi Iskandariy”dagi quyidagi baytlar fikrimizni tasdiqlaydi:

¹Haqqul I. “Irfon va idrok”. Toshkent: “Ma'naviyat”, 1998, 60-bet.

²Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. V jild, 1-kitob, Toshkent: 1973. 87-bet.

³ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Inoyat Maxsum tayyorlagan nasriy bayonni qayta ishlab, nashrga tayyorlovchi Mavjuda Hamidova. Toshkent: 2006. 426-bet.

⁴ Jumayeva S. O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini. T.: “Fan”, 2010. 17-18-betlar.

Duo xatm qilib, dedi bu so‘z yano

Ki: Yetti ato birla bu to‘rt ano.

Seningdek topa olmay ogoh qiz

Ki, dahr o‘lmasun sendek ogohsiz. (495-bet.)

Yetti iqlim-u to‘rt unsurdan iborat bo‘lmish yetti ato-yu, to‘rt ano seningdek hushyor va dono qizni yana topmasa kerak. Iskandar vafotiga kelgan yetti hakim tomonidan shohning onasiga bildirilgan ta’ziyada ushbu fikrlar aytib o‘tilgan. Demak, yetti ato jumlasini yetti iqlimga nisbat berilishi baytga ham mantiqan mos, to‘rt ano esa yaratuvchining mo‘jizasi bo‘lmish yuqorida qayd etgan to‘rt narsaga to‘g‘ri keladi.

Raqamlar shunday g‘aroyib xususiyatga egaki, yer yuzida istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarni ularni o‘z hayotlariga tatbiq etishgan. Ba’zi irim-sirimga ishonuvchilar esa raqamlarga qarab kundalik, haftalik, oylik va hatto yillik rejalarini ham tuzib chiqishgan. Shunga o‘xshab biz ham o‘zimizning turmush tarzimiz, urf-odatlarimiz, turli marosimlarimizda raqamlarga ko‘p bor murojaat qilamiz. Bu holat xuddiki bir an’ana tusini olgan, oradan qancha vaqt o‘tsa-da, turmush, zamonlar almasha-da, baribir bizning raqamlarga e’tibor qaratishimiz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayrim raqamlarning ahamiyati, ularga kishilarning munosabati, ba’zi sonlarga qilinadigan diniy e’tiqotlarning asl mohiyati nima ekanligi ko‘pchilikka qiziq holatdir. Biz kundalik turmushda ishlatadigan “Yetti o‘lchab bir kes” “Yetimcha yetti ko‘cha”, “Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar”, “yetti uxlab tushiga ham kirmagan” kabi maqol va iboralar tilimizda ko‘p uchraydi. Yoki “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”, “to‘rt tomoning qibla”, “qirq quloq”, “qirq qiz”, “qirq yosh qirchillama yosh”, “qirq quloqli qozon”, “qirq kokilli qiz”, “to‘qqiz qo‘rg‘on”, “to‘qqiz to‘yi”, “to‘qqiz tavoq”, “to‘qqiz kunlik”, “to‘qqiz oy” shakidagi so‘z birikmalariga bot-bot duch kelamiz. Bu singari jummalarning kundalik hayotimizda ko‘plab uchrashiga sabab esa ularga kishilarning ishonishi, ular bilan bog‘liq urf-odatlarining mavjudligidir. Bu kabi raqamlar adabi-yotshunosligimizda “sehrli” sonlar sifatida talqin etiladi. “Bobolarimiz tafakkurining eng buyuk

kashfiyotlaridan biri bo'lgan o'nlik sanoq usuli qadimgi odam uchun eng aziz va mo'tabar hodisa hisoblangan.xalq ijodiyotida, kundalik turmushda qo'llaniladigan an'anaviy raqamlar paydo bo'ldi. Bu g'aroyib xususiyatli raqamlar jahonning barcha xalqlari folklorida mavjud bo'lib, ular "sehrli raqamlar" deyiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida o'ziga xos an'anaviy badiiy silsila sifatida qo'llaniladigan uch, to'rt, besh, yetti, to'qqiz va qirq raqamlari ana shunday tafakkur mo'jizalari hisoblanadi"¹.

O'zbek adabiyotshunosligida bunday raqamlar o'rganilgan. Adabiyotshunos olim Mamatqul Jo'rayev o'zbek folklorshunosligidagi "sehrli" raqamlarni maxsus tadqiq etgan. Jumladan, olimning "O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar"², "Sehrli" raqamlar siri"³, "Yetti iqlimdagi "yetti"lar"⁴ kabi ilmiy kitoblarida "sehrli" raqamlar batafsil tahlilga tortilgan. Adabiyotshunos olim xalq og'zaki ijodi bilan uzviy aloqadorlikda raqamlarni tahlilga tortadi. Ilmiy xulosalarini bayon etadi. Ammo muallif mumtoz adabiyotimizda uchraydigan "sehrli" raqamlarga to'xtalib o'tmaydi. Yuqorida aytib o'tilgan uch, to'rt, besh, yetti, to'qqiz va qirq raqamlar mumtoz she'riyatimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodida ham ko'p o'rinda uchraydi. Biz ulug' shoirning "Xamsa" dostonidagi ba'zi raqamlar misolida ushbu "sehrli" sonlarga to'xtalib o'tamiz. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, ularni tahlil etishda folklorshunos olim M. Jo'rayevning ishlariga suyardik. Ikki - "sehrli" raqamlarning eng qadimiysi hisoblanadi. Biz kundalik turmush tarzimizga nazar tashlasak, bu raqamning turli irim-sirim va marosimlar bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Xalqimizda juft-toqlik an'anasiga muvofiq holatda ushbu songa muntazam murojaat qilinadi. To'ylar bilan bog'liq an'analarning barchasida juftlik asosida o'tkazishga harakat qilinadi. Shu kuni darsturxonga qo'yilgan non, albatta, ikkita bo'lishi kerak. Yoki Respublikamizning ba'zi viloyatlarida kelin borayotgan uyga laganda un olib boriladi. Ana shu laganning ichiga esa ikki dona yonib turgan sham solib qo'yiladi. Bu ular uchun (yangi oila qurganlar

¹ Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. Toshkent: "Fan" 1991. 5-6- betlar.

² Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. Toshkent: "Fan" 1991.

³ Jo'rayev M. "Sehrli" raqamlar siri. Toshkent: "Fan" 1990.

⁴ Jo'rayev M., Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi "yetti"lar. Toshkent. 1989.

uchun) yorug‘lik ramzi deb qaraladi. O‘zaro ziddiyat qonuniyati ham ikki raqamiga asoslangan. Odamzotning ko‘z o‘ngida ham bu olam yaxshi-yomon, hayot va o‘lim, yorug‘lik va zulmat, ochlik va to‘qlik kabi ko‘rinishlarda aks etadi. “Ikki raqami yoki juftlik haqidagi qarashlar ta’sirida urug‘ qabilalarning ikki qismga ajralganligi, o‘tmishda har qanday qabila ikki guruhga bo‘linganligi ma’lum. Bu haqda tarixiy kitoblarda kerakli ma’lumotlarni topish mumkin. O‘zbeklarda oq mang‘it va qora mang‘it, oltoylarda qora nayman va oq nayman kabi urug‘larning mavjudligi fikrimizni tasdiqlaydi”¹. Mumtoz adabiyotimizda u dunyo va bu dunyo haqidagi qarashlar, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlarda ikki raqami keng qo‘llanilgan. Shoir “Xamsa”sidan olingan baytlarda ham ana shunday ikki qarama-qarshi tushunchalar o‘z badiiy ifodasini topgan. Tubandagi baytlarda ikki olam (foniy-o‘tkinchi dunyo va boqiy-abadiy dunyo) haqidagi xalq e’tiqodiy qarashlari nazarda tutilgan. Quyidagi raqamlarda ana shu ma’nolar nazarda tutilgan:

Alloh-Alloh, bu ne ikki kalom,
Kim ikki olamg‘adur andin nizom.
(“Hayrat ul-abror”, 123-bet.)

Qilib kisvat hariri za’faroni,
Iki gardun quyosh ichra nihoni.
(“Farhod va Shirin”, 96-bet.)

Bu yanglig‘ iki olami qatlu kin
Ki, titrab alardin zamonu zamin.
(“Saddi Iskandariy”, 162-bet.)

“Saddi Iskandariy”da o‘z sehrarlari bilan mashhur deya ta’riflangan Kashmir o‘lkasiga yurish qilgan Iskandar o‘lkaning turli boyliklarini qo‘lga kiritadi. Shulardan biri – podsho Jamshid zamonidan qolgan sehrli bir jom edi. U jomning gardishiga uning ta’rifi ham yozilgan bo‘lib, Jamshid ikkita jom yasatgan ekan:

¹Qutliyeva M. Raqamlarda taqdirar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016-yil. 34-bet.

Birisin dedi: Jomi Getinamoy,

Birisin dedi: Jomi Ishratfizoy. (233-bet.)

“Jomi Getinamoy” - oinayi jahon, jahonni ko‘rsatuvchi deganidir. Unda bu-tun yer yuzi kaftdek namoyon bo‘ladi. Bu jom Navoiyning “Farhod va Shirin” dos-tonida ham uchraydi.

“Jomi Ishratfizoy” – shodlik ko‘rsatuvchi, quvontiruvchi jomdir. Uning xosiyati shunda ediki, qancha ichilsa ham, sharobi tugamasdan, limmo-lim turardi va egri tutilganda ham undan bir tomchi to‘kilmas edi”¹. Shundan bo‘lsa kerak, Iskandar “Jomi Getinamoy”ni butunlay unitib, “Jomi Ishratfizoy”ga butunlay berilib ketadi. Bazm-u jamshidlarda faqat shundan foydalanishga qaror chiqaradi.

Navbatdagi “sehrli” raqam uch sonidir. An’anaviy xalq ertaklarida mazkur raqam keng ko‘lamda qo‘llanadi. Xalqimizda nikoh to‘ylarida kelin-kuyov gulxan atrofida uch marta aylantirilardi. Turmushda uchlik o‘ziga xos “qoida”ga aylanib qolgandek ko‘rinadi, undan hatto hozir ham foydalaniladi. Masalan, qo‘lni uch marta yuvish, choyni uch marta qaytarish. Bir kishiga uch bor omad kulib boqadi, “yer qoidasi uch, uchdan keyin puch” kabi birikmalarda ham uch raqami “sehrli” ma’no kasb etadi. Aynan an’anaviy takror sifatida bu ifodalar “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida 18 ga yaqin o‘rinda ishlatilgan. “Farhod va Shirin”da Xoqonning o‘g‘li uchun atagan to‘rtta saroyni barpo etish uchun mos ravishta uch oydan vaqt ketadi. Har bir saroyda uch oydan ishrat qilishadi. Farhodning savodi uch oyda chiqadi, Farhod sandiqdan ko‘zgudagi sehrni ko‘rgach uch kecha kunduzda ko‘zini ochadi, egallanadigan ilmlarning ko‘pini uch yilda o‘zlashtirib oladi, safarga otlangan bosh qahramon uchta yo‘lda, uch qiyinchilikka duch keladi: birinchi – yosuman kampir, ikkinchi – Ahriman devni, uchunchi qiyinchilik – temir odamni mag‘lub etadi. Temir odamning o‘zini ham uch marta kamondan o‘q uzish orqali mag‘lub etadi. Yana dostonda Xoqon xursandligidan Chin elining

¹Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991.161-bet

uch yillik xiroj solig‘idan voz kechadi. Arman diyoridagi oddiy xalq ham uch yildan beri arig‘ qazish ishlari bilan band bo‘lib, uddasidan chiqolmagan edi. “Farhod va Shirin”ning ayni shu joylarda raqamlarning “sehrli” mohiyati ochiladi. Mazkur raqam xalq dostonlarida biror muammoning yechimini ham ifoda etib keladi. Xuddi shunga mos holat Farhodning Shirin go‘zalligi oldinda lol qolishi va hushidan ketishi bilan bog‘liq. Ikki kecha-kunduz hushsiz yotgan oshiq do‘sti (Shopur)ning mahbuba haqidagi xabarini eshitib, uchinchi kuni o‘ziga kelishi bilan bog‘liq.

Uchinchi kecha uyqu el ko‘ziga

Kim, ul ochib ko‘zin, keldi o‘ziga. (523-bet.)

“Sab‘ai sayyor”da shoh Bahrom g‘azab otiga minib, may ta‘sirida Diloromni sahroga badarg‘a qiladi. Shundan so‘ng ikki kecha-kunduz behud yotadi. Uchinchi kuni hushiga qaytadi. Qilgan ishidan qattiq afsuslanadi:

Keldi holig‘a chun uchunchi kun,

Ko‘rdi umri yorug‘ kunin qaro tun. (369-bet.)

Xalq an‘analarida ko‘p qo‘llaniladigan “sehrli” raqamlardan biri “to‘rt”dir. Ayniqsa, diniy aqidalarda “to‘rt” soniga alohida e‘tibor beriladi. Islom mifologiyasi ta‘limotiga ko‘ra, yetti osmon va yerni to‘rt farishta to‘rt qiyomat qoyim bo‘lguncha yelkasida ko‘tarib turarmish.

Og‘irini yengil qilib bergan kishini yaxshiligi evaziga keksalar “to‘rt muchang sog‘ bo‘lsin!” deb alqaydilar. An‘anaviy tasavvurlarga ko‘ra, “to‘rt mucha” odam organizmining a‘zolaridir. Bunda organizmning eng zaruriy qismlari – qo‘l, oyoq, ko‘z va quloq omon bo‘lishiga istak bildiriladi. Ertaklardagi to‘rt raqami dunyo tomonlarining ramzi bo‘lib tasvirlanadi. To‘rt raqami qo‘llanilish jihatidan “Xamsa” dostonlarida salmoqli o‘rinni egallaydi. “Farhod va Shirin”da bu raqam besh o‘rinda “to‘rt qasr”, besh o‘rinda “to‘rt fasl”, uch o‘rinda “to‘rt jannat” va “to‘rt firdavs”, “to‘rt yil”, ko‘rinishida, ikki martadan “to‘rt sarkor”, “to‘rt mushkul”, “to‘rt yer”, “to‘rt bino”, “to‘rt ganj”, “to‘rt guhar” shakllarida, shuningdek, “to‘rt suratxonayi”, “to‘rt jadval”, “to‘rt oiyna” kabi so‘z biriklar uchraydi. Bu raqamlar ma‘lum bir mohiyatni ifodalash

uchun xizmat qiladi.

Farhod uchun quriladigan qasrlar uchun tanlangan tarh (reja)larning tanlanishi hamda to‘rt qasrning to‘rt fasl tarovatini namoyon qilishi, bu imoratlar xuddiki, jannat bog‘idek go‘zal bo‘lishi kerakligi kabi o‘rinlar o‘z ifodasini topgan.

Topib devor arkonini avval,
Buyurdi har biriga to‘rt jadval. (373-bet.)
Bu yanglig‘ to‘rt bog‘i jannat oyin,
Ichinda to‘rt qasri ravza tazyin. (374-bet.)

Xalq tilida ko‘p qo‘llanadigan raqamlardan yana biri qirqdir. Tilimizda ishti-rok etgan so‘z va iboralar shu qadar ko‘pki, ularning har biri bobolarimizning qadimiy e‘tiqodlari bilan bog‘liqdir. Undan tashqari, tasavvuf adabiyotida murshidning xilvatnashlik holati ham qirq kun davom etgan. “Shayxim Ammor Yosir menga shunday degan edilar: Xilvatga kirganingda zinhor-bazinhor nafsing ila so‘zlashma. Qirq kunlik xilvatni tugatguningcha bunga rioya qil. Nafsi bilan gaplashgan kimsa ilk kundanoq xilvatdan bebahra qoladi. Agar u seni gapga solsa, unga aytgil: “Bu yer qiyomat kuniga qadar sening qabringdir. Buni yaxshilab angla!”. So‘ngra ilova qilib shunday dedilarki, Bu juda nozik bir nuqtadir va uni faqat Haqqa yetishganlarga anglay oladilar”¹. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tez-tez murojaat qilingan “qirchillama qirq yosh”, “bir kam qirq kun”, “qirq kokil”, “qirq qarmoq”, “qirq yigit”, “qirq qiz” singari birikmalarda ma‘lum muddat va miqdoriy ko‘plikni aks ettiradi.

O‘zbek ertaklarining deyarli barchasida mushkul vaziyatlar ortda qolgach yoki oshiq va ma‘shuqlar bir birining visoliga musharraf bo‘lganidan so‘ng, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilingan. Shu bilan birga, xalq dostonlarida, xususan, “Alpomish” va “Kuntug‘mish”da malikalarning “qirq kanizi” mavjud. “Rustamxon”da “qirq qalandar”, “Kuntug‘mish”da “qirq yigit”, “Alpomish”da “qirq chiltan” va mardon g‘oyiblar obrazida ham ayni shu son ishlatiladi. Bu

¹Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: “Movarounnahr”. 2004. 167-bet

yerda miqdoriy ko'plik bilan bir qatorda, favqulotda voqea hodisalarga kishilarni ishontirish uchun ham ushbu raqamga e'tibor qaratilgan.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asaridagi "Sulaymon va Chumoli hikoyati"da mo'rcha (chumoli)ga Alloh qirq tabaqa yer bergan edi. Qirq tabaqada yerda qirq ming chumoli bor edi, qirq ming chumolining qirqta uyi (uyushmasi) mavjud edi¹. Demak, qirq raqami azaldan Yaratuvchi tomonidan alohida ahamiyat qaratish kerak bo'lgan raqam hisoblangan.

Alisher Navoiyning "Xamsa"sida ham bir necha o'rinda qirq raqamiga murojaat qiladi. "Farhod va Shirin"da Chin xoqoni o'g'lini xursand qilish uchun saroy xazinasiga olib tushadi. U yerda juda ko'p javohir va gavharlar bo'lib, ularning har biri juda katta qiymatga ega edi. Unda mumga o'xshash oltinlar saqlanar edi. Bitta oltinni olib, undan nimadir yasash va bemalol foydalanish mumkin edi. Qirqta uyda (xonada) qirqta oltin turadi, qirq shohona uydagi qirq xumda qirq xil ko'rinishdagi oltinlar joylashgan edi.

Burun qirq uy bo'ub oltun makoni,

Har evda qirq xumi xusravoni.

("Farhod va Shirin", 409-bet.)

Yana qirqta uyda turli tuman ranglarda tovlanadigan, chiroyli kiyimliklar bo'lib, har uyda qirq o'ramdan harir va hashamli ipak kiyiklar ham mavjud edi. Bu xonalarda ajoyib va g'aroyib narsalar nihoyatda ko'p bo'lib, ularni ko'gan kishi beixtiyor mahliyo bo'lib qolardi.

Yana qirq uy aro ajnosi zebo,

Bir uyda qirq tung iksunu debo.

("Farhod va Shirin", 409-bet.)

Bu baytlarda keltirilgan qirq raqami "sehrli", "muqaddas", "ilohiy kuch egasi" tarzida ham tushunish mumkin. Chunki aynan qirq raqami o'zida qandaydir bir "sehr", mifologik dunyoqarashni aks ettiradi. Shu boisdan ham ulug' shoir bu raqamni keltirib o'tadi.

¹ Qarang: Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. T.: "Yozuvchi", 1991. 58-61-betlar.

III. 2. Dostonlardagi raqamlar singdirilgan baytlarning badiiy xususiyatlari

Alisher Navoiy ijodining gultoji bo'lgan "Xamsa" ham badiiy mukammalligi jihatidan muhim o'rin tutadi. Muallif muayyan so'zdan o'z o'rnida unumli foydalanishga intiladi. Buning uchun she'r san'atlari shoir uchun eng muhim vositalardan hisoblanadi. Ulug' adib ayni shu vositalarni "Xamsa" dostonlarida mahorat bilan ishlatadi. Raqamlar vositasida bayon etilgan badiiy san'atlarga diqqat qaratadigan bo'lsak, avvalo, ular yordamida hosil qilingan *mubolag'a* she'riy san'atiga e'tibor qaratish joiz. *Mubolag'a* – muhim poetik vositalardan biri bo'lib mumtoz she'riyatimizda muhim o'rin tutadi. "Mubolag'a faqat shaxsning sifatlarini bo'rttirish uchungina xizmat qilmay, ayni zamonda tasvir ob'yekti bo'lgan turli voqea-hodisa hamda boshqa mavjudotlarning xususiyatlarini bo'rttirib tasvirlash (xoh ijobiy, xoh salbiy) uchun ham ishlatiladi"¹. "Sab'ai sayyor"da juma kuni kofuriy (oq) qasrda xorazmlik musofirdan Dilorom daragini eshitgan shoh Bahromning holati shunday ta'riflangan:

Hush yuz qatla tark qilmish edi,
Yuzdin ortuq o'lub tirilmish edi².

O'z mahbubasi haqidagi quvonchli xabarni eshitgan podshohning hushi yuz marta (aslida undan ham ortiq) tark etadi, yor daragini eshitgach, oshiq yuzdan ortiq o'lib tiriladi (ehtimol, ikki yuz martadir, balki to'rt yuz martadir). Bu baytda voqelikni bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatish uchun raqamlardan mohirlik bilan foydalanilgan. Bahrom shohning yorga bo'lgan munosabati, uni qay darajada yaxshi ko'rishi bayt mazmunidan yaqqol aks etib turibdi. Aslida esa shohning qizga oshiq bo'lib qolishi ham yuksak *mubolag'a* bilan sodir bo'lgan edi. Zero, Dilorom haqida ilk bor xabar bergan rassom Moniy uning ta'rifini juda ham ko'tarinki yo'sinda aks ettirib, uni maqtash va go'zalligiga baho berish imkonsiz ekanligini shunday ta'kidlaydi:

¹Is'hoqov Yoqubjon. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: "Zarqalam". 2006. 35-bet.

² Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 7-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 597-bet.

Men kibi kimsa cheksa yuz ming til,

Bo'lmag'ay vasfi sharhi yuz ming yil. ("Sab'ai sayyor", 341-bet.)

Baytda yuz ming soni orqali miqdoriy ko'plik, qizning beqiyos chiroyi, har jihatdan mukammal go'zalligi aks etgan hamda uning bu jihatlarini ochib berish rassom uchun qiyin ekanligi aks etgan.

Mubolag'aga yo'g'rilgan misralar "Farhod va Shirin" dostonida ham ustamonlik bilan qo'llangan. Farhodning bilim egallash jarayonidagi holati: juda o'tkir zehn, noyob qobiliyat, kuchli xotira, favqulotda iste'dodning mavjudligi ishonish qiyin bo'lgan baytlar misolida badiiy ifodasini topgan:

Uchunchi oy ravon bo'ldi savodi,

Burungi yilda Qur'on bo'ldi yodi.

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,

Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni¹.

"Saddi Iskandariy"da to'g'rilik va rostlik xususidagi bobda muallifning ajoyib o'xshatishlari berilgan. Unda aytilishicha, bir podsho bitta ulkan ustunlik bir uy qurishni orzu qiladi. Vazirlar izlay-izlay nihoyat ana shu uyga mos tushadigan bir yirik yog'ochni topdilar, ammo egasi (qari munkillab qolgan kampir) berishni istamadi. Shoir bu jarayonni shunday bayon etadi:

Berib o'n baho, balki yuz, balki ming,

Rizo bermayin xotiri zolning. (332-bet.)

Shunda saroy a'yonlari yog'och og'irligiga teng keladigan oltinni berib kam-pirni ko'ndiradi. Ayolning o'z hovlisida o'sgan daraxtga bo'lgan ishonchi to'g'riligi edi. Shu o'rinda kampirning hovlisida ungan daraxtga nisbatan qat'iy ishonchi mubolag'a bilan bayon etilgan.

Tazod – nasr va nazmda bir-biriga zid bo'lgan tushunchalarni keltirish, shu tushunchalarni ma'lum voqea-hodisalarni tasvirlash uchun qo'llashdir.

Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedovning uqtirishicha, "Tazod so'zi "zid qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi

¹ Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. – Toshkent: "Sharq", 2014. 68-bet.

she'riy san'at esa baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi"¹. Raqamlar ham tazodni yuzaga keltiradi. Aslida esa o'zaro qarama-qarshi bo'lgan sonlarning o'zi yo'q. Barcha raqamlar faqat miqdor, ozlik-ko'plik jihatidan o'zaro farqlanadi. Ayni shu hol raqamlarda tazodni yuzaga keltiradi. Baytlardagi ma'lum voqea-hodisaga nisbatan qo'llangan raqamlarda bu hol yuz beradi.

“Hayrat ul-abror”ning 52-bob “Xunasasifat oliftalarning dunyo zeb ziynati deb hiylakorlik ko'rsatishlari...” haqidagi shoir fikrlari ilgari surilgan. Shu qismda shoir turfa xil toifa kishilarning xarakterlarini raqamlar vositasida badiiy tasvir vositalari asosida ochib beradi. Zolim kishilarning zulmi, shafqatsizligi shu daraja-daki, agar ular podsho-dan in'om olsalar, shunga ham qanoat qilmaydilar. Aksincha, shohnikiga o'xshagan yuzlab kishilarni qo'rqitadigan laskararim qani, minglab yigitlar o'tlanadigan o'lkalarim (hukmronlik qiladigan joylar) qani deb o'zini azoblaydi:

Ta'n qilibkim, “manga yuz ming berur,
Yuz, ikki yuz ming manga loyiq mudur?!
Yuz kishi rashk etgucha charkam qani.
Ming yigit o'tlang'uchi o'lkam qani”²

Quyidagi baytda esa tazod san'ati yanada ko'tarinki ohangda aks etgan:

Bir kishi ul safdaki, yuz ming durur,
Rustam esa, bor-u yo'g'i teng durur. (338-bet.)

Mumtoz she'riyatda bir va yuz sonlari miqdoriy jihatdan o'zaro antonim ma'nolarni bildirgani uchun o'zaro tazodni yuzaga keltiradi. Ammo mazkur baytda “borlik va yo'qlik” so'zlari ham o'zaro zid, “teng” so'zi esa bir soniga tenglikni ifodalab, u ham yuz ming soniga qarshilantirilgan. Bu esa badiiy ifodaga yana ham kuchli ohang berib, bayt mazmunni ochishga xizmat qilgan. Yana bu baytda *talmeh* – biror mashhur tarixiy shaxs yoki mashhur joy nomini

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2008. 125-bet.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 327-bet.

keltirish san'atiga murojaat etilgan. Rustam "Shohnoma"dagi afsonaviy fors bahodiri, agar lashkar tizilgan safda yuz minglab askar bo'lsa ham Rustam ularga teng keladi, deydi shoir. Baytlarda ketma-ket sonlarni keltirish orqali ham tazodni yuzaga keltirish mumkin. Bunda raqamlar navbatma-mavbat ishlatiladi. Hamda ular miqdoriy jihatiga ko'ra zidlantirish – tazodni ifoda etadi. "Sab'ai sayyor"dan olingan quyidagi baytlar fikrimizni yaqqol ifodalaydi:

Ishi yo'q erdi bir aning mundoq,

Bor edi o'nu yuz-u ming mundoq. ("Sab'ai sayyor", 484-bet.)

Lek qonuni erdi yutmog'ining,

Bir-u yo o'n, yo'q ersa yuz yo ming. ("Sab'ai sayyor", 611-bet.)

"Xamsa" dostonlarining badiiyatini ta'minlagan she'riy san'atlardan biri tarse'dir. **Tarse'** – bayt misralaridagi barcha so'zlarning o'zaro qofiyadosh bo'lishini talab etadi¹. Baytdagi so'zlarning barchasi o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan misralarni dostonlardan topishimiz mumkin.

Durjlarda sekiz samin gavhar,

Burjlarda sekiz munir axtar. ("Sab'ai sayyor", 619-bet.)

Yuzidin biriga yeta olmag'ay,

Mingidin biriga sharh eta olmag'ay. ("Saddi Iskandariy", 369-bet.)

Ushbu baytlarda tarse' badiiy tasvir vositasi mohirlik bilan qo'llangan.

"Layli va Majnun"ning I bobida Alloh taola yer yuzini go'yoki bir bog' sifatida yaratgani aytilgan. Bu bog'da quyosh va oy almashib nur taratib turadi, deydi shoir. Quyosh va oyni esa bu bog'dagi ikki vard (atirgul) deb ataydi. Baytdagi ikki vard tushunchasi *istiora* san'atini hosil qilgan. Shu baytning o'zida *tanosub* (misralarda ma'nodosh so'zlarni qo'llash) she'riy san'ati – bog', atirgul, mehr, moh so'zlari bilan yuzaga chiqqan. Yana *takrir* (takror so'zlarning misrada kelishi) – Alloh-Alloh so'zlari orqali ifodasini topgan. Ushbu bayt Navoiy uslu-bining yetukligidan dalolat beradi.

Bog'ing ikki vardi mehr ila moh,

Ne bog'u ne vard, Alloh-Alloh. ("Layli va Majnun", 11-bet).

¹Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2008. 138-bet.

“Layli va Majnun”dan olingan quyidagi baytda ham raqamlar vositasida *tazod va tarse*’ badiiy san’atlari Navoiyga xos ustamonlik bilan qo‘llangan.

Yuz munchag‘a elni moni’ etma,

Ming munchag‘a meni qoni’ etma! (“Layli va Majnun”, 239-bet).

Bu yerda tazod – “qarshilantirish” san’ati raqamlar vositasida ifodalangan bo‘lib, unda oshiq ruhiyati yorqin aks etgan. Yuz va ming sonlari Majnunda ishqqa bo‘lgan e’tiqotning naqadar kuchli ekanidan dalolat beradi. Misradagi so‘zlarning ohangdorligi esa tarse’ni hosil qilgan.

“Xamsa”ning ba’zi o‘rinlarida ruju’ san’ati raqamlar vositasida aks etgan.

Ruju’ tasvir vositasi misralarga bo‘rttirish, kuchli ohangni ifodalaydi. Muallif “go‘yo o‘z maqsadini to‘liq ifodalash uchun ojizlik qilgan ibora va obrazlar o‘rniga yangi, mukammalrog‘ini qo‘yib, fikr va kechinmalarni bayon etadi”¹. Bu shaklda biror fikr bayon qilish dostonlardan olingan quyidagi baytlarda mavjud:

“Sab‘ai sayyor”da Dilorom ta‘rifini kuylagan ijodkor o‘zbek qizlariga xos kamtarinlik, oriyat singari tuyg‘ular ham unda jo‘sh urganligini ta‘kidlaydi:

Muncha-vu muncha yuz jamol bila,

Yana yuz g‘am-u yuz dalol bila. (“Sab‘ai sayyor”, 354-bet.)

Shunchadan-shuncha jamol-u go‘zalligi ustiga yana yuzlarcha noz-u karashma, yuzlarcha g‘amza, ya‘ni adosi bor deydi.

“Farhod va Shirin”da Shirinning o‘z yoriga yozgan maktubida yurak iqrorlari, qalb iztiroblari badiiy ifodasini topgan. Qizning ishq shu qadar kuchliki, u dil sog‘inchidan ko‘ra yuz, yo‘q ming bor shiddat bilan jismoniy mehnat qilganim yaxshi deydi. Yor hajrida yuz yil alam chekishga ham sabri yetishini nihoyatda bo‘rttirib, qalb kechinmalarini juda orttirib ta‘kidlaydi. Tubandagi baytlarda ayni shu holatlar ruju’ vositasida aks ettirilgan:

Vale yuz muncha mehnat bo‘lsa erdi,

Ne yuz, ming muncha shiddat bo‘lsa erdi,

Agar hajringda yuz yil g‘ussakashmen.

Agar vasling umidi bo‘lsa xushmen. (“Farhod va Shirin”, 642-bet.)

¹Is‘hoqov Yoqubjon. So‘z san’ati so‘zligi. Toshkent: “Zarqalam”. 2006. 49-bet.

X ULOSA

Navoiy asarlari asrlar osha o'zining yuksak ulug'vorligini yo'qotmay kelmoqda. Navoiy ijodining eng yuksak cho'qqisi bo'lmish "Xamsa"ni birinchilardan bo'lib turkiy tilda yaratdi. "Xamsa"ning yaratilishi - zamonasi uchun, butun jahon adabiyoti uchun katta ijobiy hodisa ekanini dastavval Abdurahmon Jomiy e'tirof etdi. Uning fikricha, "Xamsa" muallifining turkiyda yozishi - forsig'oylar uchun baxtdir; agar Navoiy ham o'z "Xamsa"sini forscha yozsa edi, boshqalarga so'z aytishga majol qolmas edi"². Shu boisdan butun turk dunyosi, turkiy she'riyat ixlosmandlari shoirdan g'oyatda minnatdor. Tasvir usuli, so'z tanlash mahorati, misralardagi tushunarlik, ifodadagi chuqur mazmun va sodda jumlar "Xamsa" o'qilishini ta'minlagan. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida turli shakllar doirasida o'zgacha fikr ayta olish imkoniyatini belgilab berdi.

Dostonlar hajman katta va mazmunan chuqur mazmunga egadir. Ana shu mazmunning yuzaga chiqishida badiiy tasvir vositalari, xususan, raqamlarning alohida o'rni bor. Raqamlardan u yoki bu maqsadda foydalanish ijod olamida keng tarqalgan. Negaki biror raqam asar tarkibida aniq bir g'oyaviy, badiiy, ramziy vazifada kelmasa, u o'zining mavjudligini, ma'no mazmunini to'la yuzaga chiqarmaydi. Mumtoz adabiyotda ijodkorlar tomonidan qo'llanilgan raqamlarga doim ham yangi fikr va mazmunni ifodalagan, deb bo'lmaydi. Alisher Navoiy "Xamsa"si ana shunday monumental asar hisoblanadi. Shoir adabiyotdagi an'anaviylik, boshqa ijodkorlar merosidagi o'xshashlik bilan qator raqamlarga an'anaviy qarashlarni ilgari suragan.

Raqamlarni "Xamsa" dostonlarida chuqur tatbiq etish, ularga yuklatilgan vazifalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, raqamlarning doston voqealari rivojida tutgan o'rini aniqlash, ulardagi poetik mohiyatni ochib berish, asar qahramonlarining ruhiy holatlarini belgilash, ularning raqamlarga aloqasiga to'xtalib o'tishga harakat qilindi.

² Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 299-bet.

Masalan, 1 raqami vositasida Allohni ulug‘lab, buyuk yaratuvchining tanholigini ta’kidlaydi. 2 raqami bilan an’anaviy u dunyo va bu dunyoni, jannat va do‘zaxni, ezgulik va yovuzlikni, borlik va yo‘qlikka ishora qiladi. Raqamlarni ilohiylashtirish jahondagi turli xalqlarda turli maqsadlarda amalga oshgani, ularning ma’no haqiqati va sirlari turli mazhab, tariqat va ta’limotlarga ishora qilgan. “Xamsa”dagi to‘rt va yetti raqamlari zamiridagi ma’no-mohiyatni o‘rganish asnosida bunga amin bo‘lindi.

Navoiyning yuksak badiiy mahoratlaridan yana biri raqamlar orqali qahramon ruhiyati, obrazlarning kechinmalarini tasvirlashda yuzaga chiqqan. Miqdoriy jihatdan ko‘plik va ozlikni ko‘rsatish, fikrni dalillash, baytni ta’sirli chiqarish maqsadida ikki, uch, yetti raqamlaridan dostonlarda ustamonlik bilan foydalangan. Shuningdek, 2, 4, 7 raqamlari misolida tasavvufiy timsollarga, tasavvuf adabiyotidagi har xil qarash-larga ishora qilgani e’tiborga olindi.

Yana bu raqamlar “Xamsa”dagi badiiy obrazlarning noyob qobiliyatligi, chuqur irfoniy tafakkurga egaligini ham ifodalab kelgan. Yetti raqamiga shoir chuqur mazmun yuklaydi. O‘zining ezgu maqsadlarga yetishishini ham “Sab’ai sayyor”da shu son yordamida aks ettiradi. Dostondagi yetti hikoya shoir aytganidek, “ har bir insonning baxt-saodat yo‘lida o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan, insonparvarlik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan yetti hikoya yotadi. Qolganlari esa dostonning shakliy tarkibiga xizmat qiladi”¹. Bu esa yetti raqamining dostonda ham shakl, ham mazmun jihatidan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida raqamning diniy yoki “sehrli” ekanligi hodisasi, ajdodlarimiz dunyoqarashida raqamlarga sig‘inish bo‘lmasa ham, qadimgi ishonch va tasavvurlarga befarq emasligini 3, 7, 9, 40 kabi raqamlarni “Xamsa” dostonlarida ayni shu sonlar qatnashgan baytlarni tahlil qilish jarayonida amin bo‘lindi. Badiiy ijodda raqam qo‘llash, raqamlar yordamida mulohaza qilish ko‘zlangan bosh maqsad olam va odam mohiyatini ochish

¹Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 1991. 157-bet.

bo'lganiga "Xamsa"dagi 2, 4, 6, 7, 9, raqamlari qo'llangan baytlar misolida tahlil qilindi. Alisher Navoiy ijodida qo'llangan ikki olam, olti jihat, yetti aflok yoki to'qqiz ko'k tarzidagi birikmalarni tahlil qilish orqali olam mohiyati, insonning ulug'lanishi kabi mulohazalar ilgari surilganligi ayon bo'lindi.

Ulug' shoir yigirma, o'ttiz, qirq, oltmish, sakson, to'qson sonlari yordamida inson umrining turfa davrlarini, shu yoshlarga xos o'ziga xos jihatlarini ta'riflaganligi oydinlashdi.

"Xamsa"dagi ba'zi raqamlarning esa xalqimiz tarixi, urf-odatlarini, an'analarini bilan bog'liqligi, shuningdek, ularning ilmiy asoslarga ega ekanligi ham aniqlandi. Navoiy 3, 4, 9 sonlaridan ana shu maqsadlarni yuzaga chiqarishda foydalangan.

Badiiy adabiyotda so'z qo'llash shoirdan qanday mahorat talab etsa, she'rda raqamlardan foydalanish ham shunday mohirlikni talab qiladi. Negaki, ba'zi raqamlar tasvir, uslub, badiiy umumlashma jihatidan muhim qimmatga egadir. Ular (raqamlar) she'rda ham g'oyaviy, ham estetik mukammallik va ta'sirchanlikka xizmat qiladi. Bunga raqamlar orqali aks etgan tajnis, mubolag'a, tashbeh, ruju' singari badiiy san'atlarda ishlatilgan raqamlar asos bo'ladi. "Xamsa" dostonlaridagi raqamlar bilan bog'liq badiiy san'atlarni aniqlash jarayonida bu qarashning to'g'ri ekanligi tasdiqlandi.

Badiiy san'atlar uchraydigan baytlarni puxta tahlil qilish natijasida o'zaro zid bo'lmasdan, kontekstda qarama-qarshi ma'no ifodalaydigan raqamlar bilan ko'plab antonim qarashlar yuzaga chiqqan-ligiga dostonlardagi o'n, yuz, ming, o'n ming, yuz ming kabi sonlar orqali ifodalangan tazod, tarse', tardi aks, istiora she'riy san'atlari misolida tahlil qilindi.

Tasavvuf adabiyotida muqaddas deb qaraladigan bir, ikki, to'rt, yetti tarzidagi raqamlar "Xamsa"da ham tasvuvufiy mohiyat, tasavvufiy tafakkurni aks ettirganiga ishonch hosil qilindi. Bu esa Navoiy dahosining diniy, falsafiy, ilmiy, shuningdek, xalq hayoti bilan juda yaqindan tanish bo'lganigini ifoda etadi.

Navoiy "Xamsa"da raqamlarni nuktadonlik bilan so'z san'ati darajasiga olib chiqadi. Ulardan muayyan badiiy tasvir vositasi fodalaniadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”, I jild. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017. 434 bet.
2. Mirziyoyev Sh. M. BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.// Xalq so‘zi. 2017. 20-sentabr. 1-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2017. № 258 (6952). 3-bet.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.176 bet.
5. Kaimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001. 264 bet
6. Karimov I. A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1993. 152 bet.

II. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Mahmudov Q. va boshqalar. “Adabiyot”. 7-sinf. Darslik. Toshkent: “Sharq”, 2009. 366 bet.
2. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. “Adabiyot”. 9-sinf. Darslik. Toshkent: “Yangi yo‘l poligrafik servis”, 2014. 200 bet.
3. Sirojiddinov Sh., Yusubova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. I kitob. (Darslik). T.: “Tamaddun”, 2018. 520 bet.
4. Xo‘jayev T.R. Alisher Navoiy “Xamsa”sini o‘rganish. (O‘quvchilar, talabalar, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma) Toshkent: O‘zR “Fan” nashriyoti, 2014. 176 bet.
3. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 528 bet.

III. Asosiy adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik. Oltinchi jild. “Hayrat ul-abror” Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 812 bet.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik. Oltinchi jild. “Farhod va Shirin” Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 812 bet.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik. yettinchi jild. “Layli va Majnun” Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 696 bet.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik. yettinchi jild. “Sab‘ai sayyor”. Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 696 bet.
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik. sakkizinchi jild. “Saddi Iskandariy”. Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 704 bet.
6. Alisher Navoiy. “Qomusiy lug‘at”. Toshkent, “Sharq”. 1-jild. 2016.
7. Alisher Navoiy. “Qomusiy lug‘at”. Toshkent, “Sharq”. 2-jild. 2016.
8. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. MAT.20 tomlik.7-tom. T.: “Fan”, 1991.
9. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20 tomlik.8-tom. T.: “Fan”, 1991.
10. Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”. MAT.20 tomlik.9-tom. T.: “Fan”, 1991.
11. Alisher Navoiy. “Sab‘ai sayyor”. MAT. 20 tomlik.10-tom. T.: “Fan”, 1991.
12. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. MAT.20 tomlik.11-tom. T.: “Fan”, 1991.
13. Alisher Navoiy. “Lison ut-tayr”. MAT.20 tomlik.12-tom. T.: “Fan”, 1991.
14. Komilov N. “Tasavvuf”. Toshkent: “Movarounnanr”, 2009.
15. Hasanov S. “Navoiyning yeti tuhfasi”, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.
16. Jo‘rayev M. “Sehrli” raqamlar siri”, Toshkent: “Fan”, 1991.
17. Jo‘rayev M. “O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar”. T.: “Fan”, 1991.
18. Jo‘rayev M. “Sehrli” raqamlar siri. T.: “Fan”, 1990. 132 bet.
19. Jo‘rayev M. Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi “yetti”lar. T.: “Fan”, 1989.
20. Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini. T.: “Fan”, 2010. 126 bet.

IV. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Abdug‘afurov A. “Buyuk beshlik saboqlari”, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.
2. Botirxon Akram. “Fasohat mulkinging sohibqironi”. Toshkent, “O‘zbekiston”. 2016.
3. Hayitmetov A. “Adabiy merosimiz ufqlari”. Toshkent, “O‘qituvchi”. 1997.
4. Hayitmetov A. “Navoiy lirikasi”. Toshkent, “O‘zbekiston” 2015.
5. Mallayev N. “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti”, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
6. Haqqul I. “Navoiyga qaytish”. I kitob. Toshkent: “Fan”, 2007.
7. Haqqul I. “Navoiyga qaytish”. II kitob. Toshkent: “Fan”, 2008.
8. Haqqul I. “Tasavvuf va she‘riyat”, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.
9. Haqqul I. “She‘riyat va ruhiy munosabat”, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1990.
10. Erkinov A. “Navoiy peyzaj ustasi”, Toshkent: “Fan”, 1988.
11. Qutliyeva M. Raqamlarda taqdirilar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2016.
12. Ochilov E. Bir hovuch dur. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
13. Qodirov A. A. Soipov U. T. Abu Ali ibn Sino o‘rta osiyolik buyuk medik – olim. Toshkent. 1980.
14. Jumaxo‘ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. T. : “Fan”, 1996.
15. Is‘hoqov Y. O‘n sakkiz ming olam asrori. Navoiyga armug‘on. 3-kitob. T. : 2003. 126-129-betar.

V. Xorijda chop etilgan adabiyotlar:

1. Топоров В. Н. К семантике троичности. Москва. 1979;
2. Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975
3. Членов М. Л. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах. Москва. 1979.
4. Гордлевский В.А. Числительное 50 в турецком языке// Избранные произведения. Т.2. М., 1961.

5. Успенский Л. Слова о словах. Москва. 1970.
6. Членов М.А. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах // Мифология и верования народов Южной Азии. М., 1973
7. Пропп В. Я. Фольклор и действительность. Москва. 1976.

VI. Ilmiy jurnallar va chop etilgan maqolalar:

1. Ochilov E. “Komillikning ikki yo’li”, Navoiyning ijod olami. Toshkent, I kitob 2001.
2. Ochilov E. “Navoiy ijodida timsollar tizimi”, Navoiyning ijod olami. III kitob, Toshkent, 2001.
3. “Navoiyning ijod olami” (Maqolalar to‘plami). I kitob. Toshkent: “Fan”, 2001.
4. “Navoiyning ijod olami” (Maqolalar to‘plami). II kitob. Toshkent: “Fan”, 2001.
5. “Navoiyning ijod olami” (Maqolalar to‘plami). III kitob. Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2016.
6. “Navoiyga armug‘oron” (Maqolalar to‘plami). I- V kitoblar. TDPU. 2016.
7. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 2017-yil. 1-son.
8. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 2018-yil. 1-son.
9. Mamadaliyeva Z., Sayfiddinova S. “Saddi Iskandariy”dagi yetti donishmand”. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2015. 65-69-betlar.
10. Komilov N. “Hikmatlar va ibrat dostoni”. Tafakkur jurnali, 2008 yil , 3-son.

VII. Internet saytlari:

www.Ziyonet.uz

www.google.uz

www.til va adabiyot ta'limi.uz

www.Scoups